O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UO'K: 801,663:82-995:81`340.6

YOQUBOVA SEVARA BAXTIYOROVNA

# LINGVISTIK EKSPERTIZADA ANONIM XATLARNING SHAXS YOSHIGA XOS XUSUSIYATLARINI ANIQLASH

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Islomov Ikrom Xushboqovich,
filologiya fanlari doktori, dotsent

Qo'qon – 2023

QDPI A030-1
№ 0, 20 a

## MUNDARIJA

**KIRISH**.....4

**I BOB. ANONIM XATLARDA NOADABIY LEKSIK UNSURLARNING SHAXS YOSH XUSUSIYATIGA KO'RA XOSLANISHI**.....15

**1.1.** Anonim xatlarda noadabiy leksik unsurlarning voqelanish omillari.....15

**1.2.** Anonim xatlarda noadabiy leksik unsurlarning voqelanish xususiyatlari va turlari.....31

**1.3.** Anonim xatlarda noadabiy leksik unsurlarning shaxs yosh belgilariga bog'liq holda voqelanish xususiyatlari.....42

Bob bo'yicha xulosa.....52

**II BOB. ANONIM XATLARDA NOADABIY GRAMMATIK UNSURLARNING SHAXS YOSH XUSUSIYATIGA KO'RA XOSLANISHI**.....54

**2.1.** Anonim xatlarda noadabiy grammatik unsurlarning voqelanish xususiyatlari va omillari.....54

**2.2.** Anonim xatlarda noadabiy lug'aviy shakllarning shaxs yosh xususiyatiga ko'ra xoslanishi.....62

**2.3.** Anonim xatlarda noadabiy sintaktik shakllarning shaxs yosh xususiyatiga ko'ra xoslanishi.....72

Bob bo'yicha xulosa.....81

**III BOB. ANONIM XATLARDA FONOGRAFIK UNSURLARNING SHAXS YOSH XUSUSIYATIGA KO'RA XOSLANISHI**.....82

**3.1.** Anonim xatlarda fonografik hodisalarning voqelanish omillari va xususiyatlari.....82

**3.2.** Anonim xatlarda unli harflar imlosining shaxs yosh xususiyatiga ko'ra xoslanishi.....96

**3.3.** Anonim xatlarda undosh harflar imlosining shaxs yosh xususiyatiga ko'ra xoslanishi.....107

Bob bo'yicha xulosa.....122

**XULOSA**.....124
**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**.....126
**ILOVA**.....136

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida fan inson intellektining eng yuqori mahsuli sifatida baholanadi. Ayni paytda inson omili mavjud ekan, u bir joyda to'xtab qolmaydi. Integratsiyalashuv jarayoni fanlararo o'zaro hamkorlikni yuzaga keltirdi. Endilikda muayyan fan tarmog'idagi yechimini topmagan muammolar ikkinchi bir fan ta'sirida hal qilinmoqda. Inson va uning faoliyati bilan bog'liq psixologiya, sotsiologiya, pragmatika, kulturologiya kabilar tilshunoslik bilan bevosita aloqadorlik kasb etadi. Tadqiq obyekti turli ifoda, belgi va algoritmlar sanaladigan matematika va informatikada ham tilning roli yuqori ekanligi o'z isbotini topgan. Insoniyat tomonidan "sun'iy intellekt" yaratishga bo'lgan harakat tilning amaliy ahamiyati naqadar yuqori ekanligini yana bir karra isbotladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek[1], davlat tiliga bo'lgan yuksak e'tiborni biz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak. Shuning uchun tilning amaliy funksiyasi bugungi kunda deyarli barcha fan tarmoqlari uchun birday ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma'noda tilning fan sohalaridagi amaliy ahamiyatini baholash zarur.

Dunyo tilshunosligida til va yurisprudensiya kesishmasida qator yo'nalishlar yuzaga kelmoqda. Albatta, ushbu yo'nalishlar bir-birini taqozo etadi, ayni damda bir-biridan farq qiladi. Bu holat tilning imkoniyati serqirra ekanligidan dalolat beradi. Qonun hujjatlari tili, sud nutqi bilan bog'liq leksik birliklarning semantik-stilistik xoslanishi, sudya, tergovchi, advokat, gumonlanuvchi va aybdor nutqi qurilishidagi uslubiy xoslanish kabilar yuridik tilshunoslikning tadqiq masalalaridan sanaladi. Bevosita kriminalistik matnlarni tadqiq qilish, ularga yechim topish, o'z joniga qasd qilish, qotillik bilan bog'liq jinoyatlarda matnlarni semantik-stilistik xossalariga ko'ra tadqiq qilish masalasi bilan aloqador soha

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2019-yil 21-oktabr. http://xs.uz/uz/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-o'zbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilganining-o'ttiz yilligiga-bag'ishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi

lingvokriminalistikadir. Sud jarayonida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga yechim topish, fakt va dalillarni lingvistik bilimlar orqali asoslashda tilning o‘rni g‘oyatda yuqori. Sud jarayoniga aloqador matn bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday konfliktli vaziyatlarni lingvistik belgilariga ko‘ra tahlil qilish lingvistik ekspertizaning tadqiq manbai sanaladi va lingvokriminalistika ham lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismidir. Anonim xatlar, ularda muallif atributlarini aniqlash, plagiatlik holatlarini baholash, shuningdek, savdo markalarini lingvistik jihatlariga ko‘ra tahlil qilish lingvistik ekspertizaning asosiy obyektlaridan hisoblanadi. Yuridik lingvistikaning alohida fan sohasi sifatida o‘rganilishi huquqning ijtimoiy munosabatlar tizimida tutgan keng miqyosdagi o‘rni va ahamiyati, o‘ziga xos lisoniy ifodalash uslubi hamda so‘zlarning yuridik xususiyati, maxsus terminologiyasi mavjud ekanligi bilan tavsiflanadi[2].

Mamlakatimizdagi turli muammoli masalalarga yechim topish, jinoyatlarning oldini olish va odil sudlovni amalga oshirishda lingvistik ekspertizaning roli benihoya katta. Matn bilan bog‘liq vaziyatlarda lingvistik belgilar muallif ongining pragmatik dasturini ifoda etadi. Bunda nafaqat qo‘lyozma, balki istalgan ko‘rinishdagi axborot tashish funksiyasiga ega birliklar matn muallifi haqida tegishli axborotlarni to‘plashga imkon beradi. Dalillarning yetarli emasligi tufayli ko‘pgina jinoyatlar muammoli bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, sud-huquq tizimida mavjud ekpertizalar orqali aniqlash imkoniga ega bo‘lmagan anonim xatlarni, endilikda, lingvistik bilimlar orqali tahlil qilish mumkin. Bu esa muallifning muayyan identifikatsion belgilarini aniqlash va gumonlanuvchilar sonini kamaytirish, mavjud kriminalistik matnlarga lingvistik bilimlarni tatbiq etish kabi masalalarga yechim bo‘la oladi. Bu borada malakali mutaxassislar – lingvist ekspertlarga bo‘lgan talabning ortib borish holatlari tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi PF-4850-son “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini

[2] Шахабитдинова Ш.Х., Содикова М.Ш., Ахмедова М.Т., Юлдашева Ш.Х., Исмоилов Х.Т., Камолходжаева С.С., Курбонов Э.Э., Ахунов М.М. Ўзбек суд лингвистикаси: Жамоавий монография. – Андижон: Step by step print, 2020. – Б. 30.

ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy-tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi**. Lingvistik ekspertizaning qator turlari, ularni amalga oshirish mexanizmlari bo‘yicha jahonda qator tadqiqotlar yaratilgan. Jahon tajribasida lingvistik ekspertizaning anonimlik bilan bog‘liq holatlarida, asosan, namunalar, guvoh, gumonlanuvchilar ko‘rsatmalarini solishtirishga diqqat qaratiladi. Shuningdek, yirik korpuslarning yaratilganligi lingvistik belgilarni ekspertiza jarayonida korpuslar orqali solishtirish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bu esa bevosita ekspertizaning ishonchli, samarali va tezkor bo‘lishini ta’minlaydi.

Lingvistika va yurisprudensiyaning o‘zaro bog‘liqligi masalasi doirasida jahonda ijtimoiy tarmoq xabarlari va anonim xatlarni lingvistik ekspertiza qilish tamoyillari M.Kultxard[3], Tim Grant[4], Nicola-Jan Smit[5] tomonidan ishlab chiqilgan.

[3] Coulthard M. and Johnson A. Introduction to forensic linguistic.book. – NY.: Routledge, 2007. – P. 250.
[4] Grant T.D. Forensic linguistics and the delivery of justice. Book. – Birmingham: Linus. – P. 128.

Kriminalistik vaziyatlarda lingvistik ekspertizani tashkil etish masalalari Andrea Nini, Jon Olsson tadqiqotlarida yoritildi.

Rus tilshunosligida Y.L.Ziyangirova, Y.A.Grishenkova tomonidan tadqiqotlar amalga oshirildi[6]. Ekstremizm bilan bog'liq matnlar lingvistik ekspertizasi M.V.Ablin tadqiqotida o'z aksini topdi[7]. Lingvistik ekspertizaning shakllanishi va amaliyotga tatbiqi masalasi A.N.Baranov[8], Y.A.Belchikov, M.V.Gorbanevskiy, I.V.Jarkov[9], Y.N.Bondarenko[10], K.I.Brinev[11] kabilarning ilmiy izlanishlarida tekshirildi.

O'zbek tilshunosligida tilning turli sohalardagi tatbiqi, voqelanishining bevosita sud bilan bog'liqligi xususida Sh.Iskandarova[12], Sh.Shahobiddinova[13], X.Hayitov tomonidan tadqiqotlar yaratildi[14]. Sud nutqi va leksikasi masalasi A.Saidov[15], M.Mirhamidov, S.Hasanov[16], Sh.Shahobiddinova va mualliflar jamoasi[17], Q.Mo'ydinov[18] ishlarida asoslab berildi. Yuridik hujjatlarni lingvistik

---

[5] Nicola-Jane Smith. A stylistic analysis of written language behaviour with practical application to anonymous threat letters. Doctor of Philosophy: Autoref. ... diss. Psychology Department University Of Surrey September, 1996. – P. 334.

[6] Зиянгирова Е.Л. Основные тенденции развития терминилогического инструментария метаязыка юрислингвистики: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Москва, 2008. – 62 с.

[7] Аблин М.В. Теоретико-методолигическое обоснование лингвистической экспертизы по делам об экстремизме: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2016. – 62 с.

[8] Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика [Текст]: учеб. пособие / А.Н.Баранов. – Москва: Флинта: Наука, 2007. – 592 с.

[9] Бельчиков Ю.А., Горбаневский М.В., Жарков И.В. Методические рекомендации по вопросам лингвистической экспертизы спорных текстов СМИ [Текст]: сборник материалов. – Москва, 2010. – С. 105.

[10] Бондаренко Е.Н. Анализ речевой стратегии дискредитации в лингвистической экспертизе (на примере интернет-комментария) // Филологические науки. Вопросы, теории и практики. – 2014. №10-1(40). – С. 27-29.

[11] Бринев К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза. Монография. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2009. – 252 с.; Бринев К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Кемерово, 2010. – 72 с.

[12] Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарканд, 1993. – 118 б.

[13] Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Татбиқий тилшунослик тезислари // Андижон давлат университети. Илмий хабариома. – 2016. – №3. – 45 б

[14] Ҳайитов Х. Қонун ижодкорлигида юридик лингвистиканинг ўрни ва аҳамияти: Юридик фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011. – 206 б.

[15] Саидов А., Саркисяиц Г. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Адолат, 1994; Саидов А., Саидова Л., Кўчимов Ш., Қосимова М. Қонун ва тил. – Тошкент: Иқтисодиет ва ҳуқуқ дуиеси, 1997. – 168 б.

[16] Мирхамидов М., Ҳасанов С. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Университет, 2004. – 146 б.

[17] Шахабитдинова Ш., Рустамов Д., Попов Д., Абдуллаев Б., Миралимова Ш. Оммавий лисоний маданият. – Андижон: Step by step print, 2020. – 150 б.

bilimlar asosida tahlil qilish xususida K.N.Qayumova[19], matnning leksik, grammatik, fonetik tahlili M.Qurbonova, gazeta matnining psixolingvistik tahlili I.Azimova, matnda inson omilining ustuvorligi D.Xudoyberganova, matnning pragmatik xususiyatlari Sh.Safarov, M.Hakimov, qo'lyozma matnlar H.Sulaymonov, sathlararo dialektik kategoriyalarning ifodalanishi D.Nabiyeva[20] kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Sud tiliga oid Sh.Iskandarova[21], M.Mirhamidov, S.Hasanov[22], Sh.Shahobiddinova va mualliflar jamoasi[23], Q.Mo'ydinov tomonidan tadqiqotlar olib borilgan hamda ular monografiya holatida ilmiy to'plamlarda nashr etilgan.

O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishini lingvistik ekspertiza orqali aniqlash bo'yicha tadqiqot D.A.To'rayeva[24] tomonidan amalga oshirildi.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar lingvistik ekspertizaning muayyan turlarida jarayonni tashkil etish, metodlarni tanlash, xulosalarni shakllantirishga asoslanadi. Tadqiqot davomida ushbu tadqiqotlarga murojaat qilindi, zarur o'rinlarda ularning materiallaridan foydalanildi. Biroq matnning shaxs yosh xususiyatiga bog'liq lingvistik jihatlari maxsus tadqiq qilinmagan. Yaratilgan tadqiqotlar sotsiolingvistik mohiyat kasb etib, asosiy e'tibor nutqning o'sish

---

[18]Мўйдинов К.А. Ўзбек тили суд нутқи лексикаси: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 145 б.

[19]Қаюмова К.Н. Предикативликнинг синтактик-семантик хусусиятлари (халқаро ҳуқуқ ҳужжатлари инглиз, ўзбек ва рус тиллари материаллари қиесий таҳлили асосида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. 154 б.

[20]Qurbonova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014.; Nabiyeva D.A. O'zbek tili sathlarida dialektik kategoriyalarning namoyon bo'lishi: Filol. fan. dokt. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2006.; Azimova I.A. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2008.; Sulaymonov H. Alisher Navoiy lirikasining tekstologik o'rganilishi: Filol. fan. dokt. ...diss. – Toshkent, 1961.; Ziyayev A.I. Tilda intensifikatsiya/deintensifikatsiya semantikasining lisoniy birlik va shakl paradigmalarini hosil qilishi: Filol. fan. dokt. ...diss. – Farg'ona, 2020.; Xayrullayev X.Z. Til va nutq birliklarining iyerarxik munosabatlari: Filol. fan. dokt. ...diss. – Toshkent, 2018.; Safarov Sh., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlil asoslari: O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2007.;Hakimov M. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1994.

[21] Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд. 1993. – Б 118.

[22]Мирхамидов М., Ҳасанов С. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Университет, 2004.

[23]Шахабитдинова Ш., Рустамов Д., Попов Д., Абдуллаев Б., Миралимова Ш. Оммавий лисоний маданият. – Андижон: Step by step print: 2020. – Б 150.

[24] To'rayeva D.A.O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi: Filol. fan bo'yicha fals.dokt. (Phd)... diss. Qo'qon – 2022. – 137 b.

tendensiyalariga bag‘ishlangan. Anonim xatda namunalarsiz muallifning taxminiy yoshini aniqlash masalasi maxsus o‘rganilmagan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek amaliy tilshunosligi masalalari tadqiqi” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Anonim xatlar lingvistik ekspertizasida muallifning yoshini aniqlash bo‘yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** Ushbu tadqiqot ishining vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- shaxs nutqi shakllanishiga sotsial, mental, pragmatik omillarning ta’siri masalasini o‘rganish va tahlil qilish hamda lingvistik ekspertiza uchun ahamiyatini yoritish;

- shaxs nutqida noadabiy leksik birliklarning qo‘llanilishi bilan bog‘liq nazariy fikrlarni o‘rganish, munosabat bildirish va o‘zbek tilidagi matnlarda yosh toifasiga ko‘ra leksik birliklarning xoslanishini misollar orqali dalillash;

- shaxsiy xatlarda qo‘llaniluvchi noadabiy lingvistik birliklarni leksik, grammatik, fonografik kategoriyalarga ajratish orqali tahlil qilish;

- grammatik vositalarning shaxs yosh xususiyatiga muvofiq xoslanishini sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar va gap bo‘laklarining stilistik jihatiga ko‘ra tadqiq etish;

- lug‘aviy birliklarning turli yosh toifasida qo‘llanilish jihatini tizimli ravishda asoslash;

- anonim yozishmalarda fonografik hodisalarni tahlil qilish, shaxs yosh xususiyatiga muvofiq qo‘llanilishidagi xarakterli jihatlarni ko‘rsatish;

- qo‘lyozma va bosma ko‘rinishdagi matnlarda shaxsning yoshiga muvofiq nutqiy xoslanishi mezonlarini ishlab chiqish;

- mikro-bloklar (tvit, komment)lar tahlili orqali lingvistik birliklar xoslanishi, turli qisqartmalar, punktuatsion belgilarning turli yosh toifasida xoslanish omillarini tahlil qilish;

- qo'lyozma matnlarda unli va undosh harflarning kichik, katta va o'rta yosh toifasida umumiy belgilarini aniqlash, ularning lingvistik ekspertizadagi samaradorligini asoslash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida qo'lyozma matnlar, mikro-bloklar, ijtimoiy tarmoqlardagi xatlar, kriminalistik matnlar, anonim xatlar, ekspert xulosalari xizmat qiladi.

**Tadqiqotning predmeti**ni o'zbek tilidagi anonim xatlarda shaxs yoshiga muvofiq noadabiy leksik, grammatik, fonografik unsurlarning qo'llanilishiga oid lingvistik ekspertiza jarayoni, usullari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari**. Dissertatsiyada kuzatish, analiz, sintez, eksperimental tahlil, lingvistik tahlil, statistik tahlil, sifat va miqdoriy tahlil usullariga tayanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

lingvistik ekspertiza uchun anonim xatlarda muallifning taxminiy yoshini aniqlashda lingvistik belgilarning muhim omil bo'lib xizmat qilishi, nutqda noadabiy birliklarning yuzaga kelishiga ta'sir o'tkazuvchi omillar va ularning shaxs yoshiga muvofiq qo'llanilishi dalillangan;

ijtimoiy tarmoqlar, qo'lyozma matnlarda qo'llanilish chastotasi yuqori noadabiy leksik birliklarning shaxs yoshiga muvofiq xoslanishi ochib berilgan;

noadabiy leksik, grammatik, fonografik birliklarning yosh kategoriyasi bo'yicha yuqoridan quyiga miqdor va foiz ko'rsatkichlarida kamayib borishi, noadabiy lug'aviy va sintaktik shakllarning qo'llanilishida yosh kategoriyasining bevosita ta'sir qilishi dalillangan va grammatik unsurlar 4 yosh toifasida tizimlashtirilib, noadabiy leksik, grammatik, fonografik vositalarning 4 guruhdagi (12-20, 21-30, 31-40, 50 va undan yuqori) yosh toifasida tajriba va kuzatishlar xulosalari asosida maxsus katalogi yaratilgan;

fonografik holatlarda shaxsning yosh ko'rsatkichi to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmasligi dalillangan va tajriba-sinov ishlari orqali isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

-4 xil yosh toifasiga ko'ra kishilarning yozma nutqiga xos leksik, grammatik va stilistik, fonografik xususiyatlari o'rganilgan. Tizimli tahlil etilgan;

-4 xil yosh toifasiga xos lingvistik xususiyatlar tizimlashtirilib chiqilgan;

-4 xil yosh toifasida kuzatilgan identifikatsion alomatlarni aniqlash va lingvistik ekspertizada qo'llash mezonlari ishlab chiqilgan;

-matn avtorizatsiyasi bilan bog'liq lingvistik ekspertizalarda muallifning taxminiy yoshini aniqlashda ekspert xulosalarini shakllantirishning 3 xil asosi yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishlarida nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tahlillarning bevosita yosh toifasiga muvofiq namunalaridan foydalanilganligi, olingan matnlarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, amaliy ishlar natijalari orqali yakuniy nazariy fikrlar yaratilganligida ko'rinadi. Shuningdek, tahlil jarayonini to'g'ri tashkil etishda Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi sud-ekspertizasi markazi hamda Ichki ishlar vazirligi huzuridagi sud-ekspertizasi ekspert-mutaxassislar tajriba va tavsiyalariga tayanilganligi, amaliyotga tatbiq etilganligi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4125-son "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq amalga oshirilganligi tadqiqotning ishonchliligini ta'minlaydi. Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslub iy, ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari, OAK ro'yxatidagi hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqola, xulosalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, lingvistikada shu vaqtgacha bo'lgan nazariyalarning amaliyotdagi rolini oshirishga yordam beradi. O'zbek tilshunosligi va yurisprudensiyasida lingvistik ekspertizaning rivojlanishiga turtki beradi. Turli

muammoli matnlarda (xoh og‘zaki, xoh yozma) lingvistik ekspertizani belgilash, shuningdek, ekspert qarorlarini xulosalashga ko‘maklashadi. Tadqiqot natijalari yuridik va amaliy filologiya yo‘nalishlarida ta’lim oluvchilar uchun qo‘llanma vazifasini bajarishi mumkin. Keyinchalik yaratiladigan reklama, lavhalar, iqtisodiy, turli kriminalistik matnlarning lingvistik ekspertizasiga bag‘ishlanadigan tadqiqotlarga asos vazifasini bajaradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Lingvistik ekspertiza uchun anonim matnlardagi noadabiy birliklarning shaxs yoshiga xoslanishi yuzasidan erishilgan ilmiy natijalar asosida:

lingvistik ekspertizaning bugungi kundagi amaliy tilshunoslik va sud-huquq tizimidagi ahamiyati masalasiga oydinlik kiritish, lingvistik ekspertizaning bir obyekti sanalgan anonim xatlarda nutqning xoslanishi, nutqiy vaziyatni yuzaga keltiruvchi omillar va ushbu omillarni tilshunoslikdagi nazariyalar asosida lingvistik ekspertiza qilishga doir xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi 2021-yil 14-oktabr kuni namoyish qilingan “Madaniyat va ma’rifat” telekanalining “Bugunning gapi” ko‘rsatuvi dasturlar ssenariysini tuzishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Madaniyat va ma’rifat” telekanali davlat muassasasining 2021-yil 10-dekabr №01-16/259-son ma’lumotnomasi). Natijada amaliy tilshunoslik va sud-huquq tizimida lingvistik ekspertiza yangi yo‘nalish ekanligi va uning mohiyati, amaliy ahamiyati, vazifalari hamda fan va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni masalalari haqidagi ma’lumotlar keng jamoatchilikka yetkazilishi ta’minlangan.

Tergov jarayonida gumonlanuvchining turli ko‘rinishdagi konfliktli matnlarda shaxs nutqining xarakterli xususiyatlarini aniqlashga doir xulosalardan 2021-yil 1-noyabr kunidan 2021-yil 30-dekabr kunigacha O‘zbekiston Respublikasi IIB huzuridagi Tergov departamenti tomonidan JKning 168-moddasi “a” bandi bilan qo‘zg‘atilgan 262872/2021-1-sonli jinoyat ishi bo‘yicha Jinoyat-protsessual Kodeksning 69-moddasi talablariga asosan o‘tkazilgan dastlabki tergov harakatlarida foydalanildi. (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi tergov departamenti 2022-yil 12-yanvar №18/235-sonli

ma'lumotnomasi) Natijada tergov jarayonida gumonlanuvchining yozma nutqi gumonlanuvchi ko'rsatmalariga aloqadorligini aniqlashga xizmat qilgan.

Tilshunoslikda noadabiy unsurlarning hosil bo'lishi va so'z yasalish tizimidagi o'rni; noadabiy leksik unsurlarning shaxs yosh xususiyatlariga ko'ra xoslanish paradigmalarini shakllantirish; noadabiy leksik unsurlarning shaxs yosh xususiyatiga ko'ra xoslanishining leksikografik talqinini tahlil qilish; noadabiy grammatik unsurlarning so'z yasalish tizimiga ta'siri, og'zaki nutqda voqelanishi; noadabiy lingvistik birliklarning yosh toifasiga moslashish mohiyatini ochishda muhim bo'lgan mezonlarni aniqlash yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar hamda tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan FA-F1-G003 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" ("Funksionalnoe slovoobrazovanie v sovremennom karakalpakskom yazike"); FA-A1-G007 "Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" mavzularidagi fundamental va ilmiy-amaliy loyihalarda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022-yil 15-fevraldagi №17-01/27-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi "Sud huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-son farmoni, 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 16-fevraldagi PF–4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–2909-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 17-yanvardagi "Sud ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4125 qarorlarida belgilangan masalalarning ijrosi ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro hamda 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumani va seminarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish nashr ettirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta (4 tasi respublikada va 3 tasi xorijiy jurnalda) e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, umumiy hajmi 127 sahifani tashkil etadi.

## I BOB. ANONIM XATLARDA NOADABIY LEKSIK UNSURLARNING SHAXS YOSH XUSUSIYATIGA KO'RA XOSLANISHI

### 1.1-§. Anonim xatlarda noadabiy leksik unsurlarning voqelanish omillari

Ma'lumki, *me'yor* va *uslub* bir-birini taqozo etadigan tushunchalar hisoblanadi. Adabiy til me'yorlarni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish, uni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va u bilan bog'liq muammolar yechimini topish tilshunoslikning amaliy tilshunoslik sohasi oldidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Adabiy tilning o'ziga xos jihatlari, uning rivojlanish qonuniyatlari, undagi til birliklarining nutq vaziyatiga mos holda qo'llanish imkoniyatlarini tadqiq qilmasdan amaliy tilshunoslik masalalari xususida asosli xulosa chiqarish mumkin emas. "Tilning, nutqning normali ekanligi aniq. Ammo mana shu normalarni belgilash, ularning to'g'riligi, maqbulligini aniqlash, baholash oson ish emas. Chunki hozirga qadar tillarning, jumladan, o'zbek tilining normalari, maqsadga muvofiqligi, har bir nutqiy holat, vaziyat, nutqiy uslub talablari nuqtai nazardan qanchalik yo'q hamda nufuzli ekanligiga yetarli ravishda o'rganilgan emas. Bu masalani o'rganish, o'z navbatida, til normasi nazariyasi, lisoniy norma haqidagi ta'limot bilan bog'lanadi. Bunday ta'limot mavjud. Ammo hozirga qadar til normasi tushunchasi, uni tushunish, talqin qilish, konkret normani belgilash va baholashning ko'pgina tomonlari ilmiy jihatdan munozarali yoki noaniqdir. Shu jihatdan normani, jumladan, adabiy norma haqida hozirgi davr tilshunosligida mavjud bo'lgan fikrlarni tahlil qilish va ma'lum xulosalar chiqarish o'zbek tilshunosligining lisoniy norma nazariyasini rivojlantirishga xizmat qilishi shubhasiz"[25].

Tilshunoslikda me'yor tushunchasiga nisbatan namuna, andaza, norma, qoida kabi turli atamalar qo'llanilayotgan bo'lsa-da, ular mazmunan yagona maqsad yo'lida xizmat qiladi. Bu holat tilshunoslikka oid lug'atlarda berilayotgan ta'riflarda ham ko'zga tashlanadi. Mavjud fikrlar asosida "normaning mohiyatini quyidagicha ta'riflash mumkin: bir tomondan, bu ma'lum kommunikativ vazifaga

[25] Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. (Адабий норманинг типлари) 2-қисм. – Тошкент, 1998. – Б. 9-10.

va ma'lum lisoniy-nutqiy vaziyatga muvofiq so'zlovchi yoki yozuvchi uchun normali variantlarni xatosiz tanlab o'z imkoniyatini beruvchi qonun-qoida, ko'nikma, malaka, mexanizm bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'sha so'zlovchi yoki yozuvchi konkret nutqni muloqotda ishlatish uchun tanlab olingan til vositalari, ya'ni amalga tatbiq qilingan imkoniyatlardir"[26]. Adabiy til tinimsiz taraqqiyotda ekan, nutq madaniyatiga bag'ishlangan har bir asarda adabiy til me'yorlari muammosi asosiy masala sifatida qaraladi. Ularda to'g'ri ta'kidlanganidek, "Til normasi katta ijtimoiy ahamiyatga ega. U tilda doimo sodir bo'lib turadigan o'zgarishlarga bardosh berib, uni buzilishlardan saqlaydi, avlodlar o'rtasidagi aloqani, turli davrlardagi madaniy nutqiy an'analar izchilligini ta'minlaydi"[27]. Adabiy til me'yori, uning mohiyati, adabiy til rivojiga bog'liq holda o'zgarib turishi, taraqqiyot qonuniyatlari nimalarda namoyon bo'ladi, degan savollar o'tgan asrning ikkinchi yarmida asosiy masalalar sifatida kun tartibiga qo'yilgan edi[28].

S.I.Ojegov tomonidan ta'kidlanganidek: "... me'yor bu ijtimoiy jarayonda birga mavjud bo'lgan, bor bo'lgan, yangi paydo bo'lgan yoki o'tmishning kam ishlatiladigan til unsurlarini (lug'aviy, talaffuz, morfologik, sintaktik) tanlashning natijasi sifatida shakllangan, jamiyatga xizmat qiladigan foydali (to'g'ri, ma'qul) til vositalari yig'indisidir, keng ma'noda bu unsurlarni baholashdir"[29]. Jamiyatda keng omma milliy madaniyatning barcha xazinalarini, shu jumladan, adabiy tilni o'zlashtirayotgan paytda nutq madaniyati masalalari birinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi. Ijtimoiy hayotning yangi tuzilishi og'zaki muloqotning yangi shakllarining rivojlanishiga, ommaviy, ijtimoiy nutqning misli ko'rilmagan rivojlanishiga yordam beradi. Jamoatchilik faoliyati, matbuot, adabiyot, radio, televideniye, ovozli filmlar keng ommaning mulkiga aylandi. Shunday ekan, nutqning muloqot vositasi sifatida namunali, to'g'ri, aniq va ifodali bo'lishiga,

---

[26]Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991. – Б. 39.

[27]Purdy D.C. Identification of handwriting. In: Scientific Examination of Questioned Documents. 2nd ed. J. S. Kelly and B. S. Lindblom, Eds. CRC Press-Taylor & Francis, Boca Raton, Florida, 2006, p. 47–74.

[28]Искандарова Ш. Ўзбек нутк одатиннинг мулокот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарканд, 1993. – 27 б.

[29] Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русскый языкю. http://ozhegov.info/slovar/

unda muloqotga xalaqit beradigan va tilni qashshoqlashtiradigan hamma narsa bo'lmasligiga intilish juda muhim[30].

Bu borada quyidagi fikrlar ham e'tiborga molik: "Me'yor bu til birliklarini o'zaro yaxshi tushunish zarurati tufayli undan foydalanadigan xalq tomonidan yaratilgan, til ko'rinishining amalda bo'lgan xususiyatidir. Aynan mana shu zarurat til tizimining yagonaligiga erishish yo'lida odamlarga biron variantni ma'qul ko'rish, boshqasidan voz kechish istagini tug'diradi. Jamiyatning ana shunday yagonalikka erishish yo'lidagi intilishi bilan birgalikda til me'yori milliy adabiy tilda yuqori darajaga ko'tarilib, mustahkamlanib boradi"[31].

Umumiy norma ma'lum qilingan, masalan, o'zbek tilining barcha ko'rinishlarida qo'llanayotgan normalar sistemasining yig'indisidan iborat. Xususiy norma – umumiy normaning nutq ko'rinishlari, shakllaridagi, tilning shakllardagi aniq ko'rinishlaridir. O'zbek tilining quyidagi xususiy normalari haqida gapirish mumkin:

1. O'zbek adabiy tili normasi;

2. O'zbek lahja va shevalar normasi (dialektal norma);

3. O'zbek so'zlashuv nutqi normasi;

4. O'zbek tilining ijtimoiy tarmoqlari, ya'ni "ijtimoiy dialektlar", "ijtimoiy argolar" normasi (jargon, professional nutq ko'rinishlari, argoning boshqa xillarga xos normalari)"[32].

Bugungi kunda o'zbek adabiy tilining birmuncha ishlangan, ma'lum darajada qolipga solingan me'yorlari quyidagicha ko'rsatiladi:

leksik-semantik me'yor – leksik (so'z qo'llash) me'yori;

talaffuz (orfoepik) me'yori;

aksentologik (so'z va shakllarda urg'uning to'g'riligi) me'yor;

fonetik me'yor;

grammatik (morfologik va sintaktik) me'yor;

---

[30]Ожегов С.И. О нормах словоупотребления. Лексикология. Лексикография. Культура речи. – М., 1974. – С. 285-291.

[31] Головин Б.Н. Введение в языкознание . – М., 1977. – С. 234-235.

[32]Бегматов Э. ва бошқ. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 19.

so‘z yasash me’yori;

imloviy me’yor;

yozuv (grafika) me’yor;

punktuatsion me’yor;

uslubiy me’yor[33].

Adabiy normadan chetlashish fonetik, leksik, grammatik, uslubiy jihatdan amalga oshishi mumkin. Adabiy normadan chekinish natijasida noadabiy fonetik, leksik, grammatik birliklar yuzaga keladi. Xususan, rang bildiruvchi *siyohrang* leksik birligi adabiy normaga muvofiq, biroq uning dialektal varianti – *qulpi* yoki chet tilidagi tarjimasi – *fioletiviy* normadan tashqarida. Yoki *-ning, -ni* kelishik shakllarining ayni shu shaklda yoki *-in* qisqartma shaklda qo‘llanilishi adabiy norma sanalsa, *-ning* o‘rnida *-ni, -ni* o‘rnida *-ti, -di* qo‘shimchalarining qo‘llanilishi noadabiy birliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Lingvistik ekspertizada noadabiy birliklar bazasini yaratish, ularni amaliyotda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Boisi anonimlik bilan bog‘liq holatlarda yozma matn muallifining identifikatsiyasini aniqlashda bevosita noadabiy leksik unsurlar muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda kishilar kundalik muloqotda yoshi, jinsi, muayyan hududga xosligi nuqtayi nazaridan umumiy va maxsus leksik bazadan foydalanishadi. Alohida xoslik ifodalovchi birliklar sirasida noadabiy birliklar asosiy o‘rin tutadi. Matn avtorizatsiyasi masalasida noadabiy birliklarni o‘rganish, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash matn muallifligini o‘rnatishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Lingvistik ekspertizada matn avtorizatsiyasi keng qamrovli tushuncha sanaladi. Bunda “Matnning muallifini qanday aniqlash lozim?”, “Muallifni aniqlash atributlari nimadan iborat?” singari savollarga oydinlik kiritish lingvist-ekspert zimmasidagi vazifalar sirasiga kiradi. Matndagi so‘zlarning qo‘llanish chastotasi, yosh, hudud, ijtimoiy mansubligi, gender xosligiga ko‘ra belgilarini aniqlash uchun matnning lingvistik xususiyatlari sinchiklab tekshiriladi. Jahon

[33] Jo‘rayev T.T., Halimov S.G‘. Nutq madaniyati. – Samarqand, 2021. – B. 39.

lingvistik ekspertologiyasida konfliktli matnning muallifini aniqlash masalalari bo'yicha Malcolm Coulthard tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan[34].

Yuqorida ta'kidlangan tadqiqot umumiy ma'noda turli yozma matnlar muallifini aniqlash atributlariga asoslanadi. O'zbek tilshunosligida ham noadabiy unsurlarning leksik-semantik jihatdan turlari, ifodalanish shakllari haqida qator tadqiqotlar yaratilgan. Biroq lingvistik ekspertologiya nuqtayi nazaridan noadabiy unsurlarning yosh xususiyatlariga ko'ra xoslanishi bo'yicha tadqiqotlar salmog'i yetarli darajada emas. O'zbek lingvistik ekspertologiyasi bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda quyidagi jihatlar alohida ta'kidlanadi:

So'nggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda shaxs ijtimoiy xavfsizligi, sha'ni va qadr-qimmatiga daxl qiluvchi xabarlar, kommentlarning ko'payishi, keng jamoatchilik e'tiborini tortishi natijasida bu boradagi da'vo arizalari soni ortib bormoqda. Ayniqsa, internet taraqqiyoti natijasida Konstitutsion tuzumga tajovuz qiluvchi, milliy, etnik, irqiy va diniy nizolarni qo'zg'ashga, urushni targ'ib qilish mazmunidagi siyosiy xabarlar, kiber jinoyatlar soni ortishi kriminalingvistika takomili, shuningdek, malakali lingvist-ekspertlarga bo'lgan ehtiyojning tobora ortishiga sabab bo'ladi. Dastavval, qo'lyozma matnlar bilan ish tutgan ekspertlar endilikda keng ko'lamdagi konfliktli matnlar bilan ishlashiga to'g'ri keldi.

Qo'lyozma matnlar tahlilida ekspertlar tomonidan shaxs psixologiyasi, shaxsiyat, mental, grafologiya, e'tiqod tizimlari, grafoterapiya, nerv yo'llari jihatlariga urg'u beriladi. Boisi yozuvga ayni shu ko'rsatilgan omillar bevosita tas'ir qilishi xususida olimlar tomonidan turli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Qo'shma Shtatlardan tashqaridagi aksariyat mamlakatlarda qo'l yozuvi bilan bog'liq matnlarni ekspertiza qilishda grafologiya termini faol qo'llaniladi. Biroq grafologiyaning asosiy maqsadi yozuvga qarab inson xarakter qirralarini aniqlashdir. Fransiya, Yevropa, Hindiston va butun dunyoda qo'l yozuvi tahlili bir sohada birlashtirilgan. Bu xuddi, siz shifokorsiz, degan xulosani birgina uning qo'l yozuvidagi shakllarga qarab aytishga o'xshaydi. Bu sohada turli sohalar va turli

[34]Coulthard M. and Johnson A. Introduction to forensic linguistic. Book. – New York: Routledge, 2007. – P. 250.

metodologiyalar mavjud. Xususan, Geshtalt usuli 1900-yillar boshidagi nemis tadqiqotlariga asoslangan va Rorschachning siyoh dog'lari testlariga o'xshaydi. Roschach Geshtalt terapevt sifatida dastlab butun qo'lyozmani ko'rib chiqadi, so'ngra mavzuni qismlarga ajratishni boshladi. Uning fikricha, butun uning qismlari yig'indisidan kattaroqdir[35]. Bu his-tuyg'ularni o'z ichiga olib, ko'plab shaxsiy xususiyatlarni ko'rib chiqishni o'z zimmasiga oladi. Geshtalt-terapevt, aslida, juda keng nuqtayi nazardan ishlaydi. Qo'lyozmalarni tahlil qilishda xarakterli insult usuli hozir eng mashhur hisoblanadi. Bu usul xususida 1950-yillarda ko'plab kitoblar yozgan Milton Bunker tomonidan asos solingan. U Chikagoda 1950-yillardan to 90-yillarning o'rtalariga qadar juda mashhur bo'lgan o'quv kompaniyasiga asos solgan. Bunker qo'l yozuvini tahlil qilish uchun ushbu yondashuvni Fransiyadan Amerikaga olib kelgan mutaxassis edi. Bu usul qo'lyozmadagi har bir zarbani muhim deb hisoblaydi va katta va kichik barcha omillarni hisobga olgan holda butun shaxsiyatni shakllantirish uchun foydalanadi.

Ingliz grafologiya mutaxassisi R.Faggning fikricha, qo'l yozuvini tahlil qilish jarayonida tilning yirik korpusidan foydalanish, birinchidan, ish hajmining samaradorligiga sabab bo'lsa, ikkinchidan, ekspertlar potensialining oshishiga xizmat qiladi[36].

Muloqotga kirishuvchilar nutqiy sharoit, vaziyatga ko'ra til birliklaridan turlicha foydalanishadi. Ushbu vaziyatda nutqni yuzaga keltiruvchi omillar A.Musayev tomonidan quyidagicha tasniflanadi:

1) munosabat sharoitining rasmiylik va norasmiylik darajasi. Ma'lumki, rasmiy tartibda shakllangan nutqiy vaziyat kishiga majburiyat yuklaydi, natijada u har bir aytadigan fikrini qayta o'ylab, mantiqiy izchillikka asoslangan holda muloqotga kirishadi. Bunda, asosan, adabiy tilga doir til birliklariga murojaat qilinadi. Norasmiy vaziyatda suhbatdoshlar nutqiy erkinlikka ega bo'lishadi, ya'ni

[35]Rorschach H. Psychodiagnostics; a diagnostic test based on perception: including Rorschach's paper, The application of the form interpretation test (published posthumously by Dr. Emil Oberholzer). Grune & Stratton inc, New York (1942). – P. 15.
[36]Fagg R. (1962) Everyday Handwriting, Six Books. Hodder and Stoughton. – London. – P. 186.

ular erkin fikrlashadi va bunda, ko'pincha, so'zlashuv uslubiga xos til birliklaridan foydalanishadi;

2) nutqning shakllanishi va yashash shakli. Nutq bir-biri bilan doimo bog'liq bo'lgan yozma va og'zaki shaklda namoyon bo'ladi. Tarixan og'zaki shakli birlamchi, yozma shakl ikkilamchidir. Og'zaki yozma nutqqa nisbatan aloqa jarayonida hukmron shakl sanaladi. Ushbu nutq muloqot ifodaliligiga boy bo'lib, u yozma nutqda har doim o'z ifodasini topavermaydi. Yozma nutq mantiqiy nutq bo'lib, uning shakllanishi sekin kechadi va oldindan durustroq o'ylashni talab qiladi;

3) suhbatdoshlarning munosabat darajasi. Suhbatdoshlarning o'zaro nutqiy munosabati rasmiy va norasmiy holatda kechadi. Shu tarzdagi munosabat bevosita va bilvosita holatda yuz beradi. Bevosita nutqiy aloqa jarayoni to'liq va ikki tomonlama munosabat asosida sodir bo'ladi. Shuningdek, bunday aloqa jarayonida og'zaki nutq shakllaridan foydalanish imkoniyati ustunlikni egallaydi. Bilvosita aloqa esa majlisda so'zlash, radio va televideniye orqali gapirish, plastinka va magnit tasmasiga yozilgan so'zni eshitish orqali yuzaga keladi. Bilvosita aloqa jarayonida yozma nutq shakllaridan foydalanish imkoniyati mavjud bo'ladi;

4) nutq obyekti xarakteri. Nutq jarayonida nutq subyekti yakka, ko'plik va abstrakt xarakterda bo'ladi. Nutq subyekti yakka shaxs sifatida suhbatdoshlar bilan bevosita muloqotda bo'lganda og'zaki nutq birliklaridan ko'proq foydalaniladi. Nutq subyekti jamlikni ifodalaganda publitsistika uslubi nutqiy shakllaridan foydalaniladi. Ilmiy nutqda abstrakt xarakterdagi fikrlar bayon etiladi;

5) nutq adresatining xarakteri. Nutqni shakllantirishda ishtirok etuvchi adresat ham yakka, jamlik va abstrakt xarakterida bo'ladi. Yakka adresat so'zlashuv nutqi uchun, jamlik publitsistik nutq uchun, abstrakt adresat ilmiy va rasmiy nutq uchun ahamiyatlidir;

6) nutq ko'rinishi. O'zaro nutqiy aloqada nutqning ikki ko'rinishi: dialog va monolog mavjud. Dialog suhbatdoshlarning bevosita bir-biriga qaratilgan nutqidir. Monolog so'zlovchining o'ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglashi va javob

berishi nazarda tutilmaydigan nutqdir. Dialog so'zlashuv nutqini, monolog kitobiy nutqni shakllantirishga xizmat qiladi;

7) nutqqa maxsus tayyorgarlik ko'rilganligi darajasi. Maxsus tayyorgarlik ko'rilmay so'zlangan nutq so'zlashuv uslubini, maxsus tayyorgarlik ko'rib fikrni ifodalash kitobiy nutqni shakllantiradi;

8) nutqiy aloqada ekstralingvistik birliklarning faolligi darajasi. Nutqni tushunish va shakllantirishda ekstralingvistik omillar muhim rol o'ynaydi. Bu esa yozma nutqqa nisbatan og'zaki nutqda ustun darajada namoyon bo'ladi[37].

Tinglovchilar suhbat jarayonida nutqning juda katta o'zgaruvchanligiga duch kelishadi. Bu jarayon so'zlovchining nutqiy maqsadini muvaffaqiyatli tushunish, suhbatdoshning individual idiolektiv xususiyatlari, ovoz shovqini yoki uzoq muddatli xotirada lingvistik bilimlarga tez moslashish va ulardan foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, tinglovchining noqulay tinglash sharoitida nutqni qabul qilish qobiliyati jihatdan farqlanadi. Og'zaki nutqni tanib olish sohasidagi izchil muammo bu nutqni tanib olish qobiliyatidagi individual farqlarning asosiy manbalarini aniqlashdir. Qanday holatlarda nutqda individual xususiyatlar namoyon bo'lishi esa alohida va serqirra masala. Har qanday nutqqa xos bo'lgan umumiy jihatlar mavjud bo'ladi. Bu umumiy jihatlar o'sha tilning lingvistik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshadi. Xususan, shaxsiy xatlarda so'zlarning birikishi, qo'shimchalarning qo'llanilishi singari grammatik va sintaktik shakllar tilda mavjud qonuniyatlarga bo'ysunadi. Ammo fonografik, leksik, grammatik unsurlarning shaxs yoshiga muvofiq qo'llanilishi individual xarakter kasb etadi. Suhbatdoshga xos va guruh xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan indeksik o'zgaruvchanlik, masalan, yoshi, jinsi, shevasi va milliy tili, nutqni idrok etish jarayonlarida muhim rol o'ynaganligi isbotlangan. Demak, tinglovchining vazifasi bir vaqtning o'zida nutq signalidagi ikkala lingvistik va indeksatsion ma'lumotlarni qayta ishlash bo'lib, u ham aytilgan so'zning ko'zda tutilgan ma'nosi va bu gap qaysi vaziyatda, kim tomonidan aytilganligi, shuningdek, uning pragmatik yo'nalishini ochib berishdir. Nutqning pragmatik xususiyatlarini tahlil

[37]Musayev A. O'zbek adabiy tilining me'yori va nutq madaniyati // JSPI, 2020 – B. 25-30.

etish ham lingvistik ekspertologiyada asosiy ahamiyat kasb etuvchi jihatlardan biri. Nutq signalidagi indeksli ma'lumotlar ongli ravishda xabardorlik va e'tibor bermasdan xotirada bevosita kodlangan, bu tinglovchilarga ushbu qo'shimcha ma'lumot manbasidan foydalanib, identifikatsiya qilish uchun imkon beradi. Mahalliy bo'lmagan suhbatdoshlarning nutqi mahalliy nutq so'zlovchilariga qaraganda kamroq tushunarli bo'ladi. Xuddi shunday notanish yoki aniq lahjalar hududiga mansub suhbatdoshlarni tanib olish va tushunish qiyinroq bo'ladi. Hatto, ma'lum bir til yoki lahjada ham suhbatdoshlar nutqining tushunarli ekanligi jihati ham sezilarli darajada farq qiladi. Nutqning individual xususiyatlaridan tashqari, bir nechta suhbatdoshlarning nutqiga e'tibor qaratilsa, og'zaki nutqni tahlil qilish murakkablik kasb etadi. Ko'p suhbatdoshli muhit tinglovchidan har bir yangi ovozning indeksatsion xususiyatlarini qayta-qayta sozlashni va unga moslashishni talab qiladi, aksincha, tinglovchining so'zlashuvchi-kontingentli tafsilotlarni osonroq o'rganishi mumkin bo'lgan, takrorlanadigan suhbatdosh muhitidan farqli o'laroq, bu shovqinda so'zlarni tanib olishni yaxshilaydi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, tabiiy nutqning o'zgaruvchanligi qanday omillarga ko'ra amalga oshganini aniqlash tinglovchilar uchun qiyin kommunikativ muhitni anglashga yordam beradi. Boshqa suhbatdoshlarning fonidagi shovqin ham tinglovchiga katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, avvalgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muloqot ishtirokchilarining kommunikativ maqsadini aniqlashda ovoz tempi, qarama-qarshi taraflarning nutqida qo'llanish birliklari alohida tahlil qilinadi. Bu esa suhbatdoshlar nutqining tushunarli bo'lishiga olib keladi[38]. Bundan tashqari, suhbatdoshning shevasiga xos bo'lgan signal-shovqin nisbati so'zlarning tushunarliligini ancha pasaytirishi ko'rsatilgan[39]. Shunday qilib, mustaqil ravishda va birgalikda maqsadli

[38]Фельде О.В. Внелитературная лексика [Текст] / О.В.Фельде // Эффективное речевое общение. – Красноярск: Сибирский федеральный университет, 2014. – С. 79-80.

[39]Скляревская Г.Н. Разговорно-просторечная и областная лексика словарях и в современном русском языке (лексикографический аспект) [Текст] / Г.Н.Скляревская, И.Н.Шмелева // Вопросы исторической лексикологии и лексикографии осточнославяиских языков. – М.: Просвещение, 1994. – С. 88-94.

berishi nazarda tutilmaydigan nutqdir. Dialog so'zlashuv nutqini, monolog kitobiy nutqni shakllantirishga xizmat qiladi;

7) nutqqa maxsus tayyorgarlik ko'rilganligi darajasi. Maxsus tayyorgarlik ko'rilmay so'zlangan nutq so'zlashuv uslubini, maxsus tayyorgarlik ko'rib fikrni ifodalash kitobiy nutqni shakllantiradi;

8) nutqiy aloqada ekstralingvistik birliklarning faolligi darajasi. Nutqni tushunish va shakllantirishda ekstralingvistik omillar muhim rol o'ynaydi. Bu esa yozma nutqqa nisbatan og'zaki nutqda ustun darajada namoyon bo'ladi[37].

Tinglovchilar suhbat jarayonida nutqning juda katta o'zgaruvchanligiga duch kelishadi. Bu jarayon so'zlovchining nutqiy maqsadini muvaffaqiyatli tushunish, suhbatdoshning individual idiolektiv xususiyatlari, ovoz shovqini yoki uzoq muddatli xotirada lingvistik bilimlarga tez moslashish va ulardan foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, tinglovchining noqulay tinglash sharoitida nutqni qabul qilish qobiliyati jihatdan farqlanadi. Og'zaki nutqni tanib olish sohasidagi izchil muammo bu nutqni tanib olish qobiliyatidagi individual farqlarning asosiy manbalarini aniqlashdir. Qanday holatlarda nutqda individual xususiyatlar namoyon bo'lishi esa alohida va serqirra masala. Har qanday nutqqa xos bo'lgan umumiy jihatlar mavjud bo'ladi. Bu umumiy jihatlar o'sha tilning lingvistik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshadi. Xususan, shaxsiy xatlarda so'zlarning birikishi, qo'shimchalarning qo'llanilishi singari grammatik va sintaktik shakllar tilda mavjud qonuniyatlarga bo'ysunadi. Ammo fonografik, leksik, grammatik unsurlarning shaxs yoshiga muvofiq qo'llanilishi individual xarakter kasb etadi. Suhbatdoshga xos va guruh xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan indeksik o'zgaruvchanlik, masalan, yoshi, jinsi, shevasi va milliy tili, nutqni idrok etish jarayonlarida muhim rol o'ynaganligi isbotlangan. Demak, tinglovchining vazifasi bir vaqtning o'zida nutq signalidagi ikkala lingvistik va indeksatsion ma'lumotlarni qayta ishlash bo'lib, u ham aytilgan so'zning ko'zda tutilgan ma'nosi va bu gap qaysi vaziyatda, kim tomonidan aytilganligi, shuningdek, uning pragmatik yo'nalishini ochib berishdir. Nutqning pragmatik xususiyatlarini tahlil

[37]Musayev A. O'zbek adabiy tilining me'yori va nutq madaniyati // JSPI, 2020 – B. 25-30.

etish ham lingvistik ekspertologiyada asosiy ahamiyat kasb etuvchi jihatlardan biri. Nutq signalidagi indeksli ma'lumotlar ongli ravishda xabardorlik va e'tibor bermasdan xotirada bevosita kodlangan, bu tinglovchilarga ushbu qo'shimcha ma'lumot manbasidan foydalanib, identifikatsiya qilish uchun imkon beradi. Mahalliy bo'lmagan suhbatdoshlarning nutqi mahalliy nutq so'zlovchilariga qaraganda kamroq tushunarli bo'ladi. Xuddi shunday notanish yoki aniq lahjalar hududiga mansub suhbatdoshlarni tanib olish va tushunish qiyinroq bo'ladi. Hatto, ma'lum bir til yoki lahjada ham suhbatdoshlar nutqining tushunarli ekanligi jihati ham sezilarli darajada farq qiladi. Nutqning individual xususiyatlaridan tashqari, bir nechta suhbatdoshlarning nutqiga e'tibor qaratilsa, og'zaki nutqni tahlil qilish murakkablik kasb etadi. Ko'p suhbatdoshli muhit tinglovchidan har bir yangi ovozning indeksatsion xususiyatlarini qayta-qayta sozlashni va unga moslashishni talab qiladi, aksincha, tinglovchining so'zlashuvchi-kontingentli tafsilotlarni osonroq o'rganishi mumkin bo'lgan, takrorlanadigan suhbatdosh muhitidan farqli o'laroq, bu shovqinda so'zlarni tanib olishni yaxshilaydi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, tabiiy nutqning o'zgaruvchanligi qanday omillarga ko'ra amalga oshganini aniqlash tinglovchilar uchun qiyin kommunikativ muhitni anglashga yordam beradi. Boshqa suhbatdoshlarning fonidagi shovqin ham tinglovchiga katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, avvalgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muloqot ishtirokchilarining kommunikativ maqsadini aniqlashda ovoz tempi, qarama-qarshi taraflarning nutqida qo'llanish birliklari alohida tahlil qilinadi. Bu esa suhbatdoshlar nutqining tushunarli bo'lishiga olib keladi[38]. Bundan tashqari, suhbatdoshning shevasiga xos bo'lgan signal-shovqin nisbati so'zlarning tushunarliligini ancha pasaytirishi ko'rsatilgan[39]. Shunday qilib, mustaqil ravishda va birgalikda maqsadli

[38]Фельде О.В. Внелитературная лексика [Текст] / О.В.Фельде // Эффективное речевое общение. – Красноярск: Сибирский федеральный университет, 2014. – С. 79-80.

[39]Скляревская Г.Н. Разговорно-просторечная и областная лексика словарях и в современном русском языке (лексикографический аспект) [Текст] / Г.Н.Скляревская, И.Н.Шмелева // Вопросы исторической лексикологии и лексикографии осточнославянских языков. – М.: Просвещение, 1994. – С. 88-94.

o‘zgaruvchanlik hamda ovoz tempi tinglash muhitiga ta’sir qiladi. Bu esa nutqni tanib olish uchun yanada qiyin sharoitlarni keltirib chiqaradi.

Albatta, ushbu tadqiqotlar bevosita og‘zaki nutq bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Xatlarda nutq yo‘nalishining o‘zgarishi, xoslanishi turli obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra amalga oshishi mumkin. Xususan, tashqi muhit, ob-havo, atmosfera bosimi singari omillar inson psixologiyasiga ta’sir o‘tkazadi. Bu esa miyada qo‘zg‘aluvchanlik jarayonini jadallashtiradi. Ushbu o‘zgarish yozma nutqqa bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Qo‘lyozma matnlarda yozuvning qog‘ozga bergan bosimi, dinamikasi, strukturasida o‘zgarishlar yuzaga keladi. Yozuv tempi o‘zgaradi. Yurakning tez urishi ham tanada qon aylanishini jadallashtiradi. Bu ham, o‘z navbatida, yozuvga ta’sir o‘tkazadi. Ushbu tashqi omillar bosma ko‘rinishdagi matnlarda (ijtimoiy tarmoqlardagi xatlar: Facebook, Whats app, Twitter, Instagram, Telegram va hokazo) so‘zlarning bog‘lanishi, leksik unsurlarning tanlanishi, grammatik unsurlarning qo‘llanilishida ko‘zga tashlanadi. Nutqdagi bunday o‘zgarishga qanday omillar sabab bo‘lganligini aniqlash esa kriminalingvistik jihatdan masala mohiyatini yechishga yordam beradi. Subyektiv omillar sirasida, muayyan ***B*** shaxsning ***A*** shaxs (nutq egasi)ga ta’sirini aytish mumkin. Ko‘pgina jinoyatlar kim tomonidan sodir etilgani noma’lum bo‘lib, o‘zga shaxs tomonidan sodir etilganlik ko‘rinishida niqoblanadi va marhum tomonidan yoki o‘zga shaxsning barcha javobgarlikni o‘z zimmasiga olish mazmunidagi xabar qoldiriladi. Ushbu xabar aynan marhum(a)ga tegishli yoki tegishli emaslik holatlarini aniqlash va baholash xabarning, avvalo, texnik, so‘ngra lingvistik belgilarini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Nutqqa ta’sir etuvchi omillarni jadval ko‘rinishida quyidagicha ifodalash mumkin:

1.1-jadval

**Nutqqa ta’sir etuvchi omillar**

| T/r | ***Obyektiv omillar*** | ***Subyektiv omillar*** |
|---|---|---|
| 1. | Ob-havo sharoiti | Bir shaxs tomonidan bosim o‘tkazilishi |
| 2. | Atrof-muhit | Ruhiy holatning me’yorda emasligi |
| 3. | Qon bosimi | Jismoniy holatning me’yorda emasligi |
| 4. | Jismoniy harakatlar | Shaxsning yosh toifasi |
| 5. | Jismoniy holati | Bilimi va dunyoqarashi |
| 6. | Kayfiyat | Gender va hududiy xosligi |

Ushbu ko‘rsatilgan omillar, nafaqat, yozma nutqqa, balki og‘zaki nutqqa ham bevosita ta’sirini o‘tkazadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, nutqning voqelanishi insonning ruhiy-fiziologik holati bilan uzviy bog‘liq. Ruhiy va fiziologik holatning me’yorda emasligi yoki emotsiyalarning kuchli bosimda ekanligi ham yozma, ham og‘zaki nutqqa o‘z ta’sirini o‘tkazadi[40].

Har qanday nutq umumiy jihatlarga ega. Shu bilan birga, o‘ziga xos individual va betakrorlikni ham namoyon etadi. Lingvistik ekspertologiyada lingvistik ekspertizalarni tashkil etishda va ekspert xulosalarini shakllantirishda xususiy omillarni aniqlash va lingvistik belgilarini tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Qo‘lyozmalarda shaxsning individual jihatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Biroq bosma ko‘rinishdagi konfliktli matnlarda nutqning xoslanish omillarini aniqlash, anonim xatlarning muallifini topish birmuncha qiyin va murakkab jarayon. Shu sababdan nutqning shaxs yosh xususiyatlariga ko‘ra xoslanish omillarini aniqlash lingvistik ekspertologiyada alohida yondashuvni taqozo qiladi.

Lingvistik ekspertizada matn avtorizatsiyasini aniqlash muhim masalalardan biri. Plagiatlik holatlar, anonim xatlar muallifini va atributlarini aniqlash lingvist-ekspertdan chuqur bilim, ko‘nikma va malaka talab qiladi. Anonimlik holatida muallifni va uning atributlarini aniqlash jarayonida bir qancha usullarga tayanish maqsadga muvofiq:

1) qo‘lyozma matn bo‘lsa, yozuv xususiyatlarini o‘rganish, gumonlanuvchining turli holatlarda yozgan matnlarini solishtirish;

2) matnda qo‘llangan so‘zlarning takrorlanish chastotasi, muayyan so‘z, jumla, frazaning o‘ziga xos tarzda qo‘llanilishiga diqqat qaratish;

3) qasddan o‘zgartirilgan yozuv va uslubni tahlil qilish;

4) konfliktli matnni uslubiy xususiyatlariga ko‘ra aniqlash;

5) noadabiy unsurlarning qo‘llanilishiga diqqat qilish.

Albatta, ushbu ta’kidlangan usullar to‘laqonli ravishda matn avtorizatsiyasi masalasiga to‘la oydinlik kiritib bera olmaydi. Anonimlikda muallifi va uning

[40]Царенко В.И., Кульгейко М.П., Баяный В.А. Проблема загрязнения речи нецензурной лексикой // Проблема выхавання. — №6. — С. 40-45.

yoshi, jinsi, ijtimoiy mansubligi, konfliktli matnning xususiyati, holati, uning kriminalistika bilan aloqador yoki aloqador emasligi masalasiga diqqat qaratiladi. Bunday matnlarning muallif qiyofasini yaratishda tegishli usulni tanlash va qo'llash mumkin. Yuqoridagi usullar esa umumiy mohiyat kasb etib, lingvistik tahlil jarayonida asosiy o'rin tutadi. Ushbu ta'kidlangan usullardan so'nggisi noadabiy leksik unsurlarga diqqat qilish bo'lib, bu ham "kalavaning uchi"ni topishga yordam beradi. Rus tilshunosligida noadabiy leksik unsurlar, ularning qo'llanilishi masalasi bo'yicha D.A.Dubrovina, E.N.Gus, N.S.Papiyans, V.I.Pasibalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan[41].

O'zbek tilshunosligida esa adabiy me'yordan chetlashish masalasi A.Abdusaidov[42], I.Rasulov, N.Qodirova kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan[43]. Noadabiy leksik unsurlar tilshunoslikda qo'llanilish doirasi chegaralangan so'zlar sirasida o'rganiladi. Ushbu guruhga kiruvchi birliklar leksikada alohida o'rin tutadi. Lingvistik ekspertizada noadabiy leksik unsurlarning qo'llanilish maqsadlariga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan:

- matn avtorizatsiyasi bilan bog'liq holatlarda muallif qo'llagan noadabiy leksik unsur orqali identifikatsiya belgilarini aniqlashda (jinsi, yoshi, ijtimoiy mansubligi va h.k);

- shaxsni obro'sizlantirish mazmunli birliklar lingvistik ekspertizasida (haqorat, haqoratning darajasi, vulgar unsurlarning qo'llanish ko'lami);

- kriminalingvistikada ayblanuvchi, gumondor va guvoh ko'rsatmalarini tahlil qilish, haqiqiy jinoyatchini aniqlash (yolg'on ko'rsatmalar berilganda, ayblanuvchi aybsizligini ta'kidlaganda, jinoyatchi ayblovdan bo'yin tovlaganda);

---


[41]Коровушкин В.П. Основы контрастивной социолектологии: Дисс. ... докт. филол. наук. – Пятигорск, 2005. – 187 с.

[42] Abdusaidov A. O'qituvchining nutq mahorati. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – 86 b.

[43]Shoabdurahmonov Sh. O'zbek shevalarida leksik moslik va ularning adabiy tilga munosabati. / "O'zbek shevalari leksikasi" to'plami. – Toshkent, 1966. – B. 5; Mirzayev M. O'zbek tilining Buxoro gruppa shevalari. – Toshkent, 1969. – 32 b.; Мирзаев М. Советско-интернациональные слова в узбекской периодической прессе (1945-1950): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1951; Расулов И. Развитие лексики узбекского языка в период Великой Отечественной войны: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1951; Каримов Г. Некоторые вопросы развития узбекского литературного языка 1920-1930 гг.: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1972; Абдураимова Ш.К. Сўз ўзлаштириш назарияси ва ўзлаштирмаларнинг вақтли матбуот тилида ўзгара бориши. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1995.

- suitsid ko'rinishidagi matnlarda (agarda o'z joniga qasd qilgan shaxs xat qoldirgan bo'lsa, xat marhum tomonidan yozilganmi yoki tashqi ta'sir orqali yozilganmi? Xat marhumga tegishlimi yoki ikkinchi shaxs tomonidan yozilganmi?).

Shu boisdan ham, noadabiy leksik unsurlarni aniqlash, ularning semantik tabiatini baholash, ularni pragmatik jihatdan asoslash lingvistik ekspertizada asosiy ahamiyat kasb etadi. Odatda tergov jarayonlarida bevosita psixolog yordamiga ham ehtiyoj seziladi. Psixolog ayblanuvchining xatti-harakati, nutqini tahlil qilish orqali tergov jarayoniga yordam beradi. Lingvist-ekspert matn bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarni ekspertizadan o'tkazishda qo'llangan noadabiy unsurning pragmatik mazmunini, kommunikantlarning nutq aktini tahlil qilish orqali "Ushbu unsur nima sababdan qo'llanilgan?", "Muallifning muayyan identifikatsiya belgilarini namoyon eta oladimi?" singari savollarga yechim topadi[44]. Boisi, noadabiy leksik unsurlarning nutqda qo'llanishi turli xil omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Quyidagi shaxsiy xatda qo'llanilgan noadabiy leksik unsurlarga diqqat qilamiz:




1.1-rasm. Ijtimoiy tarmoqdan olingan xat.

Keltirilgan ikki matnda *"lyuboy"*, *"vapshe"*, *"prosto"* so'zlari qo'llanilgan. Barcha so'zlar salbiy ma'no ottenkasiga ega. Odatda, *"lyuboy"* so'zi o'smir yigitlar, erkaklar nutqida faol. Matnga kesatiq, ironiya mazmunini ifodalashga

[44]Musulmonova K. Lingvistik ekspertiza tahlil bosqichlari mazmuni // Общество и инновации, 2021. 2(1/S), 227-232 b.

xizmat qilgan. Ko‘rinadiki, kichik matnda ham varvar elementlar muallifning muayyan identifikatsiya belgilarini ko‘rsatib bera oladi.

N.E.Kirkina, A.O.Tujilkinaning hammualliflikdagi maqolasida noadabiy leksik unsurlarning nutqda, ayniqsa, maktabgacha, maktab yoshidagi bolalar nutqida qo‘llanilishiga quyidagi omillar ta’sir etayotganligi ta’kidlanadi:

1) hamma narsani qilishga ruxsat berilgan va, shu bilan birga, axloqiy tomoni unutilgan qayta qurish davridan boshlangan jamoatchilik ongining kriminallashuvi;

2) davlat qaramog‘idan yiroq, alohida guruh vakillarining ko‘payishi (tilanchilar, uysizlar, emigrantlar va boshqalar);

3) so‘z erkinligi;

4) standartlashtirilgan lug‘atda bir so‘zli ekvivalentning yo‘qligi;

5) ekspressivlik, noaniq so‘zlar;

6) modaning ta’siri[45].

D.A.Dubrovina noadabiy leksik unsurlarning o‘smirlar nutqida qo‘llanilishining ikki asosiy omilini ajratib ko‘rsatadi. Birinchidan, shaxs o‘zini namoyon qilishga intilishi, o‘z xatti-harakatlarini baholay olmasligi va intellektual darajasining shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Ikkinchidan, o‘zini namoyon qilishga intilishning hissiy, kognitiv, refleksiv tomonlari: og‘zaki tajovuzkorlik, asabiylik, tuyg‘ular monitoringining me’yorda emasligi, negativizm, noto‘g‘ri moslashish, deviant xulq-atvorga moyillik, mustaqillikka intilish bilan bog‘liq.

D.A.Dubrovina tadqiqotida noadabiy leksik unsurlardan: argo, jargon, vulgar so‘zlarga ko‘proq diqqat qaratiladi va shu asosda tahlil olib boriladi. Biroq noadabiy leksik unsurlar faqat vulgar unsurlar bilangina cheklanib qolmaydi. Adabiy til me’yorlariga muvofiq bo‘lmagan har qanday leksik, grammatik, stilistik unsurlar adabiy me’yordan chekinish doirasiga mansub bo‘ladi. Bular sirasida noadabiy leksik unsurlar salmoqli o‘rinni tashkil qiladi. Bu holatda noadabiy leksika tushunchasi keng mohiyat kasb etadi.

[45]Киркина Е.Н., Тужилкина А.О. Нелитературная лексика в речи детей дошкольного возраста и способы // ISSN 2072-0297 Молодой учёный Научный журнал, № 20.1 (100.1) / 2015. – С. 15.

E.F.Petrishchevaning fikriga ko‘ra, noadabiy leksika adabiy tildan tashqari bo‘lgan xalq tili, dialektizmlar, jargon va argo so‘zlar bo‘lib, ular badiiy asarlarda qo‘llanilishi mumkin. Bunday nutqiy birliklarni adabiy til doirasida qo‘llaganlar adabiy me’yorlardan bexabar shaxslardir[46].

T.S.Kogotkova noadabiy leksik unsurlar deganda, badiiy matnlarda aktualizatsiya qilingan, adabiy bo‘lmagan so‘zlarni nazarda tutadi. Uning fikricha, kishilar so‘zga nisbatan me’yorlashgan va me’yordan tashqari deb baho berishlari bu shaxsiy yondashuvni ifodalaydi[47]. V.D.Levin noadabiy leksik unsurlarni dialektizmlar, jargon va argotizmlar, ekzotizm va arxotizm singari guruhlarga ajratadi[48]. Adabiy bo‘lmagan so‘z birikmalarining kombinatsiyasi termin bo‘lmagan ma’noda uzoq vaqt davomida russhunoslikda ishlatilgan. Bunda ko‘proq noadabiy leksika tavsif ko‘rinishida leksikografik xarakterda berilgan[49]. G.N.Sklyarevskayaga ko‘ra, “Sotsiologik va psixologik tahlil nuqtayi nazaridan noadabiy leksik unsurlar “tizimlashtirilgan so‘zlar” birligidan o‘sib chiqadigan “tizim bo‘lmagan elementlardir”[50]. U.Emelyanova adabiy bo‘lmagan lug‘atni og‘zaki nutqdagi so‘zlar, vulgarizmlar, jargonlar, argotizmlar, dialektizmga ajratadi[51]. O.Emelyanova noadabiy leksik unsurlarni aniqlashning bir nechta tamoyilini keltiradi:

1) adabiy tildan tashqari bo‘lgan lahjalar, jargon, jonli xalq tilini tahlil qilish va so‘z boyligini belgilash;

2) adabiy tilda eskirgan, lekin dialektlarda saqlanib qolgan turli terminlar, jonli xalq tili elementlarini aniqlash;

---

[46]Петрищева Е.Ф. Внелитературная лексика как категория стилистическая // Вопросы языкознания. 1981. – № 3. – С. 60-66.

[47]Коготкова Т.С. Внелитературная лексика в драме // Культура речи на сцене и на экране. – М.: Наука, 1986. – С. 90-125.

[48]Левин В.Д. Краткий очерк истории русского литературного языка. 2-е изд., испр. и доп. – М.: Просвещение, 1964. – 248 с.

[49]Фельде О.В. Внелитературная лексика [Текст] / О.В.Фельде // Эффективное речевое общение. – Красноярск: Сибирский федеральный университет, 2014. – С. 79-80.

[50]Скляревская Г.Н. Разговорно-просторечная и областная лексика в словарях и в современном русском языке (лексикографический аспект) [Текст] / Г.Н.Скляревская, И.Н.Шмелева // Вопросы исторической лексикологии и лексикографии осточнославянских языков. – М.: Просвещение, 1994. – С. 88-94.

[51]Емельянова О.Н. Внелитературная лексика // Стилистический энциклопедический словарь русского языка [Текст] / под ред. М.Н.Кожиной. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 32-36.

3) aslida muayyan dialektga mansub, keyinchalik adabiy tilga o'tgan, semasi kengaygan leksemalarni aniqlash.

Ko'rinadiki, O.Emelyanovaning tasnifi ko'proq stilistik va sotsiologik omillarga asoslanadi.

Noadabiy leksik unsurlar muayyan tilning belgilangan adabiy me'yorlaridan tashqari bo'lgan, asosan, jonli xalq so'zlashuv nutqida uchrovchi birliklardir. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda noadabiy leksik unsurlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1) dialektizmlar;
2) jargonlar;
3) argotizmlar;
4) vulgarizmlar;
5) slenglar;
6) varvarizmlar.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda varvarizmlar noadabiy leksik unsur sifatida qaralmaydi. Bizningcha, varvarizmlarni ham ayni shu ro'yxatga kiritish maqsadga muvofiq. Sababi, o'zga til so'zlarini nutqda qo'llash adabiy til me'yorlariga muvofiq kelmaydi. Shaxsiy xatlarda varvarizmlarning qo'llanilishi konfliktli matn haqidagi ma'lumotlarning yanada oydinlashishiga yordam beradi. Masalan, respublikamizning Surxondaryo, Namangan, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkentning janubiy hududlarida forsiyzabon kishilar yashaydi. Ushbu hududlar tili bir-biridan farqli xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'zbekcha matnlarni yozishda ushbu hudud vakillari bevosita fors-tojik tillari so'zlaridan, grammatik shakllaridan foydalanishi mumkin. Anonimlik holatida beixtiyor qo'llanilgan varvarizm orqali muallifning hududiy xosligini aniqlash imkoniyati yuzaga keladi.

Noadabiy leksik unsurlarning nutqda voqelanish omillari yuzasidan turli fikr-mulohazalar bildirgan. Jumladan, E.N.Gus tadqiqotlarida noadabiy leksik unsurlarning voqelanish omillari psixologiya va kulturologiya bilan bog'liq

ekanligiga urg'u beriladi va psixolingvistik, lingvokulturologik tahlillar olib boriladi.

Umuman olganda, noadabiy leksik unsurlarning nutqda qo'llanishi qat'iy qoidaga bo'ysunmaydi. Istalgan yosh toifasiga mansub shaxs nutqida noadabiy unsurlar qo'llanishi mumkin. Qachon, qayerda va nima sababdan qo'llanish holati turli tashqi va ichki omillarga bog'liq. E'tibor qaratilsa, aksariyat hollarda bunday elementlarning qo'llanilishi psixologik holat bilan bog'lanadi. Bizningcha, shaxsning ruhiy-fiziologik holati (asabiylashish, davomli stress, charchoq, tushkunlik, xastalik) muayyan noadabiy unsurning nutqda voqelanishiga ta'sir etuvchi ichki omilga mansublik kasb etsa, ijtimoiy yoki hududiy xosligi (kasb-kori, yashash hududi, qiziqishlari, atrofidagi shaxslar) tashqi omil sirasida qayd etilishi lozim.

## 1.2-§. Anonim xatlarda noadabiy leksik unsurlarning voqelanish xususiyatlari va turlari

Lingvistik va psixolingvistik tadqiqotlarning lingvistik ekspertizaga tatbiqi, fonetik hodisalarning ikki tilda so'zlashuvchilar nutqida voqelanish farqlarini kuzatgan S.V.Derkach fikricha, kishi nutqining hosil bo'lishida mikrosegmentatsiya va makrosegmentatsiya omillari ishtirok etadi. Aynan shu omillar sirasida makrosegmentatsiya lingvistik ekspertizada yosh, gender xosliklarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Makrosegmentatsiya omillari:

1. Semantik omil (leksik bashorat: odatda segmentatsiya maksimal noaniqlik nuqtalarida sodir bo'ladi – keyingi so'z paydo bo'lishining eng past ehtimoli).

2. Grammatik omil (so'zlarning formal valentligi, grammatik ko'rsatkichlar – so'z boshi va oxiri belgilarining mavjudligi va boshqalar).

3. Fonetik omillar: pauza, intonatsiya, temp, dinamik xarakteristikalar, davomiylik taqsimoti[52].

[52]Деркач С.В. Фонетические свойства гласных в спонтанной речи. – Благовещенск: АмГУ, 2014. – С. 20.

Shaxsiy xatlar tipida turli qo'lyozma xatlar, sms-xabarnomalar, ijtimoiy tarmoq (Telegram, Whats up, Viber-messenger) xabarlari o'rin oladi. Bundan tashqari, turli sharh (komment)lar ham lingvistik ekspertizada tahlil obyekti bo'lib xizmat qiladi. Shaxsiy xatning har qanday turida shaxsning muayyan xususiyatlarini ifodalovchi belgilar mavjud bo'ladi. Bu belgilar shaxs nutqida, ayniqsa, leksik unsurlarning qo'llanilishida yaqqol o'z aksini topadi. Noadabiy leksik unsurlarning shaxsiy xatlarda qo'llanilish omillari, xususiyatlari ham lingvistik ekspertizada matn avtorizatsiyasi masalasiga oydinlik kiritishga xizmat qiladi.

Ingliz tadqiqotchilaridan biri T.B.Jay noadabiy leksik unsurlar har bir so'zlovchi nutqida qo'llanilishi mumkinligi va u pragmatik jihatdan bir-biridan farqlanishini ta'kidlaydi. T.B.Jay tadqiqotlarida noadabiy unsurlar quyidagi turlarga ajratib ko'rsatiladi:

- la'nat so'zlar (Cursing);
- ateistik xarakterdagi kufr so'zlar (Blasphemy);
- haqorat so'zlar (Profanity);
- tabular;
- vulgarizmlar;
- imo-ishora vositalari (expletives)[53].

Noadabiy leksik unsurlarning barcha turlari (haqorat, vulgarizm, la'nat, argo so'zlar va boshqalar) har qanday tillarning bir qismidir[54]. Tadqiqotchilar P.Brown va S.Levinsonlarning fikriga ko'ra, axloqiy me'yorlarga zid bo'lgan leksik unsurlarning nutqda qo'llanilishi madaniy va shaxsiy xususiyatlarga bog'liq[55]. E.Goffmanning fikricha, shaxslararo muloqot noadabiy leksik unsurlarning qo'llanilishiga motiv bo'lgan asosiy vosita sanaladi. Ushbu vaziyatda nutq egasi ijtimoiy kelib chiqishiga muvofiq bunday so'zlarni qo'llaydi va aksariyat hollarda so'kish, qarg'ish, haqorat so'zlarni tahdiddan himoyalanish vositasi sifatida

[53]Jay T.B. Cursing in America. – Philadelphia: John Benjamins, 1992. – P.175-180.
[54]Foote R. & Woodward J. A preliminary investigation of obscene language // Journal of Psychology, 83, 1973. – P. 263-275.
[55]Brown Penelope and Stephen Levinson. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1978. – P. 156-167

ishlatadi[56]. Beebe Leslie kishilar nutqida noadabiy leksik unsurlar qasddan qo'llanmasligini aytadi. Unga ko'ra, bunday unsurlarning qo'llanilishi salbiy his-tuyg'ularning kuchayishi bilan bog'liq holda amalga oshadi[57]. Locher va Vatt tomonidan esa noadabiy leksik unsurlarning qo'llanilishi adresat va adresantning o'zaro muloqotidagi ta'sir vositalariga bog'liqligi asoslanadi[58]. Kasper muayyan noadabiy leksik unsurning shaxsga ta'sir qilish koeffitsientini baholab, aslida har qanday so'z adresant tomonidan qanday qabul qilinishiga bog'liq, degan fikrni ilgari suradi. O'z fikrini asoslash maqsadida bolalar va o'zga tilni tubdan yaxshi bilmaydigan kishilarni misol qilib keltiradi. Bolalar biror axloqsiz so'zni salbiy ma'noda qabul qilmaydi. Ular o'sha so'zning mohiyatini anglash yoshiga yetganlaridagina bunday so'zlarga nisbatan javob qaytarishi mumkin. O'zga tilni o'rganayotgan shaxs ham o'ziga nisbatan ishlatilgan so'zning tub mohiyatini tushunmaydi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor noadabiy unsurlar sirasida haqorat, qarg'ish, vulgarizmlarning qo'llanilishidagi kommunikativ maqsadga qaratiladi. Albatta, noadabiy leksik unsurlarning qo'llanilishida nutqiy vaziyat va kommunikativ maqsad ham yetakchi o'rinda turadi. Biroq noadabiy leksik unsurlar faqat yuqoridagi birliklar bilangina chegaralanib qolmaydi. Bular sirasida argo va jargon birliklar, dialektizmlar ham o'rin olgan. Noadabiy leksik unsurlarning qo'llanilish xususiyati turlicha. Ushbu unsurlarning qo'llanilishi kommunikantlar nutqining pragmatik vaziyati bilan bevosita bog'liq. Tadqiqotchi L.Beebening fikricha, noadabiy unsurlar, xususan, vulgar unsurlarining qo'llanilishi adresantning strategiyasiga bog'liq. Ya'ni bunda so'zlovchining mimikasi, ovoz tempi ham inobatga olinadi. Agarda shaxs ovozida tajovuzkorlik tempi sezilsa va mimikasi ham ayni shu holatni ifodalasa, demak, u adresantga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lganligini anglatadi.

---

[56]Goffman Erving. Interaction Ritual. Pantheon. – New York, 1967. – P. 190-201.

[57]Beebe Leslie. Polite fictions: Instrumental rudeness as pragmatic competence. In Linguistics and the Education of Language Teachers: Ethnolinguistic, Psycholinguistic, and Sociolinguistic aspects. Georgetown University Round Table on Languages and Linguistics 1995, James Alatis, Carolyn Straehle, Maggie Ronkin, and Brent Gallenberger (eds.), 154168. Washington, DC: Georgetown University Press.

[58]Locher Miriam and Richard Watts. Politeness theory and relational work // Journal of Politeness Research 1: 933, 2005. – P. 225-232.

L.Beebe noadabiy unsurlarning qo'llanilishini tashqi omillarga ko'ra asoslaydi. Shuningdek, u pragmatik mazmunning haqorat bilan bog'liqligiga urg'u beradi. Biroq noadabiy leksik birliklarning qo'llanilishini, aynan, haqorat bilan bog'lab bo'lmaydi. Bunday birliklar lingvistik ekspertizaning boshqa bir qator turlarida, ayniqsa, anonim matn muallifini hamda atributlarini aniqlashga qaratilgan vaziyatlar hamda ekstremistik mazmunli matnlarni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Og'zaki nutqda noadabiy unsurlarning qo'llanilish xususiyatlarini kommunikant nutqining pragmatik mazmun yo'nalishiga qarab aniqlash mumkin. Yozma nutqda esa bu birmuncha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Sababi, yozma nutqda kommunikant mimikasi, ovoz tempi qanday holatda ekanligini aniqlab bo'lmaydi. Shuningdek, shaxsiy xatlarda argo, jargon, varvarizm, vulgarizm, dialektizmlar aralash holda qo'llaniladi. Ularning turli yosh toifasida qo'llanilishi ham bir-biridan farq qiladi. Odatda og'zaki nutqda qo'llaniluvchi noadabiy unsurlar muayyan reja bilan tanlanmaydi. Ular so'zlovchining emotsional holati bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi.

Shaxsiy xatlar tarkibida noadabiy unsurlarning qo'llanilishida ikki xil xususiyat kuzatiladi. Birinchidan, noadabiy unsurlar so'zlovchi nutqida emotsional holatga muvofiq beixtiyor ravishda qo'llaniladi. Ikkinchidan, rejali va nazoratga olingan holatda o'z ifodasini topadi. Lingvistik ekspertizada har ikkalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi holat, odatda, anonim xatlarda kommunikativ maqsadni niqoblash uchun qasddan amalga oshiriladi. Noadabiy unsurlarning qo'llanilishini **nevrologik, psixologik** va **ijtimoiy-madaniy** jarayonlarning yakuniy mahsulotlari deb tushunish mumkin[59].

Ingliz tilshunosi Timoy Jay noadabiy birliklarning nutqda qo'llanilish modelini ishlab chiqadi. Unga ko'ra inson nutqida noadabiy birliklar nevrologik, psixologik va ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liq. Timoty Jay modeli NPS (Neurological, psychological, social-culutural) deb nomlanib, u o'z tadqiqotida insonlar tomonidan turli noadabiy birliklarning qo'llanilish kontekstlarini tahlil

[59]Jay T.B. Why We Curse. – Philadelphia: John Benjamins, 2000. – 270 p.

qiladi. Olimning yondashuviga ko'ra, har qanday qo'pol mazmundagi noadabiy birliklar (asosan qarg'ish, haqorat, so'kish) yakuniy shakli ma'ruzachi psixologik rivojlanishi va u faoliyat yuritadigan ijtimoiy kontekstga bog'liq. NPS nazariyasi nima uchun odam bir kontekstda noadabiy birlikni ishlatishi mumkin, ammo boshqasida emasligini izohlaydi. NPS nazariyasiga ko'ra, so'kish, qarg'ish va la'nat bilan bog'liq so'zlar hech qachon tartibsiz, tushunarsiz yoki tasodifiy xatti-harakatlar emas - maqsadli va qoidalar bilan boshqariladi[60].

Aslini olganda, Timoty Jay ta'kidlagan NPS nazariyasi keng mohiyatga ega. Biroq olim ta'kidlaganidek, qo'pol mazmunga ega noadabiy birliklarning maqsadli va qoidalar bilan boshqarilishi jihati biroz munozarali. NPS nazariyasiga muvofiq, noadabiy birliklarning qo'llanilishiga psixologik omillar ham ta'sir ko'rsatar ekan, demak psixologik buzilishlar ham shular jumlasiga kiradi. Odatda kuchli psixologik inqirozlar, nevrologik kasalliklarni boshidan kechirgan insonlarda nutq har doim ham maqsadli tarzda amalga oshavermaydi. Shuningdek, bunday kishilar nutqi nutqiy vaziyatga muvofiq pragmatik dasturga ega bo'lmaydi. G'ayriixtiyoriy tarzda psixologik o'zgarishlar va xurujlar hosilasi sifatida o'z-o'zidan qo'llaniluvchi qo'pol noadabiy birliklarni Timoty Jay ta'kidlaganidek "maqsadli va qoidalarga muvofiq" deb bo'lmaydi.

Darhaqiqat, noadabiy unsurlarning qo'llanilishida nevrologik xususiyat ham yetakchi o'rinda turadi. Nevrologik omillar noadabiy unsurlarning qo'llanilishi bilan bog'liq emotsional holatlarga aloqador nevrobiologiyani o'z ichiga oladi[61]. E.Kensingerva, S.Corkin fikriga ko'ra, noadabiy unsurlardan vulgarizmlarning qo'llanilishi chap miya yarim sharidagi tilning ishlash jarayoni, shuningdek, o'ng miya yarimsharining emotsional holati bilan aloqador[62]. Noadabiy unsurlarning qo'llanish chastotasi miyaning kognitiv nazorat qilish maydonida ijtimoiy

[60] Jay T.B. Why We Curse. – Philadelphia: John Benjamins, 2000. – P. 14.
[61] Kensinger E., Corkin S. Two routes to emotional memory: Distinct neural process for valence and arousal. Proceedings of the National Academy of Sciences 101: 33103315. 2004. – P. 354-365.
[62] Kensinger E., Corkin S. Two routes to emotional memory: Distinct neural process for valence and arousal. Proceedings of the National Academy of Sciences101: 33103315. 2004. – P. 284-396.

nomuvofiqlikning nutqiy xoslanishi bilan yuzaga keladi[63]. Albatta, ushbu mulohazalarda noadabiy unsurlarning qo'llanishi nevrologik omillarga muvofiq deb ko'rsatiladi. Miyada bo'layotgan o'zgarishlar hosilasi nutqda o'z aksini topadi. Nevrologik omillar ham nutqda noadabiy birlikning qo'llanishiga aloqador. Darhaqiqat, ushbu jarayon ham muayyan noadabiy unsurning qo'llanilishidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlashga asos bo'la oladi. Qo'lyozmalarda nevrologik omillarning namoyon bo'lishi yaqqol ko'rinadi. Bosma ko'rinishdagi matnlarda esa buni aniqlash biroz murakkab.

Noadabiy unsurlar qo'llanishining psixologik xususiyatlari insonning ruhiy holati bilan aloqador hamda ko'p jihatdan shaxs ulg'ayishi jarayonidagi tajribasi bilan bog'liqdir. Noadabiy unsurlar qo'llanishining psixologik xususiyati g'azab, e'tiqod shakli, gender xoslik, og'zaki tajovuzkorlik, o'smirlik davri bilan aloqador[64]. Noadabiy unsurlarning qo'llanilishiga suhbat mavzusi, adresat va adresant munosabatlari, yoshi, gender va hududiy xosligi, kasbi singari sotsiopragmatik omillar ta'sir ko'rsatadi.


Yuqorida tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikrlarga e'tibor qaratilsa, noadabiy unsurlarning qo'llanish xususiyatlarida salbiy his-tuyg'ular bilan aloqadorlikka ko'proq urg'u berilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Biroq olib borilgan kuzatishlar natijasida noadabiy unsurlarning qo'llanishi ijobiy his-tuyg'ular bilan ham aloqador bo'lishi mumkin. Bunda adresantning kommunikativ maqsadi asosiy o'rinda turadi. Ayniqsa, vulgarizmlarning qo'llanishi shaxs psixologik holatining salbiy yo'nalishi bilan bog'lanadi. Biroq kuzatuvlarga ko'ra, shaxsiy xatlarda nutqning pragmatik yo'nalishi ijobiy emotsiyalar bilan bog'liq bo'lish holati ham mavjud.

Ikki shaxsning shaxsiy xatlarida (qiz: 19 yosh, yigit: 23 yosh) noadabiy unsurlar ijobiy emotsiyalar ta'sirida qo'llangan. Quyidagi xat umumiy 120 so'zdan

---

[63]Grafman J., Schwab K., Warden D., Pridgen A., Brown H.R., Salazar A. Frontal lobe injuries, violence, and aggression: A report of the Vietnam Head Injury Study. Neurology 46: 12311238. 1996. – 255-263 p.
[64]Martin Matthew, Cary Anderson, Carolyn Horvath (1996). Feelings about verbal aggression: Justifications for sending and hurt from receiving verbally aggressive messages.Communication Research Reports 13: 1926. – 156-164 p.

tashkil topgan. Ushbu so‘zlar tarkibida turli noadabiy unsurlar aks etgan. Xatning pragmatik mazmuni ijobiy xususiyatga ega.

[65]

1.2-rasm. Ijtimoiy tarmoqdan olingan material.

Tahlilda 3 xil yosh guruh xatlari tanlandi. Ushbu uch guruhning sms xatlari, Telegram messenjeri tomonidan yozilgan xabarnomalaridan olingan matnda umumiy so‘zlar, noadabiy leksik unsurlarning qo‘llanish turi va chastotasi quyidagicha:

1.2-jadval


Ijtimoiy tarmoqdan olingan 3 xil yoshdagi guruh xatlarida qo‘llangan noadabiy leksik unsurlarning turi va chastotasi

| T/r | Respondentlar-ning yosh ko‘rsatkichi | Varva-rizm | % | Vulga-rizm | % | Dialektizm | % | Argo va jargon | % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 1-guruh: (yigit 26 yosh, qiz 17 yosh. 120 | 10 | 8.3 | 7 | 5.8 | 18 (grammatik unsurlar | 15 | 3 | 2.5 |

[65]Izoh. Tahlilga olingan ushbu shaxsiy yozishmalar mualliflarning shaxsini sir tutish talabi bilan ixtiyoriy roziligi asosida olingan.

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | ta so'z) | | | | | bilan birga) | | | |
| 2 | 2-guruh: (yigit 23 yosh, qiz 19 yosh; 129 ta so'z) | 11 | 8.5 | 12 | 9.3 | 14 (grammatik unsurlar bilan birga) | 10.8 | - | 0 |
| 3 | 3-guruh: (yigit 20 yosh, qiz 16 yosh; 131 ta so'z) | 24 | 18 | 19 | 14.5 | 16 (grammatik unsurlar bilan birga) | 12.2 | 1 | 0.76 |

Foiz hisobida:




1.3-rasm. Noadabiy unsurlarning ijobiy mazmunda qo'llanishining foiz (%) ko'rsatkichi.

Keltirilgan tahliliy ma'lumotlar noadabiy unsurlarning ijobiy mazmunda qo'llanish foizini ifodalaydi. Demak, asosan bir-biriga ko'ngil qo'ygan yigit va qizning shaxsiy xatlarida noadabiy leksik unsurlar ijobiy emotsiyalar bilan bog'liq holda qo'llanadi.

Yuqorida qayd qilingan tadqiqotchilar fikrida vulgarizmlarga ko'proq urg'u beriladi. Biroq noadabiy leksik unsurlar guruhida chet tili va sheva so'zlarini qorishiq qo'llash ham o'rin oladi. Vulgarizm, argo va jargonlar ijobiy yoki salbiy mazmunda qo'llanishi mumkin. Varvarizm va dialektizmlarning qo'llanishida ham xarakterli xususiyatlar kuzatiladi. Xususan, shaxsiy xatlarda dialektizmlarning qo'llanishiga xos xarakterli xususiyatlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) o'zga dialektni chala yoki qisman o'zlashtirish;

2) biror dialektga taqlid qilish.

Shaxsiy xatlarda dialektizmlar ham qator xususiyatlarga ega unsur sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, quyidagi sms-xatda Toshkent shahar shevasining qo'llanishi birinchi xususiyatga ko'ra amalga oshadi:



1.4-rasm. Ijtimoiy tarmoq (SMS) xatlari

1.3-jadval

| Birinchi sms muallifi | |
|---|---|
| **O'zlashtirilgan dialect** | **O'z dialekti** |
| *Anu etgan* | *Suradiyzmi* |
| *Sizziyam* | *Kelishaylik* |
| *Ovora qildimde* | *Menga* |
| *Chiqomiyman* | *Qilarkanda* |

Keltirilgan sms-xatda toshkentlik va samarqandlik ikki ayolning xati o'z aksini topgan. Samarqandlik ayol nutqida aralash dialekt xususiyatlari ko'zga tashlanadi. Bu bevosita dialektni qisman o'zlashtirganligidan dalolat beradi. Xatlarda o'zga dialektni qisman o'zlashtirish yoki dialektga taqlid qilish xarakterli xususiyat sifatida yuzaga chiqadi. Noadabiy leksikaning qo'llanishida hududiy va ijtimoiy xoslik alohida ahamiyat kasb etadi. Insonning noadabiy leksikadan foydalanish koeffitsienti o'ziga qulay muhitda ko'proq namoyon bo'ladi. Shuningdek, kishilarning qarama-qarshi jins vakillari orasida noadabiy leksik unsurlar kam qo'llanishi kuzatiladi.


Noadabiy unsurlar: so'kish, qarg'ish, haqorat mazmunli birliklarning qo'llanishi bo'yicha test shaklidagi so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomadagi savollar oilaviy munosabatlar bilan bog'liq holda tuzilgan. Tahlil bolaning ayrim so'zlarni kimlardan eshitishi mumkin ekanligini aniqlash maqsadida amalga oshirildi.

1.4-jadva

Noadabiy unsurlarning ishlatilishi (oilada) bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma

| T/r | *So'rovnoma* | *1-javob* | *2-javob* | *3-javob* |
|---|---|---|---|---|
| **1.** | Oilada onangiz tomonidan haqorat so'zlar ishlatilganmi? | Hech qachon | Har doim | Ba'zida |
| **2.** | Oilada otangiz tomonidan haqorat so'zlar ishlatilganmi? | Hech qachon | Har doim | Ba'zida |
| **3.** | Oilada aka-ukangiz tomonidan haqorat so'zlar ishlatilganmi? | Hech qachon | Har doim | Ba'zida |
| **4.** | Xato ish qilsangiz kim va qanday tanbeh beradi? | Quyida ilova qilinadi | Quyida ilova qilinadi | Quyida ilova qilinadi |

Dastlabki so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, 10-15 yoshdagi respondentlar 1-savolga 55 nafar boladan 28 nafari *hech qachon*, 9 nafari *har doim*, 18 nafari *ba'zida* degan javobni berishdi. 2-savolga esa 17 nafari *hech qachon*, 16 nafari *har doim*, 22 nafari *ba'zida* javobini berishgan. 3-savolga 8 nafari *hech qachon*, 22 nafari *har doim*, 25 nafari *ba'zida* javobini berishgan. Demak, umumiy foiz ko'rsatkichlari quyidagicha:




**1.5-rasm. Vulgar so'zlarning (oilada) ishlatilishi bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomaning foiz ko'rsatkichi**

Tahlil natijalarga ko‘ra, oilaviy muhitda noadabiy leksik unsurlardan vulgarizmlarning otalar va akalar tomonidan ishlatilish holati yuqori. Bolalarning og‘zaki ma’lumot berishicha, onalari tomonidan qarg‘ish so‘zlar, otalari va akalari tomonidan esa so‘kish so‘zlar qo‘llaniladi. Ushbu so‘rovnomaning o‘tkazilishidan maqsad vulgarizmlar qo‘llanishida oilaviy muhitning ta’siri masalasini hma o‘rganishdir. Vulgar birliklarning muntazam ishlatilishi bola ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa bevosita xatlarda o‘z aksini topadi. Respondentlar qayd etishicha, *padaringga la’nat, eshshak, mol* singari so‘zlar oilaviy muhitda turli vaziyatlarda ko‘p ishlatiladi. Bular sirasida so‘kishlar ham o‘z o‘rniga ega. Quyida bevosita oilaviy ta’sir natijasida o‘zlashtirilgan vulgarizmlar o‘z aksini topadi.

1.5-jadval

Oilaviy ta’sir natijasida o‘zlashtirilgan vulgarizmlar bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnoma

| So‘z | Nechta o‘quvchi tomonidan ta’kidlandi | Qanday vaziyatda ishlatilgan | Kim tomonidan ishlatilgan |
|---|---|---|---|
| Mol | 26 | Uy yumushlarini notog‘ri bajarganda (suv to‘kib qo‘ysa, kiyimini kir qilsa) | Onam-9<br>Otam-8<br>Aka opa -11 |
| O‘lib ket | 17 | Uyda opa-singil, aka-ukalari bilan janjallashib qolganda, ko‘chada kimdir bilan mushtlashganda | Onam-7<br>Otam-5<br>Qolganlar-5 |
| Padaringga la’nat | 15 | O‘ta yomon, taqiqlangan ishlarni bajarganda, ko‘chada mushtlashganda | Onam-2<br>Otam-5<br>Boshqalar-8 |
| Xumkalla, qovoqkalla | 7 | Gapirayotganda nimanidir xato aytganda, nimagadir tushunmay qolganda | Otam-2<br>Onam-2<br>Boshqalar-3 |
| Ahmoq | 16 | Qaltis xato qilganda | Otam-6<br>Onam-5<br>Boshqalar-5 |
| Miyasini qurt yegan, esini yegan | 6 | Noodatiy mumkin bo‘lmagan ishlarni qilganda | Otam-1<br>Onam-4<br>Boshqalar-1 |
| Eshshak | 17 | Odatiy holatlarda ham ko‘p ishlatiladi | Otam-5<br>Onam-4<br>Boshqalar 6 |
| Hayvon | 9 | Xato ish qilganda | Otam-5<br>Onam-4<br>Boshqalar 6 |
| Turqing/basharang /afting qursin | 12 | Turli vaziyatlarda | Otam-3<br>Onam-6 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | Boshqalar 4 |
| Har baloga yo'luqqur | 8 | Uyda qaltis xatoga yo'l qo'yganda | Otam-<br>Onam-5<br>Boshqalar-3 |
| Tupoy/ tupitsa | 15 | Nimanidir tushunmaganda, mustaqil bajara olmaganda | Otam-6<br>Onam-6<br>Boshqalar-6 |
| Idiot | 7 | Masalani ishlay olmaganda, xatoga yo'l qo'yganda | Otam-2<br>Onam-2<br>Boshqalar-3 |
| Lapashang, latta, hilviramay o'l, bo'shashmay o'l | 18 | Talmovsiraganda, oddiy xatoga yo'l qo'yganda | Otam-5<br>Onam-9<br>Boshqalar-4 |
| Itdan tarqagan | 10 | O'ta qaltis vaziyatlarda | Otam-3<br>Onam-1<br>Boshqalar-6 |

Demak, noadabiy birliklarning ishlatilishida nevrologik, fiziologik omillar qatorida oilaviy muhit ta'siri yuqori o'rinda turadi. Shuningdek, noadabiy birliklarning o'zlashtirilishi oilaviy muhit, televideniye, atrof-muhit orqali amalga oshadi. Shuningdek, bolalar tomonidan o'zlashtirilgan noadabiy birlik ongsiz tarzda nutqda qo'llaniladi. Ushbu tahlil xulosalari bevosita anonimlik xususiyatiga ega bo'lgan shaxsiy xatlar muallifini aniqlashda lingvistik bazaning shakllantirilishiga xizmat qiladi.

### 1.3-§. Anonim xatlarda noadabiy leksik unsurlarning shaxs yosh belgilariga bog'liq holda voqelanish xususiyatlari

Lingvistik ekspertologiya – keyingi yillarda keng taraqqiy etgan sohalardan biri. Lingvistik ekspertizaning tadqiqot doirasi kengayib bormoqda. AQSHning jahonga mashhur nashri "The New York Times"ning 2001-yilgi nashrida lingvistik ekspertizaning ahamiyati xususida yirik maqola e'lon qilinadi. Bunda lingvistikaning turli kriminalistik holatlardagi tatbiqi xususida so'z boradi. Maqolada quyidagilar lingvistik ekspertizaning asosiy masalalari qatorida sanaladi:

- qotillik sodir etilganda berilgan ko'rsatmalar;
- guvohlar ko'rsatmasining haqiqat/haqiqat emasligi;
- anonim xatni kim yozganligi;
- anonim xat yakka shaxs tomonidan yozilganmi yoki ikkinchi shaxs ishtiroki, tazyiqi/ta'siri bilan sodir bo'lganmi?

Maqolada lingvistik ekspertizaning dolzarbligi va jamiyat uchun o'ta zarurligi masalalari yoritiladi. E'tiborli jihati, jahonda olib boriladigan lingvistik ekspertizalar ayni shu yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi. Biroq anonimlik holatlarini ochish, mullif identifikatsiyasini amalga oshirishda yosh chegarasini aniqlash va belgilash xususida ekspert xulosalari shakllantirilmagan. Jahon va rus lingvistik ekspertologiyasi tajribalarini kuzatish asosida aytish mumkinki, anonim matnlarda shaxsning yoshini aniqlash, taxminiy yosh chegarasini belgilash uchun lingvistik baza yetarli emas. Biroq anonim matnlarda shaxsning yosh chegarasini belgilash turli kriminalistik holatlarda muammoning oson yechim topishi "kalavaning uchi topilishi"ga yordam beradi. Shu boisdan ushbu tadqiqotda turli yosh toifasidagi kishilar xatlarida lingvistik xususiyatlarning xoslanish omillarini aniqlashda turli tajribalar, kuzatishlar va tahlillar olib borildi.

Dastlabki tajriba: turli yosh toifasidagi kishilar yozma matnlarida lingvistik xususiyatlarning xoslanish omillarini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba sinov-natijalari turli yosh toifalariga muvofiq lingvistik, topografik xususiyatlar tahlil qilindi, umumlashtirildi va tadqiqot ishi davomida zarur o'rinlarda foydalanildi.

**1-tajriba:**

**Tajriba-sinov ishtirokchilari:**

a) Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani 5-,7-,9-sinf o'quvchilari (47 nafar);

b) akademik litseyning 1-2-bosqich o'quvchilari (44 nafar);

d) savdo xodimlari: 20-30, 31-45 yosh oralig'ida.

e) mahalla guzari, "Nuroniy jamg'armasi"ning keksalari (37 nafar).

Tajriba-sinovni amalga oshirish shakli: matn uchun mavzu tanlandi. Ishtirokchilarga aynan shu mavzuda erkin bayon usuli bilan matn yaratish topshirig'i berildi. Matn yozish uchun tanlangan mavzu: "Sizni ranjitgan, hurmatingiz yo'qolishiga sabab bo'lgan insonga xat yozing".

Tajriba-sinov yakunlariga muvofiq olingan xatlar quyidagi kategoriyalarga ajratib chiqildi:

1) muayyan so‘z turkumuga oid noadabiy leksik birliklarning tanlanishi;

2) muayyan so‘z turkumiga oid leksik birliklarning tanlanishi;

3) muayyan so‘z turkumiga xos lug‘aviy birliklar fonetik variantlarining qo‘llanishi;

4) bir so‘zning ikkinchi so‘zga bog‘lanish usullari;

5) noadabiy sintaktik shakllar chastotasi;

6) fonetik o‘zgarishlarning qo‘llanishi;

7) unli tovushlarning qo‘llanishidagi umumiy jihatlar;

8) undosh tovushlarning qo‘llanishidagi umumiy jihatlar.

1.6-jadval

Turli yosh toifalariga muvofiq lingvistik, topografik xususiyatlar tahlili


| | **Maktab va akademik litsey o‘quvchilari (12-18)** | **Savdo xodimlari (20-30 yosh oralig‘idagi)** | **Savdo xodimlari (30-45 yosh oralig‘ida)** | **Nuroniylar (50 va undan yuqori yosh)** |
|---|---|---|---|---|
| **Muayyan so‘z turkumiga oid noadabiy leksik birliklarning tanlanishi** | Ot va sifat turkumiga oid noadabiy leksik birliklar faol | Fe’l turkumiga oid noadabiy birliklar qisman faol. Olmosh turkumiga oid (*san, o‘shag‘da, o‘shetta, sherda*) | Modal so‘zlarning salmog‘i yuqori. Ko‘chma ma’noli birliklarning qo‘llanilishi faol (*ammammi buzog‘i, ashinnaylani oshig‘i olchi*) | Sifat turkumiga oid tag ma’noli so‘zlarning ishlatilishi. (*“sheeedriy”u kishim “umniy” biz u savodsiz*) |
| **Muayyan so‘z turkumiga oid leksik birliklarning tanlanishi** | Sifatlarning orttirma darajadagi shakli faol | Predmet va harakat belgisini ko‘rsatishda *shunday, shunaqangi* so‘zlarining qo‘llanishi. Fe’llarda inkor va bo‘lishlilik shakllarining qo‘shma gap tarkibida qo‘llanishi: *Men ettim, u* | Modal va undov so‘zlarning qo‘llanishi faol. *(e o‘lsin, ordona ketgur, vay tavba, naprimer)* | Fe’llarga asosiy urg‘uning berilishi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | *gapimga kirmadi.* | | |
| **Muayyan so'z turkumiga xos lug'aviy birliklarning fonetik variantlari-ning qo'llanishi** | Otlarda ko'plik, fe'llarda ravishdosh qo'llanishi. | Otlarda ko'plik, fe'llarda ravishdosh qo'llanishi. | Otlarda ko'plik, fe'llarda ravishdosh qo'llanishi. | Fonetik variantlar kam qo'llaniladi. |
| **Bir so'zning ikkinchi so'zga bog'lanish usullari** | Bog'lovchisiz bog'lanish holatlari *ko'p, esa, bo'lsa* so'zlari ham faol. | Zid ma'noli so'zlar bilan bog'lanish koeffitsienti ko'p. | Zid ma'noli so'zlar bilan bir qatorda, teng bog'lovchilar salmog'i yuqori. | Birinchi so'z ikkinchi so'zga ketma-ketlikda bog'lanadi: *u so'radi, keyin man javob berdim, keyin qarz so'radi. Xop dedim. Keyin pulli ertaga beraman dedim.* |
| **Noadabiy lug'aviy shakllar chastotasi** | Jargonlar qo'llanishi ko'p. Nutqda vulgar va varvar elementlari ko'p qo'llangan. | Varvarizm elementlar salmog'i yuqori. | Kinoya, dialektizm va varvarizmlar-dan foydalanilgan. | Aksariyat hollarda qo'llanilmaydi. |
| **Noadabiy sintaktik shakllar chastotasi** | Shaxs-son va egalik shakllari to'liq yozilmaydi *(o'zingiz-o'ziz, o'zez).* To'liqsiz gaplarning ishlatilishi ko'proq qo'llanadi. Bir bosh bo'lakli gap tiplaridan foydalanilgan. | Egalik qo'shimchalari bilan birga kelishiklarda ham noadabiy shakllar qo'llaniladi: *shamolli, odammi* | Sintaktik shakllar bilan bog'liq xatolar kam.To'liq gaplardan foydalanilgan. Gap bo'laklari odatdagi tartibda qo'llangan. Shaxsi noma'lum gaplar ishlatilgan. | Talaffuzda uchraydi, yozma nutqda shakllar to'gri qo'llangan. Gap bo'laklari odatdagi tartibda. Gapning sintaktik jihatdan tuzilishi to'liq. Savodxonlik yuqori darajada shakllangan. |
| **Fonetik o'zgarishlar-ning qo'llanilishi** | *i* tovushuning kuchsizlanishi, *i* tovushining orttirilishi kuzatildi. | *e-i* farqlanmasligi, singarmonizm-ning saqlanib qolganligi uchraydi. | Yozma nutqda bo'ladigan fonetik o'zgarishlar : tovush ortishi, tushishi va almashishi singari adabiy me'yor sanaluvchi o'zgarishlar ishlatilgan. | Qo'llanishi passiv. |

Ushbu jadvalda umumiylik kasb etadigan va yaqqol ko'rinib turadigan lingvistik xususiyatlar qayd qilindi.

Tahlilda kriminalistik holatlarga diqqat qaratiladi. Anonim xatlarda muallif identifikatsiyasini aniqlash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif identifikatsiyasi lingvist-ekspert, mutaxassis, tergovchilar oldiga qo'yilgan savollarga muvofiq quyidagi belgilarni o'z ichiga oladi:

Anonim xatlarda muallif dentifikatsiyasi




**1.6-rasm. Anonim xatlarda muallif identifikatsiyasi**

Maktab yoshidagi bolalar va o'smirlar noadabiy unsurlarni ishlatganda, odatda, salbiy his-tuyg'ularni ifodalashadi. Bolalar, shuningdek, jamiyatga moslashish jarayonida noadabiy leksikani o'zlashtirib borishadi. Jamiyat a'zolari nutqida uchrovchi noadabiy leksika bevosita bola va o'smirlar nutqiga ham ta'sir ko'rsatadi. O'ta darajada qo'pol mazmunga ega vulgarizmlarni qo'llashda bolalar, ko'pincha, bu so'zning ma'nosini tushunishmaydi. Ular jamiyatdan andoza olgan holda bunday so'zlarni o'zlashtiradilar va bu so'zlar yosh avlod leksik bazasidan o'rin oladi. Tilda aralash dialektlar, varvarizm elementlarining qo'llanishi ham bola nutqiga ta'sir ko'rsatadi. Aksariyat hollarda bolalar o'zlari ishlatayotgan noadabiy leksik birlikning mohiyatiga tushunishmaydi. O'smir yoshdagilar esa asta-sekinlik bilan har bir ishlatayotgan so'zi qanday mohiyat kasb etishini anglab borishadi va nutqida turli vaziyatda ularni qo'llashadi. Bolalar va o'smirlar nutqida uchrovchi noadabiy unsurlar ota-onasidan, turli kinofilm, internet o'yinlari, ijtimoiy tarmoqlar, atrofdagi kishilardan o'zlashtirilishi mumkin. Timothy Jay,

Krista King, Tim Duncan tadqiqotlarida vulgarizmlarning bola va o'smirlar nutqida qo'llanishi, o'zlashtirilishini irqiy kamsitish, tabaqalanishning mavjudligi, ota-ona va do'stlar o'rtasidagi ziddiyat, tashqi muhitning zo'ravonligi, ijtimoiy tarmoq uzatmalari, Mass media ta'siri bilan bog'laydilar[66]. Shuningdek, qator ingliz tadqiqotchilari bu borada tajriba-sinov ishlarini olib borishadi. Tajriba xulosalariga ko'ra, bola nutqida noadabiy unsurlarning qo'llanishiga ta'siri real hayotdan ko'ra ko'proq ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshadi. Sababi televideniyeda berilgan ko'rsatuvlarda turli til va dialektlar ishtirok etadi. Nevrologik omillarga muvofiq bola bunday informatsiyani beixtiyor qabul qiladi[67].

Noadabiy leksik unsurlar kishi nutqida qaysi yoshdan voqelanishi haqida aniq bir xulosa berib bo'lmaydi. Biroq bola gapirishni o'rganish jarayonida atrofdagi ma'lumotlarni analiz qila olmaydi va to'g'ridan-to'g'ri qabul qiladi. Oilaviy muhitda ishlatilayotgan har qanday noadabiy leksik birlik bola ongida axborot sifatida saqlanib qoladi. Miyaning muayyan jarayonga javob reaksiyasi ko'rinishida bola nutqida ongsiz voqelanadi. Til o'zlashtirish, uni nutqiy vaziyatga muvofiq qo'llash qobiliyati 1-2 yoshdan to qarilik davrigacha davom etadi. Timoty Jay tomonidan qariyalar uyida qo'llanilgan vulgar elementlari bo'yicha tadqiqot olib borilganda erkaklar nutqidagi birliklar ayollar nutqiga nisbatan salmoqli o'rin topishini ko'rsatadi. Yosh toifasiga muvofiq xoslanishi masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, bola nutqida noadabiy leksik unsurlar neytral stimullar sifatida voqelanadi. Vulgarizmlar esa ota-ona tomonidan jazo choralari qo'llanilganda ongli ravishda hissiy-emotsiyalar bilan bog'liq holda ishlatila boshlaydi. Aksariyat hollarda noadabiy leksik birliklarning qo'llanishi javob reaksiyasi ko'rinishida bo'ladi.

Turli yosh toifalarida nutqning mukammalligi belgilari sirasida konkretlik, izchillik, nutq sofligi singarilar yetakchi ahamiyat kasb etadi. O'smir yoshlar nutqida o'zini boshqalardan ajratib ko'rsatish istagi natijasi o'laroq turli noadabiy

[66]Timothy Jay & Krista King & Tim Duncan. Memories of Punishment for Cursing// Sex Roles DOI 10.1007/s11199-006-9064-5 – P. 286-295.

[67]Law J., Boyle J., Harris F., Harkness A., Nye C. Screening for speech and language delay: a systematic review of the literature. Health Technol Assess. 1998; 2:1–184. [PubMed] [Google Scholar]

leksik unsurlar qo'llaniladi. Bunday birliklar turli kinofilm, video o'yinlardan iqtibos olish (*yest, Ok, bingo, treyker, spoiler, chyort, vozmi, bastard, fuck off*) natijasida yoshlar nutqidan o'rin oladi. Kriminalistik holatlarda amalga oshiriladigan lingvistik ekspertiza jarayonlarida noadabiy unsurlarning shaxs yoshiga muvofiq qo'llanish omili yetakchi ahamiyat kasb etadi. Xususan, anonim xatlarda muallif identifikatsiyasida ushbu omil asosiy o'rinda turadi.

Biz noadabiy leksik unsurlar sirasida vulgarizmlarning turli yosh toifasiga ko'ra xoslanishini tajriba-sinov asosida tadqiq qildik. Turli ijtimoiy tarmoqlardagi kommentlar va tvitlarda eng ko'p qo'llaniladigan vulgarizmlar ajratib olindi va yosh toifasiga ko'ra tahlil qilindi. Tahlilga olingan kommentlar yoshiga ko'ra belgilandi. So'rovnomalar o'tkazish, anketa asosida xatlarni analiz-sintez qilish orqali inson yoshiga muvofiq noadabiy leksik unsurlarning qo'llanish miqdoriga diqqat qaratildi.

Eng ko'p qo'llanilgan noadabiy leksik birliklar ijtimoiy tarmoq matnlaridan tanlab olindi.

1.7-jadval

Shaxs yoshiga muvofiq noadabiy leksik unsurlarning qo'llanilish miqdori

| T/r | Vulgarizmlar | 12-20 | 21-30 | 31-45 | 50 va undan yuqori |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | *Terpila* | 9 | 18 | 24-25 | 13 |
| 2. | *X.....k* | 5 | 26 | 17 | 28 |
| 3. | *Y...n* | 5-8 | 23-25 | 14-18 | 25-29 |
| 4. | *G....n* | 4-8 | 22 | 19-21 | 18-21 |
| 5. | *Kazyol* | 5-12 | 32 | 31-41 | 24-32 |
| 6. | *X....a* | 4-11 | 29 | 18-28 | 32-34 |
| 7. | *Shlyuxa* | 3 | 21 | 18-27 | 18 |
| 8. | *Itdan tarqagan* | 14 | 19-22 | 26-34 | 41-48 |
| 9. | *Kalamush* | 6 | 20 | 25-32 | 30 |
| 10. | *3 harf (...)* | 19-26 | 21-35 | 34-44 | 31-48 |
| 11. | *P.....z* | 4-18 | 18-24 | 21-28 | 36-42 |
| 12. | *Iflos* | 5-25 | 36-39 | 36-47 | 32-50 |
| 13. | *Eshshak* | 11-28 | 21-29 | 46-55 | 44-60 |
| 14. | *Isqirt* | 12-31 | 21-26 | 35-49 | 51-60 |
| 15. | *Muttaham* | 10-16 | 18-22 | 21-24 | 30-35 |
| 16. | *Mashennik/mashennitsa* | 12-17 | 24-26 | 28-38 | 21-25 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 17. | *Babnik* | 5-15 | 16-26 | 17-20 | 5-8 |
| 18. | *Kazzob* | 4 | 11-15 | 10 | 26-30 |
| 19. | *Shestyorka* | 8-15 | 18-24 | 14 | 10 |
| 20. | *Maraz* | 3-6 | 8 | 25-30 | 26-35 |

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, voqelikka munosabat bildirishda kichik yosh toifasidagilar so'zning tub mohiyatini to'laqonli anglashmaydi. Ular nutqiy vaziyatga muvofiq bo'lmagan noadabiy leksik birliklarni tanlashadi. Shuningdek, ushbu yosh toifasida noadabiy leksik birliklar emotsiyalarning kuchliligi, agressivlikning yaqqol ifodalanishi bilan xarakterlanadi. Imloviy xatolar, punktuatsion belgilarning noto'g'ri qo'llanishi yoki umuman qo'llanmasligi singari jihatlar ham ushbu yosh toifasida dominant belgilardan sanaladi.

O'rta yosh toifasidagilar nutqida esa noadabiy leksik birliklar aralash dialektning qo'llanishi, qochirimlar, ironiyaning o'z o'rnida ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, ushbu yosh toifasida (asosan, 30-35 yosh oralig'ida) punktuatsion belgilar pragmatik mazmun va kommunikativ maqsadni ifodalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Imloviy xatolar hududiy, gender va ijtimoiy xosligiga bog'liq holda yuzaga chiqadi. Ayollar nutqida dialektizmlarning qo'llanilish chastotasi yuqori. Noadabiy leksik, grammatik va fonetik birliklarning qo'llanishi ham hududiy xoslik bilan bog'liq.

1.8-jadval


Noadabiy birikmalarning shaxs yosh toifasiga ko'ra xoslanishi

| T/r | Vulgarizmlar | 12-20 | 20-30 | 40-50 | 50 va undan yuqori |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | *Spam berdi* | 25-28 | 18-19 | 12-15 | - |
| 2 | *Terpit qigan* | 22-25 | 28-30 | 21-22 | 14-18 |
| 3 | *Chorniyga tiqmoq* | 21-25 | 23-25 | 18-19 | 7 |
| 4 | *Dobro bermoq* | 15-20 | 18-20 | 12 | 5 |
| 5 | *Yeb qo'ymoq* | 16 | 17 | 14 | 6 |
| 6 | *Druzya tashlamoq* | 22 | 19 | 11 | 3 |
| 7 | *Nomer odin* | 30 | 32 | 14 | 9 |
| 8 | *108 (сто восмой)* | 9 | 21 | 19 | 15 |
| 9 | *Yedirmoq* | 12 | 31 | 28 | 9 |
| 10 | *Sindirib qo'ymoq* | 9 | 26 | 16 | 19 |


| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 11 | *После войны* | 11 | 14 | 19 | 29 |
| 12 | *O my god (OMG)* | 33 | 24 | 8 | 2 |
| 13 | *Lishniy rasxod* | 16 | 19 | 19 | 32 |
| 14 | *Poka... nevozmojno* | 14 | 34 | 12 | 25 |
| 15 | *Podderjka qilmoq* | 14 | 26 | 10 | 21 |
| 16 | *d... ....bmisan* | 9-11 | 16-19 | 9 | 3 |
| 17 | *Kozyollik qilmoq* | 8-14 | 21-30 | 30 dan ortiq | 16-24 |
| 18 | *Shestyorka bo'lmoq* | 6-10,10-20 | 15 | 19 | 23-30 |
| 19 | *Shantaj uyushtirmoq/qilmoq/ yasamoq* | 21 | 25-30 | 28 | 21-29 |
| 20 | *Nu... pryam* | 21-33 | 30 dan ortiq | 19 | 11 |
| 21 | *Uje pozdno* | 17 | 24 | 21 | 10 |
| 22 | *Kakoy kashmar* | 3-6 | 18 | 39 | 12 |
| 23 | *Tem bole* | 38-46 | 35-49 | 31-49 | 15 |
| 24 | *Raz shundekan, raz tushunmadingmi...* | | | | 31 |
| 25 | *Tolko opomnilsya* | 3 | 25 | 29 | 25 |
| 26 | *Vay b... n, b... ya* | 40 | 35 | 28 | 1-6 |

Ko'rinadiki, haqorat mazmunini ifodalovchi birliklar o'rta yosh va keksa yosh toifasidagilarda salmog'i yuqori. Sababi, yuqorida ta'kidlanganidek, muayyan noadabiy unsur, ayniqsa, qo'pol so'zlar kichik yosh toifasidagilar nutqida ma'nosi to'laligicha anglanmay ishlatiladi. O'rta yosh va yuqori yosh toifasidagilarda esa mohiyati anglanib, nutqda qo'llaniladi. Bolalar nutqida qo'llanilishi bo'yicha xorijda qator tadqiqotlar olib borilgan. Adams, Kuebli, Boyl va Fivush (1995) emotsional nutqdan foydalanishda onalar va otalar nutqiy birliklari bir-biridan farq qilmasligini aniqlashdi, ammo ikkalasi ham o'g'illardan ko'ra qizlari bilan ko'proq emotsional holatda gaplashishadi. Makkobi otalar, ko'pincha, onalarga qaraganda, o'z farzandlari bilan gaplashganda imperativlar berishini aniqladi (masalan, *To'xta! Xalal berma! Ishdan chalg'itma*!). Uning fikriga ko'ra, otalar oilada tartib-intizomni kuchli nazorat qilishni zimmasiga olgan holda qizlaridan ko'ra o'gillariga nisbatan tahdidli buyruq mazmunidagi gaplarni ishlatishadi[68].

[68]Maccoby E. Two sexes: Growing up apart, coming together. – Cambridge, Massachusetts: Belknap Press, 1998. – P. 89-95.



**1.7-rasm (15 yosh)**



**1.8-rasm (16 yosh)**

Shaxsiy xatlarda noadabiy leksik unsurlarning qo'llanish xususiyatlari nevrologik, psixologik, sotsiologik omillar bilan bog'liq. Noadabiy unsurlar kishining emotsional holati bilan ham aloqador bo'lishi mumkin. Ayrim shaxsiy xatlarda ijobiy, ayrimlarida esa salbiy mazmundagi noadabiy leksik unsurlar

qo'llaniladi. Shuningdek, noadabiy leksik unsurlarning qo'llanishida nutqiy vaziyat va kommunikativ maqsad ham muhim o'rin tutadi. Noadabiy leksik unsurlar madaniy, diniy, siyosiy va psixologik xususiyatlar bilan aloqador. Ikki shaxs o'rtasida ishlatilgan noadabiy unsur o'zaro ta'sir kuchiga ega. Adresat tomonidan ishlatilgan noadabiy unsur adresantning psixologik, emotsional holatiga ta'sir ko'rsatadi, nevrologik omillarga ko'ra miyada javob reaksiyasi yuzaga keladi. Bu shaxsiy xatlarda noadabiy leksik unsurlarning qo'llanishida alohida xarakterli xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Shaxsiy xatlarda noadabiy leksik birliklar biologik, psixo-fiziologik, sotsial jihatdan bir-biridan farq qiladi. Anonim xatlarni lingvistik ekspertiza qilish jarayonida ayni shu jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Noadabiy leksik birliklarning o'g'zaki nutqda, qo'lyozmalarda, ijtimoiy tarmoqlarda qo'llanishida ham muayyan tafovutlar mavjud. Asosan, og'zaki nutqda va ijtimoiy tarmoqlar orqali o'rnatilgan muloqot jarayonida vulgarizm, varvarizm, argo va jargon elementlarining salmoqli ekanligi kuzatiladi. Shuningdek, ushbu birliklar shaxs yoshiga muvofiq xoslanadi.

**Bob bo'yicha xulosa**

1. Shaxs nutqida noadabiy leksik birliklarning qo'llanishiga obyektiv va subyektiv sabablar ta'siri kuzatiladi. Obyektiv sabablar tashqi muhit ta'sirini o'z ichiga olsa, subyektiv omillar bevosita inson shaxsi bilan bog'liq.

2. Noadabiy leksik birliklarning dastlabki o'zlashtirilishi oilaviy muhit bilan bog'liq.

3. Lingvistik ekspertizada noadabiy leksik unsurlar matn avtorizatsiyasi bilan bog'liq holatlarda muallif qo'llagan noadabiy leksik unsur orqali identifikatsiya belgilarini aniqlashda (jinsi, yoshi, ijtimoiy mansubligi va h.k); kriminalistikada ayblanuvchi, gumondor va guvoh ko'rsatmalarini tahlil qilish, haqiqiy jinoyatchini aniqlash (yolg'on ko'rsatmalar berilganda, ayblanuvchi aybsizligini ta'kidlaganda, jinoyatchi ayblovdan bo'yin tovlaganda); suitsid ko'rinishidagi matnlarda, haqorat

bilan bog‘iq holatlarda yosh kategoriyasiga ko‘ra ajratilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Noadabiy leksik birliklarning qo‘llanilishida bevosita yosh bilan bog‘liq omil mavjud va u og‘zaki yoki ijtimoiy tarmoq orqali uzatilgan axborot, kommunikatsiya jarayonida ishlatiladi.

5. Noadabiy leksik birliklarning qo‘llanishiga muloqotning qanday, kimlar bilan, qayerda tashkil etilganligi ham ta’sir o‘tkazadi. Shu boisdan ham noadabiy leksik unsurlarni aniqlash, ularning semantik tabiatini baholash, pragmatik jihatdan asoslash lingvistik ekspertizada asosiy ahamiyat kasb etadi. Odatda tergov jarayonlarida bevosita psixolog yordamiga ham ehtiyoj seziladi. Psixolog ayblanuvchining xatti-harakati, nutqini tahlil qilish orqali tergov jarayoniga yordam beradi.

## II BOB. ANONIM XATLARDA NOADABIY GRAMMATIK UNSURLARNING SHAXS YOSH XUSUSIYATIGA KO'RA XOSLANISHI

### 2.1-§. Anonim xatlarda noadabiy grammatik unsurlarning voqelanish xususiyatlari va omillari

Axborot almashinuvining jadallashuvi va qamrov doirasining kattalashishi jinoiy harakatlarni amalga oshirish, turli tipdagi materiallarni tarqatish imkoniyatini kengaytirib yubordi. Ijtimoiy tarmoqlarda mikro-blog (twit, kommentariy)lar zamirida ekstremistik va terroristik g'oyalarni targ'ib qiluvchi, davlat va jamiyat xavsizligiga tahdid qiluvchi g'oyaviy bo'ysundirilgan matnlar ham mavjudki, bunday konfliktli matnlardagi til birliklarining tub mohiyatini lingvistik ekspertiza qilish orqali izohlash mumkin. Ijtimoy tarmoqlarda profil egasi shaxsiy ma'lumotlarini jamoatchilikdan sir tutishi yoki turli yashirin nom(nick)lardan foydalanishi mumkin. Bunday matnlarda jinoiy harakatlar borligi aniqlansa, tergov-surishtiruv ishlari amalga oshiriladi. Muammoli matnlarning asosiy mohiyatini ochish, muallifning kommunikativ maqsadini aniqlash uchun lingvistik ekspertiza o'tkazish ishning obyektiv, xolis ko'rib chiqilishiga yordam beradi. Anonim xatlarda identifikatsiya belgilarini aniqlash jahon tajribasida uch yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Matnning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish orqali (Chaski-2001, T.Grant, McmEnian);

2. Korpuslardan foydalangan holda hisoblash orqali (Argamon, 2008; Guver, 2003; Koppel va boshq. 2006; 2011);

3. Tergov-surishtiruv ishlari orqali.

Respublikamizda mavjud sud-ekspertizalari negizida muallifshunoslik va xatshunoslik ekspertizalari ham alohida o'rin egallab, bunda xatshunoslik ekspertizasida qo'lyozma ko'rinishidagi matnlar, imzolar namuna asosida solishtiriladi va o'xshashlik koeffitsienti baholanishi orqali gumonlanuvchiga tegishli/tegishli emaslik holati aniqlanadi. Muallifshunoslik ekspertizasi obyekti sifatida esa anonim xatlar, intellektual mulk obyektlari olinadi. Shu o'rinda

xatshunoslik ekspertizasi, muallifshunoslik ekspertizasi va lingvistik ekspertizaning o'zaro bog'liqligi hamda tafovutlarini aniqlash ehtiyoji paydo bo'ladi. Aytib o'tish joizki, har uchala ekspertiza turida obyekt matn sanaladi. Xatshunoslik ekspertizasida qo'lyozmalar namuna asosida tekshiriladi. Muallifshunoslik ekspertizasida matn muallifi xatlarni o'zaro taqqoslash, so'zlovchi nutqiga xos birliklar dalillar asosida aniqlanadi. Lingvistik ekspertiza esa ushbu ekspertiza turlariga nisbatan kengroq mohiyat kasb etadi. Boisi, lingvistik ekspertiza orqali kriminal/kriminal bo'lmagan konfliktli matnning istalgan ko'rinishi tahlilga tortilishi mumkin.

Aynan anonimlik holatlarida lingvistik ekspertizani amalga oshirishda yetakchi omil bo'luvchi jihatlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1) matnni leksik-semantik tahlil qilish, tahlil natijalarini yuridik asosga ko'ra umumlashtirish;

2) matnni mavzu yo'nalishiga muvofiq semantik bloklash;

3) matndagi grammatik unsurlarni xarakterli xususiyatiga ko'ra tahlil qilish (grammatik xatoliklarning hududiy, gender va yoshga xosligiga ko'ra);

4) matndagi fonetik unsurlarni turli kontekstlarda qo'llanishi va xarakterli xususiyatiga ko'ra tahlil qilish (hududiy, gender va yoshga xosligiga ko'ra).

Ushbu omillarni qo'shimcha omillar bilan yanada kengaytirish mumkin. Funksiyali so'zlarning nisbiy chastotalari va so'z chastotasi kabi xususiyatlar, taqsimotlar an'anaviy ravishda atributlash uchun ko'p o'lchovli modellarda birlashtirilgan mualliflik va, haqiqatan ham, "signal" so'zlardan foydalanishdagi individual o'zgarishlar bugungi kungacha mashhur usul (Grant & Baker, 2001)[69]. Bu sohadagi boshqa tadqiqotchilar (masalan, Miranda-Garsiya va Kalle-Martin, 2005)[70] ba'zi muvaffaqiyatlarga erishdi, leksik boylik (kamdan kam uchraydigan so'zlarning chastotasi) va takrorlash (umumiy so'zlarning chastotasi).

[69]Grant T. & Baker K. Identifying reliable, valid markers of authorship: a response to Chaski. International Journal of Speech, Language & the Law 8 (1), 2001. – P. 66-79.

[70]Miranda-Garcia A. & Calle-Martin J. (2005) The validity of lemma-based lexical richness in authorship attribution: a proposal for the Old English Gospels. ICAME 29. – P. 115-130.

G.D.Markova kriminalistik adabiyotlarda anonim xatlarning muallif identifikatsiyasi masalasiga to‘xtalar ekan, matnda qo‘llangan elementlar muallifning emotsiyalariga bog‘liq ravishda maxsus belgilarini namoyon etishini ta’kidlaydi va uchta yirik unsurni sanab o‘tadi:

- leksik-semantik;
- grammatik;
- stilistik.

Ushbu yirik uch unsur ikki xil kategoriyaga ajratiladi:

1) adabiy me’yorga muvofiq;

2) me’yordan chetlashilgan[71].

Anonim xatlarda muallif muayyan axborotni bayon qilishda ikki xil xatolikka yo‘l qo‘yishi mumkin. Ana shu ikki xatoni to‘g‘ri aniqlay olish muallifni aniqlashga yordam beradi. Ushbu xatoliklar quyidagicha:

1) mazmuniy mundarijaning o‘zgarib borishi bilan bog‘liq xatolik;

2) lingvistik jihatdan imloviy, punktuatsion, sintaktik xatoliklar.

Matn hajmi qanchalik uzun bo‘lsa, unda xatolarning qo‘llanish koeffitsienti shuncha ortib boradi. Bunday matnlarda muallif nutq uslubi “o‘zini o‘zi kashf qiluvchi” kalit vazifasini bajaradi. Qisqa matnlarda esa belgilar “kod”ini ochish qiyin. Ana shunday holatlarda matnning mazmuniy va grammatik strukturasidagi xatoliklarga diqqat qaratish lozim. Grammatik xatoliklarning kuzatilishi aynan yosh toifasida quyidagilar bilan xarakterlanadi:

1. Imlo xatolari. Ko‘pincha, imlo kamaytirilgan yo‘nalishda buziladi. Bunda, odatda, imloga oid xatoliklar grammatik qoidalardan bexabar insonlar nutqida namoyon bo‘ladi, chunki ular nutq birliklarini qanday talaffuz etsa, shunday yozma nutqda ham aks ettirishadi. Asosan, kichik yosh toifasida, ya’ni 12-20, 20-30 yosh oralig‘idagi insonlarda so‘zni talaffuz etilganiga muvofiq yozish ustuvorlik qiladi.

2. Tinish belgilaridagi xatolar. Ko‘pincha, bu zarur o‘rinlarda vergullarning yo‘qligi, aksariyat hollarda, keraksiz tinish belgilarining paydo bo‘lishi (masalan,

[71]Маркова Г.Д. Идентификационные признаки письма в советской криминалистической экспертизе. – Харьков, 1956. – С. 117.

jumla mazmuniga nomuvofiq tarzda) bilan xarakterlanadi. Tinish belgilaridan o'rinli foydalanish o'rta va yuqori yosh toifasidagi insonlar nutqida ancha yuqori (30-45, 50 va undan yuqori).

3. Sintaktik xatolar. Nutqning sintaktik buzilishi atayin tinish belgilaridagi xatolar bilan bir xil xarakterda sodir bo'ladi. Shunisi e'tiborga loyiqki, bunday turdagi xatolar jumla ichidagi so'zlarning tartibi buzilishida ko'rinadi va bu jarayon matnni jumlalarga ajratishda yuzaga keladi. Shuningdek, murakkab sintaktik qurilmalar o'rniga sodda gap qoliplaridan foydalanish mumkin. Odatda, 30-45 yosh toifasida murakkab sintaktik qurilmalardan foydalanish yetakchilik o'rinda turadi.

4. Taqdimot uslubini soddalashtirish. Bunga muvofiq, kundalik turmush tarzida faol ishlatiluvchi odatdagi nutq uslubidan foydalaniladi. Bunda sodda jumlalar, keng tarqalgan iboralardan foydalaniladi. (*kanechno, o my god, Ok, Nu..*) Nutq uslubini atayin yashirish uchun stereotipik iboralar, oldingi jumlaning, so'nggi so'zining har bir jumlasidagi takrorlashlar, jumla boshlanishining bir xil turi va boshqa uslubiy xatolardan foydalanish mumkin.

5. Oddiy til vositalaridan foydalanish. Odatda ilmiy yoki rasmiy-ishbilarmonlik uslubi bilan ishlaydigan shaxslar ba'zan o'ziga xos nutqiy ko'nikmalarini atayin yashirish maqsadida oddiy, so'zlashuv yoki epistolyar uslubga xos vositalarga murojaat qilishadi. Bunday holatlarda hukmlarning o'rtacha davomiyligi, ko'pincha, qisqartiriladi. Shu bilan birga, matnni xatboshilarga bo'lish qobiliyatlari an'anaviy ravishda saqlanib qoladi, haqiqiy uslubni yashirishda ma'lum bir odam tomonidan kamdan-kam ishlatiladigan maqollar, matallar, frazeologizmlar ishlatilishi mumkin.

6. Matnning arxitekturasi, ya'ni uning qurilish qolipi, ba'zan o'zgarishlarga uchraydi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yozma nutqni yashirish uchun, ko'pincha, imlo va leksik xususiyatlar o'zgarishga uchraydi. Biroq lingvistik me'yorlarning buzilishini anglatuvchi belgilar, nafaqat, oddiy yozuvda, balki boshqa belgilar ataylab o'zgartirilganda ham barqarorligini saqlaydi.

Yozma nutqni buzish belgilarining mavjudligi yoki yo‘qligini aniqlash uchun, nafaqat, har bir belgini tahlil qilish, balki uni qo‘lyozmada aks etgan boshqa belgilar bilan taqqoslash talab etiladi. Bunday taqqoslash qarama-qarshiliklarni aniqlashga va ularning o‘zgarishini ko‘rsatadigan belgilarni topishga yordam beradi:

- jumlalarning to‘g‘ri sintaktik tuzilishi bilan ko‘plab imlo normalarining buzilishi yoki, aksincha, sintaktik va tinish belgilarining ko‘p sonli buzilishi qatorida imloga qat’iy rioya qilish;

- nisbatan, oddiyroq sanalgan imlo qoidalarining qo‘pol ravishda buzilishi, murakkab imloga ega so‘zlarning yozilishi;

- sintaksis qoidalariga rioya qilish va turli xil tinish belgilaridan to‘g‘ri foydalanish paytida uslubiy xatolarning ko‘pligi, argotizmlar, lug‘at aralashuvi;

- lug‘at va murakkab funksional nutq uslublarini yaxshi biladigan odamlarga xos bo‘lgan so‘zlar va iboralarni taqdim etish uslubini umumiy soddalashtirish fonida mavjudligi;

- to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni tuzatish;

- qo‘lyozma oxirida, masalan, matn boshida yozilgan bir xil so‘zlar xatolar bilan to‘g‘ri yozilganda, imlo xatolarining sonini kamaytirish. Bu yozma tilni ataylab o‘zgartirishga qaratilgan xatning oxiriga bo‘lgan e’tibor va sa’y-harakatlarning zaiflashishi bilan bog‘liq.

Yozma nutqdagi grammatik xususiyatlar muallif nutqining tilning grammatik me’yorlariga mos kelish/kelmaslik darajasini ifodalaydi. Shuningdek, grammatik unsurlar muallifning grammatik normalarni o‘zlashtirish darajasini ham aniqlash imkonini beradi. Tilning grammarik me’yorlarini o‘zlashtirish erta bolalikdan kattalar nutqiga taqlid qilish hamda maktabda adabiy me’yorlarni o‘rganish orqali shakllanadi. Lekin kundalik nutq, atrof-muhit, psixologik holat, nutqiy vaziyat ta’sirida orfografik me’yorlarni soddalashtirishga intilish natijasida individual yozma nutq uslubi shakllanadi. Bu xususiyatni qo‘lyozma matnlarda yaqqol kuzatish mumkin. Punktuatsion belgilarga keladigan bo‘lsak, anonim xatlarda tinish belgilari ham muhim rol o‘ynaydi. Boisi, tinish belgilarini turli

vaziyatlarda qo'llash orqali umumiy mazmunni o'zgartirish, yoki ichki mohiyatni yashirish mumkin. Tinish belgilarining qo'llanishi ham muallifning ruhiy-psixologik, emotsional holatini ifoda etadi. Aynan qo'lyozma ko'rinishdagi sud-tergov jarayoniga oid matnlarni tadqiq etgan I.A.Mansvetovaning ta'kidlashicha, konfliktli matndan quyidagi axborotlarni olish mumkin:

- so'z tarkibidagi tuzatishlar, o'zgartirilganlik omili;
- sintaktik qurilmalar hamda xatoliklarning o'ziga xos tarzda qo'llanilishi;
- jumlalarni qurishdagi xatolar yoki o'ziga xos kompozitsiyalar va ularning kategorial xoslanishi (ayol/erkak; yosh/qari va h.k)[72].

Demak, anonim xatda grammatik unsurlarning muallifini aniqlovchi omillar sifatida belgilashda quyidagilar asos bo'ladi:

1) matnning imloviy xatolardan holi emaslik omilini aniqlash. Ushbu xatolarning qanday nutqiy vaziyat bilan bog'liq holda amalga oshganligini aniqlash. Yoshga oid individual belgisi bor/yo'qligini asoslash;

2) matnning punktuatsion xususiyatlarini o'rganish. Tinish belgilari, ularning muayyan kommunikativ maqsadga bo'ysundirilgan/bo'ysundirilmaganlik holatini aniqlash. Tinish belgilarining to'gri/noto'g'ri qo'llash, qasddan o'zgartirish holatlari bor/yo'qligini asoslash. Yoshga, gender xosligiga ko'ra individual belgilar bor/yo'qligini aniqlashtirish;

3) matnning sintaktik-stilistik xususiyatlarini o'rganish. Gap bo'laklarining joylashuv tartibini tahlil qilish. Gap bo'laklarining qo'llanish chastotasida identifikatsiya uchun asos bo'luvchi belgilar bor/yo'qligini asoslash.

Shaxsning yosh xususiyatiga muvofiq imlo xatolarning qo'llanishi bo'yicha tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichda amalga oshirildi:

**Tajriba-sinovni tashkil etish va o'tkazish bosqichlari**

1. Turli yosh toifasiga ko'ra respondentlar tanlab olish (10-40 va undan yuqori yosh toifasi);

- ✓ 10-20 yoshli maktab o'quvchilari, o'smirlar;
- ✓ 21-30 yoshli uy bekasi, turli soha vakillari;

[72]Манцветова А.И. Теоритические основы судебного поччеркоедения. – М.: Наука, 2006. – 386 с.

✓ 31-45 yoshli turli soha vakillari;

✓ 50 va undan yuqori yosh vakillari.

2. Barcha respondentlar quyidagi kategoriyaga muvofiq ajratildi: 10-20; 21-30; 31-45, 50 va undan yuqori.

3. Respondentlarga matn o'qib eshittirildi. Ular eslab qolgan qismini qog'ozga tushirishdi.

4. Olingan natijalarni yo'l qo'yilgan xatolar soni va foizini hisoblagan holda guruhlarga ajratildi.

5. Tahlil natijalari umumlashtirildi.

Quyidagi jadvalda yosh nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda xatolar o'sib borish foizining solishtirma grafigi berildi.

2.1-jadval

Yosh nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda xatolar o'sib borish foizining solishtirma grafigi

| T/r | Respondentlarning umumiy soni | Yosh kategoriyasi | Imloviy xatolarning umumiy soni | Harflarni qo'llashdagi xatolar soni va foizi | Qo'shib yozishdagi xatolar soni va foizi | Ajratib yozishdagi xatolar soni va foizi | Bo'g'in ko'chirishdagi xatolar soni va foizi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 10 | 10-20 | 75-85 | 45-57 (60-67%) | 4-6 (5-6%) | 13-15 (15-17%) | 1(1%) |
| 2 | 10 | 21-30 | 152-167 | 89-120 (59-72%) | 6(4%) | 15-20 (10-12%) | 6-8 (4-6%) |
| 3 | 10 | 31-45 | 37-55 | 14-23 (45-42%) | 6-8 (16%) | 7-8 (19-15%) | 10-16 (27-29%) |
| 4 | 9 | 50 va undan yuqori | 24-42 | 16-23 (67-55%) | 6-14 (25-33%) | 1-3 (1-3%) | 1-3 (1-3%) |

Jadvaldan ko'rish mumkinki, turli yosh toifasiga mansub kishilarda grammatik xatolarning qo'llanish foiz ko'rsatkichi turlicha. E'tibor qaratish lozim bo'lgan jihati – barcha yosh toifasida harflarni noto'g'ri qo'llash va punktuatsiya bilan bog'liq bo'lgan xatolar salmog'i ko'p.

2.2-jadval

Turli tipdagi matnlarda sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar (umumiy egalik qo'shimchalari) chastotasi

| Misollar | Internet (*micro-blog, chat*) | Bosma (*roman, lirika, gazeta*) | Shaxsiy xat (*telegram account*) | Og'zaki nutq materiallari |
|---|---|---|---|---|
| Umumiy fayllar | 9537 | 1087 | 3588 | 16783 |
| So'zlar uzunligi | 3.305468 | 26642852 | 14986 | 1195099 |

2.3-jadval

Turli tipdagi matnlarda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar chastotasi

*(-lar)*

| Misollar | Internet (micro-blog, chat) | Bosma (roman, lirika, gazeta) | Shaxsiy xat (telegram account) | Og'zaki nutq materiallari |
|---|---|---|---|---|
| Umumiy fayllar | 9537 | 1087 | 35889 | 16783 |
| So'zlar uzunligi | 3.305468 | 26642852 | 14986 | 1195099 |

Jadvaldagi ma'lumotlardan ham ko'rish mumkinki, matnning grammatik strukturasida qo'llaniluvchi xatolar koeffitsienti ijtimoiy tarmoqlarda, ayniqsa, Telegram messenjerida yuqori ekanligi kuzatiladi. Aynan ijtimoiy tarmoqlarda shaxs yozilayotgan so'zning talaffuzdagi variantini qo'llaydi. Shu boisdan xatolar soni ham ko'p bo'ladi. Matnda so'z turkumlarining grammatik kategoriyalari bilan bog'liq xatolar ham yuzaga chiqadi.

1. Fe'l turkumidagi grammatik kategoriyalarning qo'llanishi:

a) shaxs-son, zamon, mayl shakllarining qo'llanishidagi individual xarakterli xususiyatlar;

b) fe'l nisbatlarining qo'llanishi (belgili, belgisizlik. Nisbatlar o'rtasidagi almashinuv).

2. Ot so'z turkumidagi grammatik kategoriyalarning qo'llanishi:

a) egalik shakllarining qo'llanilishida dialektal variantlardan foydalanish;

b) kelishik shakllarining qo'llanishida dialektlar variantlardan foydalanish, talaffuzga muvofiq yozish;

d) ismlarni kesimga xoslovchi shakllarning tushirib qoldirilishi, tarkibidagi unlilarning kuchsizlanishi yoki umuman qo'llanilmasligi.

Demak, yozma matn ko'rinishidagi lingvistik ekspertizaning obyekti bo'ladigan matnlarni grammatik jihatdan tahlil qilishda nutq uslubida yuzaga keladigan xatolarni aniqlash lozim. Boisi, muallifning kommunikativ maqsadidan kelib chiqqan holda grammatik vositalar kamaytiriladi/orttiriladi yoki o'zgartiriladi. Anonim xatlarda grammatik unsurlarning voqelanish xususiyatlarida ana shu jihat yaqqol ko'zga tashlanadi.

## 2.2-§. Anonim xatlarda noadabiy lug'aviy shakllarning shaxs yosh xususiyatiga ko'ra xoslanishi

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, keksalar yoshlarga nisbatan axborotni qayta ishlash jarayonida passiv stimulni namoyon etadi. Bunga asosiy omil sifatida fiziologik holat va nerv-mushak tizimining sustlashuvi ko'rsatiladi. Nerv-mushaklarning zaiflashuvi bevosita til mushaklarining faoliyatini sustlashtiradi va nutq orasida pauzalar soni ortib boradi. Neyrotizimda neyrotransmissiya tezligining kamayishi nutq tezligiga ham ta'sir ko'rsatadi[73]. Ushbu jihat og'zaki nutqda yaqqol ko'rinadi. Nutq tezligining sustligi pauzalarning ko'pligi, ikkilanishlar, hissiy ifodalar bilan namoyon bo'ladi. Yozma nutqda esa ushbu omil o'zgaradi. Quyi yosh toifasidagilarda keksa yosh toifasiga nisbatan noadabiy lingvistik birliklarni ishlatish koeffitsienti yuqori. Yosh uzayib borgan sari miya faoliyati susayadi. Ba'zi insonlarda miyaning ayrim joylari hajmi yiliga 1 foizga kamayadi, lekin hech qanday funksiyasini yo'qotmaydi. Shunday qilib, miya tuzilishidagi yoshga bog'liq o'zgarishlar har doim ham miyaning leksik,

[73]Narasimhan S.V., Karunarathne S.S. G Effect of Age, Gender and Vowel Type on Vowel Space Area in Sinhala Speakers // Vidyodaya Journal of Science No. 01 2021. – P. 13-20.

grammatik birliklarni qabul qilish va uzatish funksiyasining yo'qolishiga olib kelmaydi. Biroq qarish bilan miya funksiyasining pasayishi miya kimyoviy moddalaridagi o'zgarishlar (neyrotransmitterlar), asab hujayralarining o'zidagi o'zgarishlar, vaqt o'tishi bilan miyada to'plangan toksik moddalar va irsiy o'zgarishlarni o'z ichiga olgan ko'plab omillarning natijasi bo'lishi mumkin. Bu esa nutqda o'z aksini topadi. Nafaqat, so'zlar, balki qo'shimchalarning nutqda qo'llanilishi bilan bog'liq tafovutlar ham nutqda ifodalanadi. Yoshning o'sib borishi bilan ikki xil qobiliyatda o'zgarishlar kuzatilishi mumkin:

- og'zaki qobiliyatlar, jumladan, lug'at va so'zlardan foydalanishning pasayishi;
- intellektual qobiliyatlar – axborotni qayta ishlash qobiliyati (tezlikdan qat'iy nazar), agar asosiy nevrologik yoki qon tomir kasalliklari bo'lmasa, saqlanib qoladi[74].

Yozma nutqda esa yosh toifasining o'zgarib borishi bilan leksik va grammatik jihatdan noadabiy birliklarning qo'llanilish chastotasi kamayib boradi. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar ham shular jumlasidan. Anonim xatlarda muallif atributlarini aniqlashda lug'aviy shakl yasovchi affikslarga ham diqqat qaratish lozim. Chunki lug'aviy shakl yasovchilar grammatik vazifa bilan bir qatorda uslubiy vazifa bajarishga xoslangan. Shaxsiy xatlarda esa muallif erkin harakatlanadi va nutq bilan bog'liq imkoniyatlari to'laligicha namoyon bo'ladi. Nutqda so'z shakllari, ularning grammatik va stilistik vazifasini aniqlash, aynan, anonim xatlar bo'yicha amalga oshiriladigan lingvistik ekspertizalarda muhim o'rin tutadi. So'z shakllari va ularning paradigmalarini ajratish N.Ostroumov, G.Vamberi, L.V.Shcherba va boshqa rus tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlaridan boshlanadi. Ya'ni so'z shakllari o'zaro bog'lanishlari jihatidan ikkiga ajratiladi. Bular:

1) paradigma hosil qiladigan shakllar;

2) paradigma hosil qilmaydigan shakllar.

[74]Deborah M. Burke and Meredith A. Shafto. Aging and langiage production//Current directions in psychological science. – P. 9-23.

Ushbu bo'linishga ko'ra, paradigma hosil qiladigan shakllar sirasiga ot va otlashgan so'zlardagi grammatik son (birlik, ko'plik), kelishiklar, egalik shakllari va fe'llardagi bo'lishli/bo'lishsizlik hamda shaxs-son formalari kiritiladi[75].

Paradigma hosil qilmaydigan shakllar tarkibida esa hozirda lug'aviy shakl hosil qiluvchi nomi ostida birlashtirilgan otlardagi kichraytirish-erkalash, sifatlardagi daraja, fe'llardagi nisbat va vazifa shakllari hamda shu kabi boshqa shakllar o'rganildi.

Alisher Navoiy ikki til bahsini grammatik sathda olib borganligi tufayli, bugungi kunda so'z yasalishi, shakl yasalishi atamalari bilan farqlanuvchi yasalishlarni bir-biridan ajratmaydi. Lekin ravishdoshning ***-gach*** shakli *(tepgach, aytgach, yorg'och, topqoch, sotqoch)*ning fe'lga qo'shilib, uning ma'nosiga "sur'at yo'sunluk" bir ma'no yuklashini ta'kidlaydi. Shuningdek, fe'lning orttirma nisbati shakli haqida ham aytib o'tadi va bu nisbat ma'nosi ***-t*** qo'shimchasi orqali ifodalanishini qayd etadi. Masalan, *yugurt, yashurt, chiqart*[76].

O'zbek tilida so'z shakllarini hosil qiluvchi qo'shimchalar ot va fe'l so'z turkumlarida salmoqli o'rin tutatdi. Sintaktik shakl yasovchilardan farqli ravishda lug'aviy shakl yasovchilar so'zning mazmun jihatiga ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu tufayli lingvistik ekspertizada konfliktli matnda qo'llangan lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalarning kontekstga ta'siri, qo'llanilish chastotasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Grammatik vositalarning shaxs yosh xususiyatlariga ko'ra xoslanishi borasida maxsus izlanishlar olib borilmagan. Biroq har bitta grammatik unsur turli xil variantlarda qo'llaniladi va bu bevosita og'zaki nutqda, shuningdek, yozma matnlarda o'z aksini topadi. Tadqiqotda lug'aviy unsurlarnining shaxs yosh toifasiga ko'ra xoslanish omillarini 3 obyekt misolida o'rganildi:

1. Qo'lyozma matnlar.
2. Mikro-bloglar.
3. Ovozli xabarlar.

[75]Усмонов С. Умумий тилшунослик. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – Б. 60-89.
[76]Alisher Navoiy. Muhokamat-ul-lug'atayn. – Toshkent, 2018. – B. 10.

Muayyan lingvistik birliklarning nutqda yosh kategoriyasiga muvofiq xoslanishi faqat lingvistik ekspertiza uchun ahamiyatli bo'lmasdan, psixolingvistika, sotsiolingvistika singari tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimizni quyidagicha asoslashimiz mumkin:

- so'zning tanlanishi va nutqda qo'llanilishi shaxsning intellektual salohiyatini baholashga imkon beradi;

- turli lug'aviy, sintaktik birliklarning muayyan yosh toifasiga ko'ra kategoriyalanishi ushbu birliklarning stilistik imkoniyatini kengroq aniqlashga yordam beradi;

- leksik, grammatik, fonografik unsurlarning turli variantlari aynan qaysi yosh toifasida salmoqli o'rin egallashini aniqlash orqali ularni yirik guruhlarga ajratish imkoniyatini yuzaga keltiradi;

- lingvistik ekspertizada ekstremizm, haqorat, tuhmat, anonimlik bilan bog'liq holatlarda lingvistik belgilarga ko'ra yosh xususiyati bo'yicha umumiy tushunchani shakllantirish yoki yosh toifasiga ko'ra matnning pragmatik, stilistik mazmun yo'nalishini baholash imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Kriminalistikada esa ayrim jinoyatlar bevosita lingvistika bilan bog'liq holda hal qilinishiga ham e'tibor qaratiladi. Shu boisdan jahonda alohida lingvokriminalistika va lingvokonfliktologiya bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, bunday tadqiqotlar mohiyatan lingvistik ekspertizaga borib taqaladi. Lingvokriminalistika uchun obyekt bo'luvchi jinoyatlar sirasida tahdid, haqorat, korrupsiya singari jinoyatlar bevosita til orqali sodir etiladi. Shu nuqtayi nazardan ushbu tipdagi jinoyatlar "til jinoyatlari" deb ta'riflangan[77]. Ekstremizm, anonimlik, reklama matnlari bilan bog'liq jinoyatlar esa bilvosita til omili orqali sodir etiladi. Bunda matn yetakchi ahamiyatga ega. Biroq lingvistik ekspertizaning barcha tarkibiy qismlari ham kriminalistik mohiyat kasb etmaydi. Matnlarda ifodalangan lingvistik belgilarning yosh kategoriyasiga ko'ra aniqlashning turli lingvistik

[77]Shuy R. Language crimes: the use and abuse of language evidence in the courtroom. – Oxford: Blackwell, 1996. – P. 178-186.

ekspertizalari qayd qilinadi. Quyidagi turdagi lingvistik ekspertizalarda lug'aviy, sintaktik, fonetik birliklarning yosh kategoriyasiga muvofiq ajratilishi dalillarni oydinlashtirishda muhim ahamiyatga ega:

birinchidan, anonim xatlar (yuridik va jismoniy shaxslar ustidan yozilgan asossiz "yumaloq xatlar", o'z joniga qasd qilish bilan bog'liq suitsid xatlar, kiber jinoyatlarda o'zganing profili orqali yuborilgan xabar, siyosiy maqsadga bo'ysundirilgan mikro-bloklar");

ikkinchidan, konstitutsion tuzumga, shuningdek, shaxsning e'tiqod erkinligiga daxl qiluvchi ekstremistik mazmunli xabarlar (yuborilgan xabar egasining taxminiy yoshini lingvistik belgilarga ko'ra aniqlash);

uchinchidan, o'zgalar intellektual mulkini o'zlashtirish bilan bog'liq plagiatlik holatlari.

Ingliz lingvistik ekspertizasida Solan Va Tiersma maxfiy agent vositasida yozib olingan yashirin suhbatlarda turli lingvistik atributlar orqali muallifni identifikatsiya qilishga e'tibor qaratadi. Tadqiqotchi urg'uning aynan affiks qismiga tushish holatlari, so'z turkumlarining yoshga muvofiq nutqda qo'llanilish chastotasi singari masalalarni tahlil etadi. Uning kuzatishlari anonimlikni affikslar orqali ham muayyan darajada aniqlash mumkin degan xulosaga olib keladi[78].

Matn muallifini identifikatsiya qilishda yosh kategoriyasi ham yuqori ahamiyat kasb etadi. Lug'aviy shakllarning qo'llanilishida imloviy xato bilan bog'liq holatlar ko'p uchraydi. Xususan:

- ot turkumiga oid lug'aviy birliklardan ko'plik (*-lar*), kichraytish-erkalash (*-cha, -aloq, -xon, -bonu, -oy, -jon*);
- fe'l turkumiga oid lug'aviy birliklarda: nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllari;
- son so'z turkumida son shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalar *(-lab, -larcha, -ta, -tacha, -ov, -ala, ovlon)*;
- sifat so'z turkumida daraja shaklini hosil qiluvchi shakllar (*-roq, -mtir,*

[78]Solan L.M., Tiersma P.M. Speaking of Crime: The Language of Criminal Justice. – Chicago and London: The University of Chicago Press, 2005. – 256 p.

*-sh, -ish*).

Yosh kategoriyasiga ko'ra tasnif qilishni barcha lug'aviy shakllar orqali amalga oshirish imkonsiz jarayon. Chunki ayrim lug'aviy birliklarning fonetik va dialektal variantlari yo'q. Ularning adabiy me'yordan boshqacha ifodalanishi faqat talaffuz orqali kuzatiladi. Shu sababdan biz lug'aviy shakllarning qo'llanishini tahlil qilishda otlarda ko'plik, fe'llarda bo'lishsizlik, vazifa shakllarini obyekt sifatida tanlab oldik. Ushbu birliklar har qanday matnda salmoqli o'rin egallaydi. Bizning asosiy tahlil obyektimiz – mikro-bloklar va qo'lyozma matnlar. Dastavval, ot so'zlarda lug'aviy birliklarning qo'llanilishiga diqqat qaratamiz.

Matnda muallifga xos atributlarni aniqlashda quyidagi jadvalga tayanildi. Bular orasida lug'aviy birliklarning qo'llanilishi ham identifikatsiyani aniqlashda muhim omillardan sanaladi. Noadabiy lug'aviy shakllarni tahlil qilishda imlo xatolariga asosiy e'tibor qaratildi.

2.4-jadval

Noadabiy lug'aviy shakllarni qo'llashdagi xatoliklarning tahlil natijasi

| | **Ot so'z turkumida *-lar* affiksining *-la* tarzida va qisqartirilgan belgisi / yoki *-lr* shakli orqali qo'llanilishi (37 ta namuna)** | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **Yosh** | **Misol** | **Miqdori** | **% ulushi** |
| 1. | 12-18<br>*-la/*<br>*-lr* | *1. Opamla bn umuman kelishomaganmiz.*<br>*2. Uydegi/ mani ayblashgan.*<br>*3. Sizlr hammani qulog'iga lag'mon iliyuribsz.* | 28-32 | 77-86% |
| 2. | 20-30<br>*-la* | *1. Tilin bo'sa-yu, oymisan, o'zin desen. Idish tovo/i haftalab yotsa shuni etadi-de ovsin ovsinga tosh otarmush db.* | 30-36 | 81-97% |
| 3. | 30-45<br>*-la,*<br>*-laaar* | *1. Birovvi g'iybat qiganla do'zaxda yonishini bilishmeydi.*<br>*2. Aaaancha g'iybatchilaaar, "suyukli" qayinsiyniginam.*<br>*3. Bunaqa vaziyat har qanaqa oiladi uchraydi* | 11-18 | 30-45% |
| 4. | 50 va undan yuqori | *-lar* shakli to'g'ri holatda qo'llangan, *-la* tarzida qo'llanilish salmog'i kam | 2-5 | 5-13% |

Jadvalga muvofiq, *-lar* affiksining turli shakllarda qo'llanishi, asosan, quyi yosh toifasidagilarda yuqori ko'rsatkichga ega. Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihati shundaki, biz qo'lyozma tarzda olgan namunalarda noadabiy lug'aviy birliklar salmog'i kam. Biroq ijtimoiy tarmoqlarda yozilgan "komment"larda bunday birliklarning qo'llanilishi yuqori. Sababi ijtimoiy tarmoqda yoshlar turli "nik"lar ortiga berkinishadi va erkin muloqotga kirishadilar. 15 yoshdan 20 yoshgacha oraliqda 100 ta foydalanuvchidan qariyb 55-67 foizgacha bo'lgan qismi "nik"lardan foydalanadi. Telegram messenjeri, Odnoklassniki, Facebook va Instagram ijtimoiy tarmoqlarida *–lar(-la+r), -lar (ko'plik)* affiksining turli shakllaridan foydalanish quyi va o'rta yosh toifasida ko'p ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, *-lar* affiksining uslubiy ma'noda qo'llanilishi 30-45 yosh oralig'idagilarda ko'p uchraydi. Xususan, ironiya mazmunida:

*"...yeb yotgansanla, birovvi-birov bn ishiyam bumagan. Hammeng talab. yeb, bosib qolish payida yurasanla" (fb 38 yoshli foydalanuvchi);*

*"...enni kaalenlar ishlab qoptimi, otendan meros qoganmidi o'zinlar bilganingcha ish tutasanlar?!" (fb 30 yoshli foydalanuvchi);*

*"...sanla birovvi molidanam xazar qimaysanla, xudodanku qo'rqmay qo'yganinglar shundog'am malum" (fb 42 yoshli foydalanuvchi);*

Otlarning kichraytirish-erkalash shakllaridan *-cha* shaklining qo'llanilish chastotasi nisbatan yuqori. *-cha* shakli g'azab, kesatiq ma'nosida 30-45 yosh toifasidagilar nutqida faol uchraydi. Kuzatishlarimiz natijasida *-cha* affiksi ham 20-30 yosh toifasidagilar nutqida kesatish ma'nosida qo'llanilgan. 30-45 yosh toifasi ham shular jumlasiga kiradi.

20-30 – *"detskiy panyatka, qizcha".*

*Uzidan xonimcha yasavogan.*

31-45 – *"Oyimcha o'zini qaynonamlaga yaxshi kursatishga harakat qiladi".*

50 va undan yuqori yosh toifasida esa ushbu affiks erkalash ma'nosida ishlatiladi.

Fe'l so'z turkumi bo'yicha ham lug'aviy shakl yasovchi vositalarning qo'llanilishida o'ziga xosliklar mavjud. Ularni ham jadval asosida tahlil qilishga harakat qilamiz.

2.5-jadval

Fe'l so'z tarkibida lug'aviy shakl yasovchi vositalar
*(-ma* affiksining -mi, -me tarzida)ning qo'llanilishidagi o'ziga xosliklar

| | **Fe'l so'z turkumida *-ma* affiksining *-mi, -me* tarzida qo'llanish ko'rsatkichlari (37 ta namuna)** | | | |
|---|---|---|---|---|
| **1.** | **Yosh** | **Misol** | **Miqdori** | **% ulushi** |
| 2. | 12-18<br>*-mi*<br>*-me* | *Bolla bugun bormimismi (bormaymizmi); Eee etmen yoshimni. Bu sir.* | 28-32 | 77-86% |
| 3. | 20-30<br>*-mi*<br>*-me* | *O'ziyniyam o'ylamiyszmi, bollariyz-chi. Unaqa demen, birovvi orqasidan g'iybat qivurmasdan.* | 30-36 | 81-97% |
| 4. | 30-45<br>*-mi*<br>*-me* | *Gapirib doklad kigan bilan ish bitmidi; yaxshiyam ozimam ashula eshitmiman bollarimgayam eshittirmiman; Bolayizzi sokinlashtiradi, uxlatadi umuman qo'rqmen.* | 11-18 | 30-45% |
| 5. | 50 va undan yuqori<br>*-mi*<br>*-me* | -mi shakli to'g'ri holatda qo'llangan, -me tarzida qo'llanilish salmog'i kam | 2-5 | 5-13% |

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, noadabiy shakldagi bo'lishsizlik qo'shimchasi, asosan, ravishdosh bilan bog'liq holatlarda uchraydi, 20-30 yosh toifasidagi kishilar nutqida faoldir. Shuningdek, bo'lishsizlik shaklining ifodalanishiga hududiy xoslik omili ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

2.6-jadval

Fe'l so'zlarda vazifa shakllarining yosh toifalari kesimida qo'llanishi bilan bog'liq o'ziga xosliklar


| **T/r** | **Fe'l so'z turkumida vazifa shakllarining qo'llanishi (37 ta namuna)** | |
|---|---|---|
| | **Yosh** | **Misol** |
| 1. | **12-19 yosh**<br>*ib-ip,p*<br>*ib-b* | *"..biliptimi?"*<br>*"...o'zin hammaga etp yuribsanu".*<br>*Lch yozb tawa.* |
| | *-kan* | *Uziyam vip sotkanakan,* |
| | *-kach-gach,* | *"..Owrip sokgach bordm, atak bormasdm"* |

| | | |
|---|---|---|
| | *guncha-kuncha gancha-kancha* shakllarining almashtirib qo'llanilishi | *Soqqani boskach survordiptuyu* |
| | *-sh(-ish* o'rnida*)* | *Bitta misol borde yecsh kere. Km bilad? Aytsh, etsh* |
| | *-sh,-ish* o'rnida – *iw* | *Yechiw kere didm, qiynro misol* |
| | *-mo (moq* shaklida *q* undoshining tushirilishi*)* | *O'zm ishlamoqchiydim, nu bilmimande... Uzi bormochimasdidm* |
| | *-tir-tr* | *Rasaaa joyiga keltrdm* |
| 2. | **20-30-45 yoshgacha** *-ib-im* | *O'limmanmi qaynanamga shunaqa dib* |
| 3. | *-ib-ip* | *Bekor qipsz dardizzi hammaga ovoza qilib, qaynonayizziyam izza qildiyiz.* |
| 4. | *-ish-iw* | *Buni surgun qiw kere* |
| 5. | *-roq-ro* | *Ko'pro shugullanish kere. Avvalro o'ylash keragidi* |

Kuzatish va tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'zlarda xatoliklar qorishiq holda qo'llaniladi. Ya'ni bir so'zda ham so'z yasovchi, lug'aviy va sintaktik shakl yasovchilar bilan bog'liq xatolar bir vaqtning o'zida ishtirok etishi mumkin. Erkin namunalarda aynan shunday xatoliklar qo'llaniladi. Biroq qo'lyozma ko'rinishidagi matnlarda xatoliklar kam ko'zga tashlanadi. Bu esa inson psixologiyasi, miya faoliyati bilan bevosita bog'liq. Og'zaki nutqda amalga oshiriladigan nutqiy muloqotda esa keksa yoshdagilar ko'proq xato qilishadi. Transmissiya tanqisligi modeli yoshga bog'liq yetishmovchilikni bashorat qiladi.

70 yoshli odamlarda past chastotali so'zlardan yuqori chastotali so'zlar uchun kutilgan kattaroq yosh farqi kuzatildi (Stuart-Hamilton va Rabbitt, 1997)[79]

[79]Hamilton S. Literary portrayals of ageing // New York University Libraries, on 15 Dec 2016 at 08:36:37, subject to the Cambridge Core terms of use. – P. 86-91.




**2.1-rasm. Lug‘aviy shakllarning qo‘llanishi bilan bog‘liq umumiy xatolar ko‘rsatkichi**

Yozma nutqda noadabiy lingvistik birliklardan foydalanish ko‘rsatkichi yuqoridan pastga tomon yo‘naladi. Asosan, kichik yosh toifasidagilarda imloviy xatoliklar ko‘p kuzatiladi. Katta yoshda esa bu ko‘rsatkich kamayib boradi. Ushbu jadvalda ham umumiy 37 ta namunada aynan lug‘aviy shakllar bilan bog‘liq xatolar ko‘rsatilgan.

Og‘zaki nutqda bu miqdor, aksincha, o‘zgaradi, kuzatishlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, keksa yoshdagilar garchi so‘zlar va so‘z ma’nolari haqidagi bilimlarini saqlab qolish yoki yaxshilashda faollik ko‘rsatishsa ham, ular og‘zaki va yozma so‘zlarni qayta ishlash jarayonida so‘z shakllari bilan bog‘liq nuqsonlarga duch kelishadi. Transmissiya – yetishmovchilik (defitsit) modeli asosini ta’minlaydi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, og‘zaki nutqda shaxs yoshining yuqorilashi bilan leksik, grammatik, fonografik jihatdan axborotni qayta ishlashda turli xatoliklar yuzaga kelishi mumkin va bu nevrofiziologik omillar bilan bog‘liq. Biroq tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, yozma nutqda ushbu ko‘rsatkich o‘zgaradi. Yosh toifasi yuqorilashib borishi bilan, nafaqat, leksik jihatdan, balki grammatik jihatdan ham noadabiy birliklar salmog‘i kamayib boradi.

## 2.3-§. Anonim xatlarda noadabiy sintaktik shakllarning shaxs yosh xususiyatiga ko'ra xoslanishi

Ma'lumki, gapning sintaktik jihatdan qurilishi har bir tilda o'ziga xos strukturaga ega. Har bitta so'z va gap shaklining lisoniy strukturasi tilning ichki imkoniyati bilan bevosita bog'liq. Sintaktik birliklarning nutqda voqelanishidagi xilma-xilliklar turli omillar bilan bog'liq bo'ladi. Ularni ikki yirik guruhga ajratish mumkin:

1. Nutqiy vaziyat (sodir bo'lish o'rni, muhiti, muloqotda ishtirok etayotgan shaxslar).

2. Nutq muallifining ruhiy-fiziologik holati (xasta, shod, g'azabda).

Ushbu omillarning qanday sababga ko'ra ajratilganligi masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, nutqiy vaziyat muloqotning sodir bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxs atrof-muhitida mavjud belgilarni o'zlashtiradi va u nutqda bevosita voqelanadi. Ch.Morris va Ch.Pirs universal modellar tizimini yaratadi. Unga muvofiq, belgining faollashuvi jarayonida hosil bo'luvchi ma'nosi – M quyidagilar yig'indisidan iborat:

$M_e$ – belgining idrok etilayotgan predmetga munosabati masalasi – semiotika;

$M_p$ – belgining undan foydalanuvchiga munosabati masalasi – pragmatika;

$M_f$ – belgining umumiy sintaktik tizimdagi munosabati masalasi – sintaktika.

Shunday qilib, belgining ma'nosi $M=M_e+M_p+M_f$[80].

Demak, birinchi $M_e$ kategoriya lingvistik ekspertizada so'zning mohiyatini, semantik mundarijasini aniqlashga yordam beradi. Matnda turli belgilar mualliflik atributlarini asoslashga xizmat qiladi. Xususan, qo'lyozmalarning shakliy va grafologik xususiyatlarida turli umumiy va xususiy belgilar identifikatsiya belgilari bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi $M_p$ kategoriya esa nutq faol tekshiriladigan lingvistik ekspertizada muhim ahamiyat kasb etadi.

[80]Morris Charles W. Foundations of the theory of signs. In Otto Neurath et al. (eds.). International encyclopedia of unified science, Chicago, Illinois: The University of Chicago Press. Vol. I, No.2, 1938. – P. 1-59.

$M_f$ kategoriyaga muvofiq matnning sintaktik imkoniyatlarini aniqlash mumkin. Albatta, ushbu modelni lingvistik ekspertiza o'tkazish uchun to'liq asos bo'luvchi vosita deb bo'lmaydi. Matnning sintaktik imkoniyatlarini aniqlash stilistika bilan birgalikda amalga oshadigan jarayon. Shu boisdan lingvistik ekspertiza o'tkazilishida qo'shimcha ravishda stilistik kategoriyani ham qo'shish maqsadga muvofiq. Nutq grammatik jihatdan shakllangan gaplardan tashkil topadi. Konfliktli matnda sintaktik bir butunlikni gaplarning grammatik va mazmuniy tugallanganligi, tarkibiy qismlarning yaxlitligi bilan baholash mumkin. Konfliktli matnda sintaktik, semantik va pragmatik mohiyatning voqelanishini to'g'ri baholay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Dastavval, gap sintaktik butunlik sifatida yaxlitlanib matnni yuzaga keltiradi. Matnga singdirilgan mazmun-mohiyat uning semantik jihatini ifodalaydi. Sintaktik va semantik mohiyat diskurs ishtirokchilarining munosabati sifatida pragmatik jihatni yuzaga keltiradi. Shuningdek, belgining o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lmasdan, matnning semantik-stilistik, sintaktik-stilistik imkoniyatlarini aniqlashga asoslanadi. Demak, konfliktli matnning sintaktik va stilistik jihatdan harakat yo'nalishini aniqlash quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:

2.7-jadval

Konfliktli matnning sintaktik va stilistik jihatdan harakat yo'nalishini aniqlash

| **Lingvistik jihatiga ko'ra** | | |
|---|---|---|
| **Kategoriyasi** | **Misol** | **Qo'shimcha** |
| Leksik | So'z va gaplarning o'rtacha uzunligi | So'z boyligi |
| Sintaktik | So'zlarning bog'lanishi | Gap bo'laklari tartibi |
| Struktural | Matn uzunligi | Matn tarkibi |
| Qo'shimcha elementlar | So'zlar chastotasi | Matnda ochqich so'zlarning bor/yo'qligi |
| **Texnik jihatiga ko'ra** | | |
| Statistik tahlil | Muallifni aniqlashga qaratilgan ekspertizalarda turli matnlardagi o'xshashliklarni statistik hisoblash. Matndagi yoshga, muayyan jinsga oid belgilar xarakteristkasini statistik tahlil qilish, hujjat statistikasini tahlil qilish. | |
| Korpus tahlil | Matnni korpus asosida tahlil qilish. | |

| Parametrlariga ko‘ra | |
|---|---|
| Jinsini aniqlash | Nutq uslubiga muvofiq. |
| Hududiy mansubligini aniqlash | So‘zlarning qo‘llanilishiga muvofiq. |
| Yoshini aniqlash | Umumiy belgilarga muvofiq. |
| Qo‘shimcha sotsial xosligini aniqlash | Kasbi, ma’lumot darajasiga muvofiq. |

Jadvalga muvofiq mualliflik atributlariga asoslangan ekspertizalarning bir qismida lingvistik tarkibiy qism muhim ahamiyat kasb etadi. Sud ekspertizalari tizimida xatshunoslik va sud-siyosatshunoslik lingvistik ekspertizalari negizida lingvistik ekspertiza amal qiladi.

Lingvistik bilimlarga zarurat tug‘iladigan o‘rinlarda ushbu namunaviy model asosida maxsus tekshirish o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Bunda faqat lingvistik tarkibiy qism nazarda tutilgan bo‘lib, ekspertizaga tayyorgarlik, obyektning texnik holati, ishlatilgan vositalarga urg‘u berilmagan. Bizningcha, bu jarayon ekspertizaning kirish qismi sanalib, lingvistik tarkibiy qism bilan adashtirilmasligi lozim. Demak, dastlabki kategoriyaga muvofiq, leksik qatlam tahlil qilinadi. Leksik tahlildan olingan xulosalar dalilni oydinlashtirishga yordam beruvchi dalilning boshlanishi bo‘lib xizmat qilsa, ikkinchi bosqich grammatik jihatiga urg‘u beradi. Ushbu qismda morfologik, sintaktik belgilar diqqat markaziga chiqadi. Aloqa-munosabatni ifoda etuvchi kategoriyalar, ularning matnda muayyan xususiy xarakteristika berishiga e’tibor qaratiladi. Aloqa-munosabat kategoriyalari so‘z turkumlariga emas, balki gap bo‘laklariga, so‘zning sintaktik mavqeyiga xos. Aniqrog‘i, so‘z ma’lum so‘z turkumiga xos bo‘lgani uchun emas, balki qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelayotganligiga, gapda qanday sintaktik vazifa bajarayotganligiga qarab aloqa-munosabat shaklini qabul qiladi[81].

Matnning sintaktik, stilistik xususiyatlarini o‘rganishda dastlabki bosqich texnik tayyorgarlikni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichni “scanning” deb nomlash ham mumkin.

Sababi bu dastlab ko‘zga tashlangan xususiyatlarni umumiy ko‘z yugurtirish orqali to‘plab oladi. “Scanning” bosqichi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

[81] Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – 244 b.

- satrlarning umumiy soni;
- gaplarning umumiy soni;
- paragraflarning umumiy soni;
- har bir paragrafdagi jumlalar soni;
- har bir paragrafdagi belgilar soni;
- har bir paragrafdagi so‘zlar soni;
- ochqich so‘zlarning bor/yo‘qligi;
- paragraflarda satrlar oralig‘i bo‘lishi[82].

Mualliflik atributlarini aniqlashga qaratilgan lingvistik ekspertizalarda sintaktik jihatdan matnni tekshirishda ikki aspekt nazarda tutiladi va bu bosqichni esa sinchiklab tahlil etish talab etiluvchi “Skimming” bosqichi deb nomlash mumkin.

1. Sintaktik shakl yasovchi qo‘shilishining yosh toifasiga ko‘ra xoslanishi.
2. So‘z birikmalarining yosh toifasiga ko‘ra xoslanishi.
3. Gap bo‘laklari tartibida yosh toifasiga ko‘ra xoslik belgilarining yuzaga chiqish/chiqmaslik omiliga e’tibor qaratish.

Ushbu turdagi ekspertizaning yana bir jihati o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan xususiyatlarni aniqlash va turli tillarda so‘zlashuvchilar orasida xatolarni taqqoslashni nazarda tutadi[83]. Bu o‘rtacha umumiylik va xususiylik nisbati kabi murakkablikka asoslangan xususiyatlarni o‘z ichiga olgan holda o‘rganildi.

- jumla va so‘z uzunligi;
- sintaktik qoidalar, so‘zlarning taqsimlanishi va tinish belgilari. “Signal” so‘zlar;
- bog‘lovchilar, yuklamalar va yordamchi fe’llar kabilar muallifning yozish uslubining yaxshi ko‘rsatkichi;
- muayyan mavzularning takrorlanishi;
- boshqa tomondan tinish belgilarining qo‘llanishi.

[82]Srinivisan L., Nalini C. An improved framework for authorship identification in online messages//https://doi.org/10.1007/s10586-017-1563-3. – P. 143-150.
[83]Zakurlayev A.K., Bazarova D.B. va boshqalar. Kriminalistika. Darslik. – Toshkent: TDYUU, 2015. – 23 b.

2.8-jadval

| T/r | Noadabiy sintaktik shakl | | 12-20 yosh | 20-30 yosh | 31-45 yosh | 50 yosh va undan yuqori |
|---|---|---|---|---|---|---|
| I | **Otlarda sintaktik shakl** | | | | | |
| 1. | Egalik shakli | *-yiz* | + | + | + | + |
| | | *-uz* | + | + | + | |
| | | *-iz* | | + | | + |
| 2. | Kelishik shakli | *-ni (-dai* o'rnida*)* | + | + | | + |
| | | *-ni* o'rnida *-mi* | | | | + |
| | | *-ni* o'rnida *–li* | | | | |
| | | *ning* o'rniga *–ni* | + | + | | |
| | | *-dan* o'rniga *-da* | | + | | + |
| | | *-da* belgisiz kelishi | | + | | |
| II | **Fe'llarda sintaktik shakl** | | | | | |
| 1. | Zamon shakli | *-ti* | + | + | + | |
| | | *-li* | + | + | | |
| | | *-op* | + | + | | |
| | | *-ni* | + | | | |
| | | *-or* | + | | | |
| | | *-ay* | + | | | |
| 2. | Shaxs-son shakli | *-la shaxs-son* | + | | | |
| | | *-miza* | | | | |
| | | *-sz* | | | | |
| | | *-k shaklining tushirilishi (bordi, bordu)* | + | + | + | + |
| | | *-dr* | + | + | + | + |
| | | *-tika* | + | + | + | + |
| | | *-pxm* | + | | + | |
| | | *-xka* | + | + | | |
| 3. | Mayl shakli | *-xmka* | + | | + | |
| | | *-sqxdi (-edi* qisqa turlari*)* | + | + | + | + |
| | | *-qe* buyruq ma'nosida *-su* shaklida (*bersalem*) | + | + | + | + |
| | | *-xkin* | | | + | |

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, kichik yosh toifasidagi insonlar qisqa jumlalardan foydalanishadi. Biroq ularga muayyan mavzuda yozish bo'yicha topshiriq berilganda, gap bo'laklari to'liq ishtirok etadi va jumlalar uzunligi oshadi. Shuningdek, to'liqsiz gaplarning salmog'i yuqori. Dialog ko'rinishidagi matnlarda esa so'z-gaplardan to'liq foydalanadi.

Quyida kichik yosh (12-20) toifasidagilar xatlariga diqqat qaratamiz:

- *A: Ne4nci ylsz?*
- *B: nega etiwm kere?*
- *A: etmismi?*
- *B: Yu*
- *A: Toshkenlimsz?*
- *B: Yu*
- *A: Viloyatdanmsz?*
- *B: Ha*
- *A: Qaysi?*
- *B: Topomiysz*
- *A: Yo'g'-e*

Ushbu yosh toifasidagilarda gap mazmunini kesim orqaligina ifodalash holatlari ko'p uchraydi: *bilmadim, etshmadi, bormadm, bordinmi, ko'rdinmi, tushunvossanmi.*

Shaxs-son va egalik shakllari bilan bog'liq xatolar ko'p qo'llanilgan. Erkin namunalarda ushbu yosh toifasiga xos sodda gaplar ko'p qo'llaniladi. Qisqa jumlalardan foydalaniladi.

Katta yosh toifasidagi (asosan, 45-50 va undan yuqori yosh toifasida) insonlar uchun grammatik, leksik va uslubiy xatolarning deyarli yo'qligi va, shuningdek, tinish belgilarning kam qo'llanilish holatlari kuzatiladi. Ushbu yosh toifasidagilar yozma nutqini tekshirish jarayonida sintaktik jihatdan quyidagilar yetakchilik qilishi kuzatildi:

- sintaktik shakllar bilan bog'liq xatolar deyarli ko'zga tashlanmaydi;
- jumlalar tuzilishi o'rtacha uzunlikda;

– ravishdosh komponentli birliklar salmoqli o‘rin tutadi;

– ularning matni yuqori darajali semantikaga to‘liq ega;

– adabiy ishlov berish, lug‘at boyligi so‘z-terminologik iboralardan o‘rinli foydalaniladi.

Masalan: *Biz **“u inson”** bilan bir mahallada turamiz, ha, to‘g‘rirog‘i qo‘shnimiz. Bir kelib mening oldimdan o‘tganda, ehtimol, yarmini berardim, yoki to‘liq. Dadasi, ya’ni xo‘jayinim **“otangni o‘ldirganga onangni ber”** qabilida ish tutatdi va **“inson”**ni **(inson deyishgayam tilim bormaydi.)** ishga kirishiga yordamalashdi va u kollej tugatilgunga qadar **faoliyat yuritdi.***

O‘rta yosh toifasidagilarda 30-40 yosh oralig‘ida komponentlar orasidagi murakkab iyerarxiya aloqalari bilan bog‘langanligi ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Ushbu yosh toifasida boshqa omillar ham yaqqol ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, o‘rta yoshdagilar nutqida kasbi, ma’lumoti, jinsi, hududiy mansubligi singari omillar bevosita ularning nutqida aks etadi va aynan shu yosh toifasida dialektizmlarning ishlatilish salmog‘i yuqori. Quyidagi xususiyatlar o‘rta yosh toifasidagilar nutqining sintaktik-stilistik jihatdan tuzilishida salmoqli o‘rin tutadi:

- so‘zlarning takrorlanishi;
- kundalik va oddiy nutqiy leksikalar;
- neytral sezgirlikning ustunligi;
- yuqori bo‘lgan noyob takliflarning chastotasi;
- matnlarning hajmi kattaligi;
- egalik shakllarining dialektik variantlaridan foydalanish;
- shaxs-son shakllarining turli variantlarda qo‘llanilishi;
- zamon hosil qilishdagi xatolar, asosan, o‘tgan zamon shakllari bilan bog‘liq. E-mail xabarlarida mualliflik atributlarini aniqlashda lingvistik belgilarga qo‘shimcha ravishda quyidagilarni ham kiritish mumkin:

1) satrlar oralig‘i (intervallarning qo‘llanilishi);
2) muayyan emoji (stikerlar: :-), :), :(), )larning qo‘llanishi;
3) qo‘shimcha belgilarning qo‘llanilishi: @, &,$;
4) punktuatsion belgilarning yakka yoki qo‘sh holda qo‘llanishi.

Aytib o'tish kerakki, nutqning aynan so'zlovchi ijro etganidek emas, qasddan o'zgartirilganlik holati ham mavjud bo'lishi mumkin. Mualliflik atributlarini aniqlashga qaratilgan lingvistik ekspertizalarda masalaning shu jihatiga e'tibor qaratish lozim. Lingvistik belgilarga ko'ra, muallif haqida ma'lumot olish, uning taxminiy "portret"ini yaratish borasida tadqiqotlar olib borgan ingliz tadqiqotchisi E.Tomilinning fikriga ko'ra, barcha lingvistik belgilarning qo'llanishi yuqori darajada shakllangan bo'lsa, bunday matnni qasddan o'zgartirilgan deb baholash mumkin[84]. E.Tomilin ko'proq darajalanish ketma-ketligida fikrini bayon etadi, ya'ni tinish belgilarning qo'llanishi butun matnda o'rinli bo'lsa, leksik-frazeologik birlik morfologik birliklardan yuqori darajada shakllangan bo'lsa, yoki sintaktik shakllar morfologik birliklardan yuqori shakllangan bo'lsa, bunday matn muallifi o'zining identifikatsiya belgilarini yashirishga uringan bo'lishi mumkin.

E.I. Goroshko va T.V. Gomon (Gomon, Goroshkolar ushbu holatni baholar ekan, muallif yoshini yashirishga urinishda 2 xil yo'nalishdan boradi. Birinchidan, qasddan imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarga yo'l qo'yadi, ikkinchidan, rivojlangan til ko'nikmasini namoyon etishga urinadi (rasmiy uslubga taqlid, murakkab sintaktik qurilishlardan foydalanish)[85].

Darhaqiqat, matnning mazmun yo'nalishi boshqa shaxsga taalluqli, biroq qo'l yozuvi ikkinchi bir shaxs tomonidan yozilgan matnlar, qasddan o'zgartirilgan matnlarni tahlil qilish, muallifning taxminiy yoshini aniqlashda qiyinchilik tug'diradi. Katta hajmli matnlarda muallif identifikatsiya belgisi beixtiyor namoyon bo'ladi. Yirik hajmli matnlarning dastlabki qismida o'zgartirilganlik omili yuqori bo'ladi, biroq matnning ikkinchi yarmidan boshlab odatiy nutq uslubi elementlari yuzaga chiqadi. Bizningcha, muallifni aniqlashga qaratilgan lingvistik ekspertizada qasddan o'zgartirilganlik holatini aniqlashda quyidagi chizmaga muvofiq ikki tendensiyaga amal qilish lozim:


---

[84]Tomlin E.W. Linguistic Philosophy: Forty Years On A General Statement// The Cambridge Quarterly, Volume VII, Issue 3, 1977. – P. 231-243. https://doi.org/10.1093/camqtly/VII.3.231

[85]Ажнюк Л.В. Типологія об'єктів лінгвістичної експертизи і методика їх дослідження / Леся Вікторівна Ажнюк // Мовознавство. – 2016. – № 3. – С. 6.

2.9-jadval

Lingvistik ekspertizada nutqiy birliklarni qasddan o‘zgartirilganlik omilini aniqlashda ikki tendensiya




Matnlarda qasddan o‘zgartirilganlik alomatlari bo‘lsa, ushbu ketma-ketlikka muvofiq matnni tahlil qilish lozim. Qo‘lyozma matnlarda muallifning individual uslubi bilan bir qatorda yoshiga muvofiq umumiy belgilarni aniqlash, o‘xshashlik koeffitsientini baholash lozim bo‘ladi. Eng asosiy e’tibor harflarning hosil qilinishidagi uch xususiyat: elementlarning miqdori, elementlarning to‘g‘ri bajarilganligi, harakat yo‘nalishi. Jahonda qo‘lyozma matnlarning texnik xususiyatlarini tekshirishda 22 ta belgiga muvofiq qiyoslab chiqiladi[86]. Bosma matnlar esa fonetik, leksik, grammatik xususiyatlariga muvofiq tahlil qilinadi va muallif yoshiga muvofiq atributlar aniqlashtiriladi.

Shaxsiy xatlarda noadabiy sintaktik shakllarning yoshga muvofiq qo‘llanishida ikki xil jihatni e’tiborga olish lozim bo‘ladi. Birinchidan, matnning sintaktik tuzilishini tahlil qilish, ikkinchidan, sintaktik shakl yasovchi vositalarning qo‘llanishiga diqqat qaratish. Muayyan gap bo‘laklari ham, yuqorida ta’kidlanganidek, muallif atributlarini aniqlashga yordam beradi.

[86]Sushma Uphadyay, Jyoti Singh. Estimation of age through handwriting in female writers. Indian Journal of Science and Technology, Vol 10(13), DOI: 10.17485/ijst/2017/v10i13/110804, April 2017. – P. 296-307.

## Bob bo‘yicha xulosa

1. Mualliflik atributlariga asoslangan lingvistik ekspertizalarda matnning grammatik strukturasini tekshirishda asosiy xatoliklarga diqqat qaratish lozim. Aksariyat hollarda matnda yuzaga keladigan xatoliklarni mazmuniy va lingvistik jihatdan guruhlarga ajratib olish lozim. Mazmuniy xatolik umumiy matndagi semantik mundarijasining o‘zgarib borishi bilan xarakterlanadi va yirik hajmli matnlarda aynan shu jihatga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Grammatik unsurlarning shaxs yoshiga muvofiq xoslanishida turli so‘z turkumlarida grammatik kategoriyalarning nutqda qo‘llanishi bilan bog‘liq umumiy jihatlar mavjud.

3. Lug‘aviy shakl yasovchi vositalarning nutqda qo‘llanishida yoshga muvofiq kategoriyalanish unlilarning kuchsizlanishi, qo‘llanilmasligi bilan xarakterlanadi. Asosan, quyi yosh toifasida lug‘aviy shakllarning talaffuzdagi variant yozma nutqda ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llaniladi va bu noadabiy unsurlar ko‘rsatkichining ushbu yosh toifasida o‘sib borishiga sabab bo‘ladi.

4. O‘rta yosh toifasida (20-30, 30-45) noadabiy lug‘aviy va sintaktik shakllardan foydalanish ko‘rsatkichi quyi yosh toifasiga nisbatan pasayadi. Biroq aynan shu yosh toifasida hududiy xoslik va gender mansublik nutqqa bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

5. Yuqori yosh toifasida (50 va unda yuqori) noadabiy unsurlarning qo‘llanilish chastotasi kamayib boradi.

## III BOB. ANONIM XATLARDA FONOGRAFIK UNSURLARNING SHAXS YOSH XUSUSIYATIGA KO'RA XOSLANISHI

### 3.1-§. Anonim xatlarda fonografik hodisalarning voqelanish omillari va xususiyatlari

Qo'l yozuvi – bu hissiy, nevrologik va fiziologik impulslarning kombinatsiyasi bo'lgan murakkab vosita mahoratidir. Vizual idrok va keskinlik, shaklni tushunish, markaziy asab tizimining yo'llari, qo'l va qo'l suyaklari va mushaklarining anatomiyasi va fiziologiyasi kabi omillarning barchasi kerakli natijani hosil qilish uchun birlashadi[87].

Qo'lyozma matnlarni tahlil qilishda jahonda ikki yondashuv mavjud:

1. Qo'lyozuvi ekspertizasi (Forensic handwriting, rus tilida почерковедеческая экспертиза);

2. Grafologiya – Yozuvga muvofiq shaxsning psixologik holatini aniqlash va baholash.

Grafologiya – bu shaxsiy xususiyatlarni baholash uchun qo'l yozuvidagi jismoniy xususiyatlar va naqshlarni tahlil qilish jarayoni sanaladi. Inson yozishni o'rganishi bilanoq shakl va o'lchamlarni individual yoqtirish va yoqtirmasliklariga qarab o'zgartiradi, deb ishoniladi[88]. Grafologiya yozma shaklning tuzilishi va harakatini – qiyaliklar, burchaklar va oraliqlarni o'lchaydi va ularga fiziologik talqinlarni biriktiradi.

Grafologiya sud ekspertizalari sirasida shaxs identifikatsiyasini amalga oshirishda foydalanilmaydi, ammo shaxsiyatni baholash uchun ishlatilishi mumkin va quyidagilar uchun ishlatilgan:

- Ishga qabul qilish: eng yaxshi nomzodlarni tanlashda yordam berish uchun ishlatilgan.
- Korporativ trening: xodimlarning kuchli va zaif tomonlarini topadi va

[87]Hilton O. Scientific Examination of Questioned Documents. Elsevier. – New York, 1982. – Pp. 10, 17, 153–157, 174.

[88] Danielle P. Seiger. Handwriting Examination: Meeting the Challenges of Science and the Law//Forensic sicence communications

ta'kidlaydi.

- Karyera yo'nalishi: yo'nalishni o'zgartirishni istaganlar uchun.
- Muvofiqlikni baholash: shaxsiy va biznes munosabatlari uchun.

Qo'lyozma matnlar ekspertizasi esa respublikamizda bir yo'nalish-xatshunoslik ekspertizasi negizida amalga oshiriladi. Bunda matnning fonografik jihatiga alohida e'tibor qaratiladi.

Taqqoslash uchun, qo'l yozuvini sud-tibbiy tahlil qilish – bu ikki kishi bir xil qo'l yozuvini yarata olmaydi, degan tushunchaga asoslangan ekspertiza turi. Bu matnlar va imzolarning sud-tibbiy ekspertizasidagi vazifalarni hal qilishga yordam beradi. Sud-tibbiy qo'l yozuvi bo'yicha tahlilcha imzo yoki matn bir shaxs yoki turli odamlar tomonidan yozilganligini aniqlashi va imzoning haqiqiyligini tasdiqlashi kerak[89].

Sud-tibbiy ekspertizasida qo'l yozuvi tahlili va grafologiyasi ikkala yozuvning nishablari, burchaklari va oraliqlarini tahlil qilsa, qo'lyozma matnlar ekspertizasida harflar va raqamlar uslubiga, chizig'ining soyasiga, bosimiga so'zlar va jumlalarning shakliy hosil qilinishiga ham diqqat qaratadi. Sud-tibbiy qo'l yozuvi tahlilchilari, shuningdek, taqqoslash va iloji boricha aniq bo'lish uchun bir xil odamning turli xil namunalarini ko'rib chiqadilar[90].

Ba'zi qo'lyozma matnlar ekspertizasi quyidagilarni aniqlash va tekshirishni o'z ichiga oladi:

Soxtalashtirish

Imzolar

Xatlar

Huquqiy hujjatlar/shartnomalar

Tibbiy yozuvlar

Boshqa kriminalistik holatlar.

[89] Baxendale, D. and Renshaw, I. D. The large-scale searching of handwriting samples, Journal of the Forensic Science Society (1979) 19:245–251.

[90] Federal Bureau of Investigation. Laboratory Division. Questioned Documents Unit Protocols. FBI Laboratory, Quantico, Virginia, 2007. 3-5p

Qo'lyozma matnlar ekspertizasida ekspert hujjatni ko'rish uchun ilmiy jarayonlar va usullardan foydalanadi, grafolog esa bunday qilmaydi.

Qo'l yozuvi - bu murakkab jarayon. Boshqalar so'zlarni tushuna olishida yozish qobiliyatiga ega bo'lish uchun odamdan ko'p yillar talab qiladi. Muayyan matnni yozish uchun zarur bo'lgan qo'l, barmoq harakatlarini muvofiqlashtirishni rivojlantirish uchun vaqt kerak. Agar ikkinchi tilni o'rganayotgan odam haqida o'ylasak, u bir necha darsdan so'ng o'sha tilda yozishni boshlaydi. Shaxs o'z tilidan biladigan vosita va muvofiqlashtirish ko'nikmalarini qo'llaydi va ikkinchisini chizish uchun ulardan badiiy foydalanadi. Qisqa vaqt ichida o'rganilgan yozish ko'nikmalari yozuvchining keyingi ko'nikmalarini rivojlantirishi bilan birga rivojlanadi va malakaga aylanadi. Yozish qobiliyatlari insonda uzoq vaqt davomida shakllanadi va shuning uchun ular shaxsning yozishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Har xil uslubdagi harflarni yaratish uchun harakatlarni tezda o'zgartirish qiyin. Aynan shu sabablarga ko'ra, qo'lyozma matnlarda bir muallifiga tegishli yozuvlarni aniqlash mumkin. Qo'l yozuvi sud tibbiyoti ekspertizasining bir turi bo'lib, u biroz o'ziga xosdir. Barmoq izlari yoki DNK bilan mutlaq identifikatsiyaga ega bo'lish mumkin. Qo'l yozuvi biroz subyektivdir. Bu hatto bitta yozuvchi yoki yozma hujjat ichida ham farq qiladi. Hujjatni tekshiruvchining subyektiv kuzatuvlari ikkita yozuv bir shaxs tomonidan tuzilgan yoki yo'qligini aniqlaydi. Ya'ni ba'zi ekspertlar shunga o'xshash xulosaga kelish uchun ko'proq dalillar yoki boshqa materiallar talab qilishi mumkin. Bu subyektiv test bo'lib, ekspertning tajriba darajasiga to'liq ta'sir qiladi.

Hamma odamlarning yozuvi sinfiy va individual xususiyatlarning kombinatsiyasiga ega bo'ladi. Yetarli individual xususiyatlar mavjud bo'lsa, uni aniqlash mumkin. Hujjatni tekshiruvchi ma'lum yozuv namunalari orqali bir yozuvchiga ega bo'lgan o'zgarishlar oralig'ini aniqlashi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, odam "*A*" harfini necha xil bajaradi yoki "*B*"ni bajarishda nechta kombinatsiyadan foydalanadi? Turli so'roqlarsiz yozuv bilan bu xususiyatlarni ekspertizada ko'rsatish mumkin. Odatda yozuvchi qanchalik *mahoratli* bo'lsa, individual xususiyatlar shunchalik rivojlanadi. Farqlar ikkita

hujjatda yozuvning mos kelmaydigan jihatlari bo'lib, bu ikki yozuvni bitta shaxs tomonidan yaratilganligini imkonsiz qiladi. Barcha shaxs ham bir xil tabiiy qobiliyatga ega emas. Ko'nikmalar o'rganiladi va tabiiy qobiliyatdan oshmasligi kerak. Ko'nikmalar harflarning o'lchamini, qiyaligini, oraliqlarini, soyalarini va yozish tezligini nazorat qilish qobiliyatini tekshirish orqali aniqlash mumkin. Qo'l yozuviga yozuvchining jismoniy holati ham ta'sir qiladi. Yosh, kasallik, dori-darmonlar, giyohvand moddalar, spirtli ichimliklar yoki qon tomirlari odamning yozishiga ta'sir qilishi mumkin. Qo'l yozuviga ta'sir qiladigan holatlar vaqtinchalik (giyohvand moddalar yoki spirtli ichimliklar), statik (falaj) yoki progressiv (o'zgaruvchan kasallik) bo'lishi mumkin[91].

Yozuvga ta'sir qiluvchi ruhiy kasalliklar, giyohvand moddalar yoki intoksikatsiyaning odatiy belgilari orasida intervallar, zarbalarning nisbiy o'lchami va harf shakllanishining buzilishi kiradi. Jismoniy muammolar titroq, qalamning siljishi va harflarning o'zgarishi (yaratish qulayligi uchun) sifatida namoyon bo'ladi[92]. Asabiylashish va zo'riqish ham qo'l yozuviga ta'sir qilishi mumkin. Yozuvchining pozitsiyasi yozuvga ta'sir qilishi mumkin, ya'ni suyanish, o'tirish, turish, siqilgan joy. Yozuv yuzasi yozish sifatiga ta'sir qilishi mumkin, masalan: qo'pol sirt yozuvda titroq kabi ko'rinadigan narsalarni yaratishi mumkin. Va nihoyat, yozuv asbobi yozuvning ko'rinishiga ta'sir qilishi mumkin. Qo'l yozuvida odat muhim ahamiyatga ega. Biror kishi yozishni o'rgangandan so'ng, uning odatlari uning mahoratini kuchaytiradi. Odat bizni nusxa ko'chirish kitobidan individuallashtirishga olib boradigan jarayondir[93]. Yozuvning tartibi yana bir muhim xususiyatdir. Hujjatga qo'l yozuvi qanday joylashtirilgan? Kengliklardan foydalanish, imzolarni matnga moslashtirish va yozuvlarning yaqinligi muhim ahamiyatga ega.

---

[91] Gamble, D. The handwriting of identical twins, Canadian Society of Forensic Science Journal (1980) 13:11–30.
Horton, R. A. A study of the occurrence of certain handwriting characteristics in a random population, International Journal of Forensic Document Examiners (1996) 2:95–102.

[92] arvey, R. and Mitchell, R. M. The Nicola Brazier murder: The role of handwriting in a large-scale investigation, Journal of the Forensic Science Society (1973) 13:157–168.

[93] Hilton, O. Scientific Examination of Questioned Documents. Elsevier, New York, 1982, pp. 10, 17, 153–157, 174.

Demak, **quyidagi xususiyatlar e'tiborga olinadi:**

**Oddiy yozish**: Agar ekspert yozuvni normal deb aniqlasa, u ekspertizani davom ettirishi mumkin. Agar yo'q bo'lsa, u to'xtab, qayta baholashi kerak. Xususiyatlari va o'zgarishlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak.

**Xususiyatlari:** Ekspertizani o'tkazishda birinchi navbatda umumiy yozish xususiyatlariga qaraladi. Har bir zarbani yaratish uchun asosiy harakat nima? Yozuvchining asosiy harakati burchaklimi yoki ko'proq yumaloqmi va hokazo?

**Harf shakllanishi:** Kichik ***"a"*** harfini yozish uchun yozuvchi uzoq boshlanuvchi chiziq bilan boshladimi, harf burchakli yoki yumaloq va hokazomi? Harflar qayerdan boshlanadi va ularning har biri qanday shakllanadi? Harflar soat yo'nalishi bo'yicha yoki teskari yo'nalishda yozilganmi? Ba'zi harflar ulanganmi, boshqalari bog'lanmaganmi?

**Chiziq sifati:** Yozuvchi o'z yozuvini nazorat qilayotganga o'xshaydimi? Ko'p qalam ko'taradimi yoki yozuv doimiy va kuchlimi? Yozuv ravonmi va harflar silliq yoki noqulaymi?

**Bosim:** yozuvchining bosimini baholash. Bosim me'yoridami yoki ortiqchami? Pastga yoki yuqoriga urishda ko'proq bosim bormi?

**Soyalash:** Ba'zi harflarda soya bormi va u mos keladimi?

**Nishablik:** Nishablik qaysi yo'nalishni belgilaydi? Harakatlar o'ngdan chapga yoki chapdan o'ngga qilinganmi? Hech qanday nishablik yo'qmi? Nishablik xususiyatlar mos keladimi?

**Mutanosibligi**: Harflarga va ularning bir-biriga mutanosibligi. Har safar kichik harf ***"t"*** va ***"h"*** yonida bo'lsa, ***"t"*** yuqori yoki pastroqmi?

**Boshlang'ich zarbalar:** Yozuvchi bo'rttirilgan boshlang'ich zarba bilan boshlanadimi yoki qisqa boshlanishmi?

**Asosiy chiziq:** Asosiy chiziqqa nisbatan yozuv qayerda? Yozuv yuqoridami yoki pastdami? Asosiy chiziqqa nisbatan qiyami?

**So'zlarning chastotasi:** Yozuvchi yozishda qisqartmalar yoki yorliqlardan foydalanadimi?

**Maxsus belgilar yoki chizmalar** - undov belgisi yoki vergul qancha davom etadi? Davrlar kichik nuqtalarmi, gorizontal chiziq hosil qiluvchi tezkor zarbalarmi yoki etishmayotganmi?

**Tezlik:** Yozuv ravon yaratilganmi? Ko'p pauzalar bormi. Agar shunday bo'lsa, ular doimo bir joydami?

**Bo'shliq**: so'zlar, harf birikmalari va chetlari orasidagi intervalni ta'kidlash kerak.

Ekspert ma'lum yozuvni tahlil qilishni tugatgandan so'ng, shaxsning yozuvida topilgan umumiy va individual xususiyatlar haqida aniq tushuncha bo'lishi kerak. O'zgaruvchanlik diapazoni va individual xususiyatlarning takrorlanishi ham aniq bo'lishi kerak. Ko'pgina ekspertlar o'zlari qayd etgan ko'plab qo'l yozuvi xususiyatlarini kuzatib borish uchun ishchi eslatmalarni tuzib chiqishadi va shu asosda xulosalarni shakllantiradi. Buni yozuvning fotonusxasini yaratish va ta'kidlash markeri, eslatma xususiyatlaridan foydalanish orqali amalga oshirish mumkin. Xotiraga tayanish muammoli, xatolar esa sud zalida so'roq qilishni talab qiladi[94].

So'roq qilinayotgan yozuvni tekshirishning birinchi bosqichi butun yozuvning bir shaxs tomonidan yozilganligini aniqlashdir. Bu oddiy qadam emas. Agar yozuv matnida turli xil qalamlar, uslublar, qiyaliklar va boshqalar ishlatilganligi to'g'risida dalillar mavjud bo'lsa, ekspert ekspertiza uchun zarur bo'lmagan joylarni ko'rib chiqishdan chiqarib tashlashi kerak. Keyingi qadam, yozishning normal yoki o'zgartirilganligini aniqlashdir. Buni aniqlash uchun kamida uchta qadam mavjud. Ular:

**a) Buzilish, xato ko'rsatish.**

Bu yozuvchining aybi yoki ishi bo'lmasligi mumkin bo'lgan yozuvdagi o'zgarishlar.

**b) Niqoblash.**

[94] Livingston, O. B. Frequency of certain characteristics in handwriting, pen-printing of two hundred people, Journal of Forensic Sciences (1963) 8. – P. 250–258.

Bu yozuvning ko‘rinishini yashirish yoki o‘zgartirish uchun qasddan qilingan qo‘shimcha harakatlaridir.

**c) Taqlid.**

Bu model yordamida xotirada boshqa odamning yozuvini yaratishga urinishdir.

Agar yozuv normal emasligi aniqlansa, ekspert har doim taqqoslash uchun qo‘shimcha yozuv namunalarini so‘rashi mumkin. Agar yozuv normal deb hisoblansa, ekspert yozuvning xususiyatlarini hujjatlashtirish uchun ma’lum yozuvni tahlil qilishda qo‘llaniladigan protsedurani bajarishni boshlaydi. Harflar va harf birikmalarini birinchi navbatda yozuvning umumiy yoki sinfiy xususiyatlariga e’tibor qaratib, so‘ngra individual xususiyatlarga o‘tiladi. Matn mualliffning o‘zgaruvchanlik diapazoni aniqlanadi. Ushbu bosqichda ekspert ma’lum hujjatlar muallifi so‘roq qilingan hujjatni ham yozganmi yoki yo‘qmi, javob berishi kerak. Yozuvning ikkala qismida ham umumiy va individual xususiyatlar ro‘yxati bo‘lishi kerak. Ularni solishtirish va izchillik, ahamiyat va farqlar bo‘yicha baholash kerak.

Agar ikkala yozuv o‘rtasida tushuntirib bo‘lmaydigan farqlar mavjud bo‘lsa, to‘g‘ri xulosa shuki, ikki xil yozuvchi bor. Agar taqqoslash yetarli darajada aniqlovchi xususiyatlarni ko‘rsatgan bo‘lsa, unda ikkita yozuv bir xil shaxs tomonidan yaratilgan. Har qanday farqlar ijobiy xulosadan kamroq narsani talab qiladi. Ushbu farqlar qanchalik ko‘p topilsa, fikr shunchalik aniq emas. Qo‘l yozuvi ekspertlari ekspertizada kelishi mumkin bo‘lgan umumiyliklar va xususiyliklar soniga qarab xulosalarini shakllantirishadi. Ular maksimal darajadagi aniqlikni asoslashga harakat qilishadi[95]. Quyida ushbu mumkin bo‘lgan qo‘l yozuvi xulosalarining tavsifi keltirilgan:

**Mutlaq identifikatsiya** (shaxsni aniqlashning aniq xulosasi): Bu hujjat ekspertlari tomonidan qo‘l yozuvi taqqoslashlarida ifodalangan ishonchning eng yuqori darajasi. Tekshiruvchining hech qanday izohi yo‘q va sud tomonidan unga

[95] *Stewart LF. The Process of forensic handwriting examinations. Forensic Res Criminol Int J. 2017;4(5):139-141. DOI: 10.15406/frcij.2017.04.00126*

Fakt so'zini ishlatish taqiqlangan bo'lsa-da, u qo'lyozmadagi dalillarga asoslanib, gumonlanuvchi ushbu yozuvni haqiqatda yozganligini ta'kidlovchi xulosa.

**Kuchli ehtimollik** (yuqori ehtimolli, juda ehtimoliy): Dalillar juda ishonarli, ammo ba'zi muhim xususiyat yoki sifat yo'q, shuning uchun identifikatsiya qilish kafolatlanmaydi; ammo, ekspert so'roq qilingan va ma'lum yozuvlarni xuddi shu shaxs yozganiga deyarli ishonch hosil qiladi.

**Mumkin:** Qo'lyozmada mavjud bo'lgan dalillar shubhali va ma'lum bo'lgan yozuvlarni xuddi shu shaxs tomonidan yozilganligini ko'rsatadi; ammo, bu ishonchning deyarli ma'lum darajasidan kam.

**Ko'rsatkichlar (taklif qilish uchun dalil):** Ba'zi qo'lyozmalarda qo'l yozuvini taqqoslash uchun muhim bo'lgan bir nechta xususiyatlar bo'lishi mumkin, ammo bu xususiyatlar boshqa yozuvlar bilan mos keladi, bu ularni xuddi shu shaxs tayyorlagan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Ba'zi ekspertlar ushbu noaniq fikrni bildirish maqsadga muvofiqligiga shubha qilishadi, ammo ishonch darajasining butun shkalasini qamrab olishga harakat qilayotgan ekspertlar bu yoki shunga o'xshash atamani ishlatishni xohlashlari mumkin. Odatda, bu fikrdan so'ng dalillarning ishonchli emasligi haqidagi bayonot keladi[96].

**Xulosa yo'q (mutlaqo noaniq, noaniq):** Bu ishonch shkalasining nol nuqtasi. U so'roq qilinayotgan yoki ma'lum bo'lgan yozuvlarda murakkab niqoblanish yoki taqqoslanadigan yozuvning yetishmasligi kabi sezilarli darajada cheklovchi omillar mavjud bo'lganda qo'llaniladi va ekspert u yoki bu tomonga moyil bo'lmasa, aniqlashning imkoni yo'q yoki belgilar mutanosib degan xulosa beradi.

Ko'pchilik yoshligida kitoblardan ko'chirish orqali harf shakllarini nusxalash orqali yozishni o'rganadi. Harf shakllarini takrorlash qobiliyati bir kishidan ikkinchisiga o'zgarib turadi va har bir yozuvchining tasvirni idrok etishiga va uning vizual idrokni takrorlash qobiliyatiga (motor qobiliyatlariga) asoslanadi. Qo'l yozuvi harakati mashq va takrorlash orqali o'zlashtiriladi. Bu

[96] Stewart LF. The Process of forensic handwriting examinations. Forensic Res Criminol Int J 2017;4(5):139-141. DOI: 10.15406/frcij.2017.04.00126

sodir bo'lgandan so'ng, yozuvchilar jismoniy yozish harakatidan ko'ra mavzuga e'tibor berishadi va o'zlarining individual xususiyatlarini ajratib ko'rsatish kitobiy shakllardan chetga chiqishadi. Yozuv bir yozuvdan ikkinchisiga takrorlanadigan ongsiz, odatiy shakllanish namunasiga aylanadi[97]. Ushbu individual xususiyatlar yoki odatlarni taqqoslash va baholash sud-tibbiyot ekspertizasiga har qanday shubhali yozuv uchun manba sifatida taniqli yozuvchini aniqlash yoki chiqarib tashlash imkonini beradi. Oddiy odamlar bir shaxsning qo'lyozmasini tanib olishlari va ma'lum darajada shaxslarni farqlashlari mumkin, ammo ular faqat qo'lyozmaning qo'pol belgilarini, masalan, harf shakllanishi, o'lchami yoki qo'l yozuvining qiyaligi kabilarni kuzatadilar. Oddiy odamlar odatda yozuvni boshqa shunga o'xshash yozuvlardan ajratib turadigan nozik tomonlarini hisobga olmaydilar. Bundan farqli o'laroq, hujjat tekshiruvchilari yozuvdagi yalpi xususiyatlarni ham, kamroq ko'zga tashlanadigan elementlarni ham tahlil qiladilar va farqlashlari mumkin.

Tekshiruvchilar baholaydigan qo'l yozuvining fonografik xususiyatlariga yozuvning o'lchami va qiyaligi, qalam bosimi, qalamning ko'tarilishi, so'zlar va harflar orasidagi masofa, yozuvning asosiy chiziqdagi holati (belgining boshqariladigan yoki xayoliy chiziqqa nisbatan pozitsiyasi) balandlik munosabatlari, boshlanish va yakuniy zarbalar va chiziq sifati kiradi. Yozuvchining shaxsini asardagi bitta individual xususiyat orqali aniqlash mumkin emas. Aksincha, o'ziga xoslik yozuvlar orasidagi muhim xususiyatlarning kombinatsiyasi orqali o'rnatiladi, hech qanday sezilarli farqlarsiz.

1-rasmda *b, y, u, v,* kabi harflar va 8 raqamining kattaligi, qiyaligi va umumiy shakllanishining vizual o'xshashligi ko'rsatilgan. Biroq batafsilroq tekshirish ikkita yozuv o'rtasidagi nomuvofiqliklarni aniqlaydi, masalan, katta B hosil qilish uchun ishlatiladigan zarbalar soni (ikki va bittaga qarshi), kichik y harfidagi yakuniy zarba (to'g'ri va egri), kichik v harfining shakllanishi

[97]Huber R.A. The Uniqueness of Writing. Presented at the American Society of Questioned Document Examiners annual meeting, San Jose. – California, 1990.

(to‘g‘ridan-to‘g‘ri egri chiziqqa qarshi) va 8 raqamining tuzilishi (ikki doira va bitta uzluksiz shakl).



**3.1-rasmda *b, y, u, v,* kabi harflar va 8 raqamining kattaligi, qiyaligi va umumiy shakllanishining vizual o‘xshashligi**

Hamma qo‘l yozuvida ham to‘laqonli identifikatsiyani aniqlash mumkin emas. Masalan, biror kishi boshqa shaxsning yozuvini kuzatganda, u asl muallifning yozish odatlariga taqlid qiladi va shuning uchun taqlidchining o‘z qo‘l yozuvida bevosita fonografik xususiyatlari to‘g‘ridan to‘g‘ri namoyon bo‘lmaydi. Lingvistik ekspertizada qo‘lyozmalarning o‘xshashlik izlarini aniqlashi va agar mavjud bo‘lsa, yozuvni namunaviy imzo bilan bog‘lashi mumkin, lekin imzoni kuzatgan shaxs bilan yozuvni aniqlay olmaydi. Umuman olganda, qo‘lyozma matnlarni tahlil qilishda har bir harf elementini tahlil qilish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:


Harflarda umumiy alomatlarni aniqlash:

- harfning og‘ish burchagi;
- harflar orasidagi interval;
- harflar o‘lchami;
- harf elementlarining bajarilishi.
- harflarda xususiy alomatlarni aniqlash:
- harf elementlarining kamayish/ko‘payishi;

- qo‘chimcha elementlarning qo‘llanilishi yoki mavjud elementlarning olib tashlanishi;
- harakatlarni to‘liq bajarmaslik;
- harakat yo‘nalishining o‘zgarishi;
- qirradorlik, jimjimadorlik, bezak va naqshlarning bor/yo‘qligi.

Qo‘lyozma matnlarda shaxs yosh xususiyatiga muvofiq uch kategoriya – kichik, o‘rta va katta yosh toifalari bo‘yicha umumiy o‘xshash belgilarni qiyoslab chiqildi. Kichik yosh toifasida 12-19 yosh oralig‘idagi bolalar ijodiy ishlari, o‘rta yosh toifasida 20-35 yosh toifasidagi o‘quvchilar ijodiy ishlari, yuqori yosh toifasida esa 40 va undan yuqori yosh toifasidagi kishilar qo‘lyozmalari tanlab olindi. Olingan qo‘lyozmalar uch kategoriyaga muvofiq saralandi:

1. Harakat yo‘nalishi.
2. Harflarning o‘zaro bog‘lanishi.
3. Harfiy belgilardagi elementlarning bajarilishi.

[98]


**3.2-rasm. Kichik yosh toifasidagi yozuv: (16-12 yosh toifasida)**

**Ushbu yosh toifasidagilarda umumiy belgilar:**

- ✓ harakat yo‘nalishining beqarorligi (o‘ng, chap yoki yuqoriga yo‘naltirilmagan);
- ✓ harflarning qariyb to‘liq bog‘lanishi;
- ✓ elementlarning bajarilishidagi asosiy tamoyil bo‘yicha bajarilganligi;

[98] *Namuna uchun 50 dan ortiq material olingan. Ilovada namunalar keltirilgan.*

✓ qo‘shimcha elementlarning yo‘qligi.




**3.3-rasm. O‘rta yosh toifasidagi yozuv namunasi (23-30)**

**Ushbu yosh toifadagilar xatlariga xos xususiyat:**

- harakat yo‘nalishining yuqoriga va o‘ng tarafga yo‘nalganligi;
- harf elementlarida o‘ng tomonga og‘ishning ustuvorligi;
- harf elementlarida harakatlarning teskari yo‘nalganligi;
- harf elementlarida qo‘shimcha elementlarning ishtirok etishi.

Ko‘rinadiki, bu yosh toifasidagilar yozuvida xususiy alomatlar bilan bir qatorda umumiy belgilar ham mavjud. Umumiy belgilarga ko‘proq diqqat qaratildi. Harf elementlaridagi og‘ish burchagining maqsadli yo‘nalganligi, elementlar bajarilishidagi ketma-ketliklarning o‘z o‘rnida bajarilmasligi singari jihatlar xarakterli xususiyat sanaladi.



**3.4-rasm. Yuqori yosh toifasidagilar qo‘lyozma namunasi (54-61)**

**Ushbu yosh toifasidagi insonlar nutqiga xos xususiyat:**

- harflarning bog'lanishidagi o'zaro beqarorlik;
- bosma yozuv uslubiga taqlid;
- harakat yo'nalishining maxsus yo'nalmaganligi;
- siyohning qog'ozga bosimi pastligi;
- og'ish burchagining har tomonga yo'nalganligi;
- nishablik qisman o'ngga.


Ushbu yosh toifasidagi kishilar yozuvidagi umumiyliklar faqat shu bilangina chegaralanib qolmaydi. So'zlar oralig'idagi qisqalik, harf elementlarining bog'lanishidagi uzilishlar singari jihatlar ushbu yosh toifasidagi shaxslar yozuvida salmoqli o'rin tutadi. Albatta, bu umumiyliklar turli tashqi omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin. Xususan, inson qo'l yozuviga yozuv vositasi va joyi, shaxsning fiziologik holati (kasalliklari), ruhiy-psixologik holati va shu kabilar ta'sir etishi mumkin. Shu sababdan ham anonim xatlarda muallifning taxminiy yoshini aniqlash bitta omilga tayanib qolmaydi va bu imkonsiz.

Qo'lyozma yoki bosma matn ko'rinishidagi anonim xatlarda fonografik hodisalar faol qo'llanadi. Ahamiyatlisi, bunday hodisalar, asosan, ijtimoiy tarmoq orqali uzatilgan xabarlarda faol uchraydi. Qo'lyozma ko'rinishdagi matnlarda esa fonografik hodisalarning qo'llanishi faol emas. Bunga ikki sababni keltirish mumkin:

Birinchidan, qo'l yozuvi bevosita insonning psixologik holati, miya faoliyati bilan uzviy bog'liq. Qo'l orqali bajarilgan harakatlar miyadan beriluvchi avtomatik signallar natijasida noadabiy birliklarning qo'llanilish ko'rsatkichi past bo'ladi. Boisi, miya faoliyati avtomatik tarzda matnni to'g'ri yozishga yo'naltiradi. Odatda, savodxonlik quyi darajada shakllangan kishilardagina qo'l yozuvida bajarilgan matnda noadabiy birliklar, gap qurilishining stilistik jihatdan nomuvofiqligi singari jihatlar ko'zga tashlanadi.

Ikkinchidan, bosma ko'rinishdagi matnlarda, ayniqsa, SMS, E-mail xatlari, mikro-bloklarda so'z tejamkorligiga intilish, qisqa jumlalardan foydalanish va harf shakllarining o'zgartirilishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, qo'lyozmalarga nisbatan

bosma ko'rinishdagi xatlarda noadabiy unsurlar, fonografik hodisalar faol qo'llaniladi.




**3.5-rasm. Bosma ko'rinishdagi xatlarda noadabiy unsurlar, fonografik hodisalar**

Mikro-bloklarda kichik yosh toifasidagi suhbatdoshlar xatlari tahlil qilinmadi. Kuzatishlarga muvofiq, 35-40 va undan yuqori yosh orasidagilar kommentlarida punktuatsion belgilar maqsadli qo'llaniladi. Tinish belgilari ifoda etilgan fikrga qo'shimcha ma'no ottenkasini berishga xizmat qiladi (3.5-rasm). Shuningdek, ushbu yosh toifasidagilarda imloviy xatolar nisbatan kam qo'llaniladi. Mikro-bloklarning yana bir xarakterli xususiyati shuki, turli emojilardan fikrni bo'rttirish maqsadida o'rinli foydalanishdir. 17 yoshdan 20-25 yoshgacha bo'lgan insonlar kommentlarida jumlalarning qisqa tuzilganligi, imlo, ishoraviy xatolarning keng qo'llanilganli xarakterli xususiyatlardan sanaladi. Fonografik hodisalar 20-25 gacha bo'lganlarda faol, 30-35 yosh oralig'ida o'rtacha, 40 va undan yuqori yosh toifasida passiv holatda qo'llaniladi. Agressiv, ijobiy, shikoyatomuz, hazilomuz,

da'vo tarzdagi kommentlarni tahlil qilish jarayonida eng katta fonografik hodisalar, asosan, unlilarning qo'llanishi bilan bog'liqligi va chastotaviy ustunlik 17 yoshdan 20-25 yoshgacha (Facebook, Twitter, Instagram tarmoqlarida 10-15 yosh toifalarining salmog'i kamligi tufayli, asosan, kichik guruhlarga 15 yoshdan 20 yoshgacha bo'lganlar qamrab olindi).

### 3.2-§. Anonim xatlarda unli harflar imlosining shaxs yosh xususiyatiga ko'ra xoslanishi

Fonografik vositalar va ularning nutqda qo'llanishi bir necha omillarga ko'ra yuzaga chiqadi. Bunday omillar sirasida psixo-fiziologik omillar yetakchilik qilsa, yosh kategoriyasiga muvofiqligi ham alohida o'rin tutadi. Har qanday tovushning talaffuz qilinishida miya signallari orqali chastotali takrorlanish yuzaga keladi. Neyrotransmissiya esa ushbu signallarni til mushaklariga yetkazib beradi. Nutq bilan bog'liq xarakterli xususiyatlar, asosan, unli tovushlar talaffuzida yuzaga chiqadi. Talaffuzda fonetik variatsiyalardan keng foydalanish quyidagi hollarda kuzatilishi mumkin:

1) tug'ma yoki orttirilgan nutqiy nuqson bo'lganida;

2) ruhiyatning barqarorlashmagan holatlari: asab, charchoq, tushkunlik, depressiya, kuchli stress, hayajon;

3) nerv va yurak-qon tomir kasalliklarida;

4) bir-biridan farq qiluvchi dialektlar o'rtasida;

5) blingvizm va pyuralingvizmda;

6) shaxsning yosh kategoriyasida.

Aksariyat holatlarda shaxsiy xatlarda muallif so'z va jumlalarni to'g'ridan to'g'ri talaffuzdagi variantini yozishadi. Ushbu grafemalar yuqorida ta'kidlanganidek, neyrotransmissiya natijasida voqelanadi.(Masalan. Yo'mi-talaffuzda, yo'mi-yozma matnda. Asl variant- yo'qmi)

Jahonda fonetika, unli tovushlar, fonetik o'zgarishlar, fonetik variatsiya va ularning yozuvda fonografik vosita sifatida grafemalar tarzida voqelanishiga bag'ishlangan tadqiqotlarda sheva va dialektlarga muvofiq unlilarning o'zgarib

borishi zanjirsimon harakatda tizimlashtirilgan[99]. Unli tovushlarning talaffuzdagi ritmik o'zgarishlari o'n yillar davomida kuzatib borilgan va vaqt o'tishi bilan tovushlarni talaffuz qilishda xilma-xillik yuzaga kelishi tadqiq etilgan[100].

L.V.Bondarenko tilning fonetik tuzilishi yozma matnlarda yaxshiroq aks etishini ta'kidlaydi. Scherbaning so'zlariga ko'ra, "grammatika va yozuv butunlay to'liq uslubga asoslangan. Og'zaki nutqda "so'zning ideal fonetik tarkibi"ni sof holda aniqlash qiyin"[101]. Har qanday og'zaki nutq talaffuzning to'liq va to'liq bo'lmagan turlarini namoyon etadi.

Lingvistik ekspertizada sof lingvistik tahlil to'la amal qiladi deb aytib bo'lmaydi. Qator omillar ekspertiza jarayoniga ta'sir o'tkazadi. Shu boisdan matn bilan bog'liq holda amalga oshiriladigan sud ekspertizalarini lingvistik ekspertiza deb nomlashning o'zi yetarli emas. Lingvistik ekspertiza amalga oshirilishida quyidagi tarkibiy qismlar yetakchi omil sifatida ishtirok etishini alohida e'tirof etish joiz:

1) texnik tekshirish;
2) yuridik tarkibiy qism;
3) psixologik omil;
4) fiziologik omil;
5) grafeologik omil (qo'lyozma matnlarda);
6) lingvistik omil.

Bu ro'yxatni yanada kengaytirish mumkin. Asosiy urg'u bermoqchi bo'lgan jihatimiz lingvistik ekspertizaning faqat sof lingvistik omilga tayanmasligini ta'kidlashdan iborat. Lingvistik omillarning o'zi ham fonetik, leksik, grammatik omillar bilan bog'liq. Aksariyat hollarda yozma ko'rinishdagi matnlarda fonetik jihatdan konfliktli matnni tekshirish ahamiyatdan chetda qoladi. Tilshunos olim A.Abduazizovning fikriga ko'ra, tovushlar tizimi nutqning istalgan ko'rinishida

[99]Wise C.M. Southern American dialect. – American Speech, 8, 1933. – P. 37-43.
[100]Kurath H. & McDavid R. I. Jr. The pronunciation of English in the Atlantic states. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1961. – P. 58-65
[101]Bondarenko L.V. Анализ речевой стратегии дискредитации в лингвистической экспертизе (на примере интернет-коментария) // Филологические науки. Вопросы, теории и практики. – 2014. – №10-1(40). – С. 27-29.

muhim ahamiyat kasb etadi. Matn gaplardan, gap esa so‘zlardan, so‘z tovushlardan hosil bo‘lishini inobatga oladigan bo‘lsak, fonetik jihatdan matnni tekshirish asosiy ahamiyat kasb etishini tushunish mumkin. Fonema so‘z va birliklarning ma’noli qismlarini tashkil etuvchi, eng kichik til birligi hisoblanadi[102]. Noadabiy leksik qatlam qatori ular tarkibidagi unli va undoshlarning fonografik jihati ham adabiy me’yor chegarasidan tashqarida hisoblanadi. Aslida “...biz talaffuz qilayotgan so‘zlarning ma’nosini farqlash uchun xizmat qiluvchi fonemalarni ongli ravishda bilish qobiliyatiga ega emasmiz; yana ham past darajada...har bir fonemani farqlanish belgilariga bo‘lishga imkon beruvchi fonologik qarama-qarshiliklarni tushunib yetmaymiz. Yozuvda esa ularni fonografik holatidan foydalanamiz”[103]. Bu esa nutqda fonemalarning variantlari qo‘llanishi yoki fonemalarning pozitsion o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Lingvistik ekspertizada shaxsning yosh xususiyatlarini aniqlash mutlaqo aniq va sof holda amalga oshmaydi. Bunga bevosita sheva elementlari, shaxsning jinsi, sotisal xosligi singarilar ham ta’sir ko‘rsatadi. Kuzatishlar davomida fonografik hodisalarning asosiy turi Toshkent shevasida so‘zlashuvchilar nutqida qo‘llanishi va, asosan, xatlarda o‘rta yosh toifasida qo‘llanilish koeffitsienti yuqori ekanligi aniqlandi. Tayanch shevalardan biri Toshkent shevasi asosidagi unlilar tasnifi quyidagicha: til oldi unlilar, oraliqdagi unlilar va til orqa unlilardir[104]. Professor V.V.Reshetov buni qo‘llab-quvvatlagan holda Toshkent shevasiga, asosan, *i, u, o‘, a* unlilarini oraliq uchinchi unlilar deb ataydi. Bunda, albatta, unlilarning hosil bo‘lishidagi fiziologik jarayon asos qilib olinadi. Olimlarning ta’kidlashicha, unli tovushlarning turli variantda talaffuz qilinishida fiziologik holatlarning ta’siri yo‘q, balki turli akustik-artikulatsiyaga ega undosh tovushlarning o‘zaro munosabati asosida yuzaga keladi[105].

O‘zbek tili unlilarining fonetik tasnifi masalasi Trubetskoy, Polivanov, Reshetov, G‘ulomov, Mirzayev, Serovtyan, Is’hoqov, Klimenko, Kissen va boshqa

---

[102] *Abduazizov A.* O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – B. 8.
[103] *Леви-Строс К.* Структурная антропология. – М., 1985. – 54 с.
[104] *Шоабдурахмонов Ш.* Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Toshkent, 1962. – 14 б.

tilshunoslarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan[106]. Noadabiy unli tovushlarning shaxsiy xatlarda qo'llanishini fonografik jihat bilan bog'lash mumkin. Yozuvda unlilarning qo'llanishi bilan bog'liq quyidagi holatlar kuzatiladi:

1) grafemalarning variantlari qo'llanilishi;

2) grafemalarning tushib qoldirilishi;

3) grafemalarning orttirilishi;

4) bir grafemaning boshqa grafema bilan almashinuvi.

Tovushlarni qo'llashdagi o'ziga xoslik va farqlar og'zaki nutqda ko'proq namoyon bo'ladi. Unli grafemalarning yosh toifasiga ko'ra xoslanishini aniqlashda quyidagi ketma-ketlikka rioya qilindi:

1) unlilarning harfiy ifodasidagi umumiylik/xususiylik qiyosiy tahlil qilindi;

2) mikro-bloklarda unlilarning ifodalanish shakli shaxs yosh kategoriyasiga muvofiq guruhlandi.

Unli harflarning ifodalanishida **A** (bosh harf), **U** (bosh harf) va **O'** (kichik harf) harflari tanlab olindi. Biz asosiy e'tiborni ushbu tovushlarni ifodalovchi harflarning bog'lanishi, shakliy xususiyati, elementlarning bajarilishi (bir element qo'shilishi yoki olib tashlanishi), topografik xususiyatlari (nishablik, bosim) singari jihatlarga qaratdik:



**3.6-rasm. 14-17 yosh toifasidagi insonlar qo'l yozuvi**

[106]Трубетской Н.С. Основы фонологии. – М., 1960; Трубетской Н.С. Некоторые соображения относительно морфонологии. "Пражский лингвистический кружок". – М.: Прогресс, 1967; Поливанов Е.Д. Фонологическая конвергенции. ВЯ, 1957. №3.; Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент, 1933; Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш.Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент, 1978; Севортян Э.В. Материалы по сравнительной фонетике турецкого, азербайжанского и узбекского языков. Частъ 1, Фонетика. – М., 1955.

Kichik yosh toifasidagi insonlarda harf elementlarining bajarilishi husnixatga muvofiq amalga oshirilishi yuqori ko‘rsatkichga ega. Ushbu yosh toifasidagilar yozma nutqida **A** harfining ifodalanishi bo‘yicha qo‘shimcha elementlar kam kuzatiladi. Qo‘l yozuvi tekshirilishi jarayonida 50 ta namunada qo‘shimcha elementlar bilan bajarilgan yozuvlar 11 ta namunada uchradi. Qo‘shimcha elementlarning qo‘llanishi, asosan, qiz bolalar qo‘l yozuvida faolroq. Bunda **A** harfining dastlabki elementiga qo‘shimcha ravishda quyiga yo‘nalgan ilmoqcha qo‘shilgan holat ko‘p uchraydi. Harf elementlarining namunadan chekinish holati yuqori qismda birinchi va ikkinchi elementlarning bog‘lanishidagi qirradorlikda yuzaga keladi. Odatda bu yosh toifasidagi insonlarda ayni shu qism keskin ko‘tarilish va keskin pastga tushish harakati bilan bajarilmaydi. Yuqori qismda 1 mm gacha kenglik bor. Tahlil davomida umumiy belgilar tanlab olindi. Elementlarning qoldirilishi esa ko‘proq o‘g‘il bolalar qo‘l yozuvlarida faolligi aniqlandi. 12-20 yosh toifasida unli fonemalarning qo‘llanishida talaffuzga muvofiq yozish ko‘proq uchraydi.

Yosh toifasiga ko‘ra unlilarning xoslanishini tovushlarning ifodalanish shakli misolida ham o‘rganib chiqildi. Unli tovushlarning qisqa, cho‘ziq talaffuzi, ayrim unlilarning qo‘llanmasligi singari jihatlar tekshirib chiqildi. Asosiy e’tibor so‘zlar imlosidagi unlilar bilan bog‘liq xatolarga qaratildi. Kichik yoshdagi insonlarda imloviy xatolarning qo‘llanilishi boshqa yosh toifasidagilarga nisbatan ko‘proq. Bu ko‘proq bilim darajasi bilan bog‘liq. Shaxsiy xatlarda talaffuzda aytilgani singari yozish salmog‘i yuqori. Xususan, talaffuzda bilan so‘zi I ning kuchsizlanishi hisobiga *blan* tarzda talaffuz qilinadi. Shu boisdan biz shaxsiy xatlar tadqiqida aynan og‘zaki nutq elementlarining yozma nutqda qo‘llanilishi bilan bog‘liq holatlarga diqqat qaratdik:

3.1-jadval

Yosh toifasiga ko'ra unlilarning ifodalanish shakli

| T/r | Talaffuz | Misol | Izoh | Soni |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Qo'shimcha tarkibida *i* harfining ifodalanmasligi | *Qalesz, nechinchi yilsz?* | Asosan bog'lamalar va shaxs-son shakllarida qo'llangan. | 28 |
| 2. | *a* harfi *e* tarzida ifodalangan; | *Tayyorlanmeszmi?*<br>*Man szga ettimku* | *-ma* bo'lishszlik shakli tarkibida qo'llaniladi. | 24 |
| 3. | *i* harfi *e* tarzda ifodalangan | *Kimez buladi muncha yonini oldiz* | *-ingiz* egalik shakli | 9 |
| 4. | *e* harfi *i* tarzida ifodalangan | *Nima didiz...* | So'zlar qisqartirib yozilganda qo'llaniladi. | 8 |
| 5. | *a* harfi *e* tarzida | *Mashinday sogandimde...* | *-da* yuklamasi tarkibida qo'llaniladi. | 15-16 |
| 6. | *i* harfining yozuvda orttirilishi | *Xayirli kun, sinifdoshla*<br>*... daris qmadm.* | Bu savodxonlik darajasining quyi darajasi namoyon bo'ladi. | 10-12 |
| 7. | Yozuvda texnik xatolik natijasida o'o'rnida o harfi | *...hop, sorab koraman...* | Harf elementlarining to'la qo'llanmasligi, tejamkorlikka intilish natijasida qo'llaniladi. | 30-34 |
| 8. | Yozuvda *o'* ornida *u* harfining qo'llanilishi | *...uzimam shunaqa db uylagandm ...* | Harf elementlarining to'la qo'llanmasligi, tejamkorlikka intilish natijasida qo'llaniladi. | 35-45 |
| 9. | *e* harfi *i* tarzida ifodalangan | *Mashnaqa qp bajarasan didi...* | Harf elementlarining to'la qo'llanmasligi, tejamkorlikka intilish natijasida qo'llaniladi. | 25-30 |
| 10. | *i* harfi ifodalanmagan | *Ishini blib qivursn, ...* | Harf elementlarining to'la qo'llanmasligi, tejamkorlikka intilish natijasida qo'llaniladi. | 6-15 |



**3.7-rasm. 24-31 yosh toifasidagi qo'l yozuvi**

Ushbu yosh toifasini o'rta yosh guruhiga kiritib o'tgan edik. O'rta yosh orasida olingan namunalarda rasmda ko'rsatilgandek, ikki xarakterli xususiyat dominant belgi ekanligi ko'zga tashlandi:

Birinchidan, ushbu yosh toifasida qo'shimcha belgilarning kiritilishi ko'p kuzatiladi (50 ta namunadan 28 tasida ayni shu holat kuzatildi).

Ikkinchidan, harf bajarishdagi elementlarning kamaytirilishi (50 ta namunadan 16-20 tagacha) kuzatildi. O'zgarishlar birinchi va uchinchi element bajarilishida kuzatiladi (ishorasi orqali ko'rsatilgan).

O'xshashlikni uch guruhdagi yosh kategoriyasiga muvofiq qiyoslab chiqildi.

Nutqiy hosilalardagi unli harflarning noodatiy qo'llanishi ham individual xarakter, ham ijtimoiy xarakter kasb etadi. Ma'lum hududga mansub shaxs o'ziga xos tarzda tovushlarni talaffuz etadi. Bu esa matnshunoslik, dialektologiya, areologiya kabi sohalar qatori lingvistik ekspertiza uchun ham ahamiyatli sanaladi. Shaxsiy xatlarning audio va video tarzidagi turlarida unli va undosh fonemalarning akustik-artikulatsion vazifalari maxsus fonoskopik apparatlar bilan amalga oshiriladi. Bundan farqli o'laroq, qo'lyozma matn va elektron bosma yozuvdagi xatlarda esa fonemalarni inson talaffuz qilganidek yozuvda ham aks ettirishi mumkin. Bu yozuv ijrochisining shaxsiy intelektual xususiyatlaridan darak beradi. Lingvistik ekspertizada anonim xatning eng kichik lingvistik xususiyatlarigacha xatolar turini guruhlash, kodlash va shu asosida dalil korpusi yaratish masalasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan[107].

[107] To'rayeva D.A. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi: Filol. fan. fals. dokt. ... diss. – Qo'qon, 2022; Kochmar E. (2011). Identification of a writer's native

O'zbek tili birliklari eliziya hodisasiga moyil. Eliziya til birliklarida (so'zlar, morfemalar, bo'g'inlar chegarasida, shuningdek, bo'g'inlar ichida) kontekstual sharoitlariga ko'ra (temp, stress, pauzalar, morfologik, sintaktik tuzilish) hosil bo'ladigan fonetik jarayon. Yuqorida kichik yosh toifasi nutqida qo'llaniluvchi unlilar bilan bog'liq o'zgarishlarga diqqat qaratildi.(3.2-rasm) Kichik yosh toifasida deyarli barcha unlilarni qo'llashda xatoliklar yuzaga keladi. Ushbu yosh toifasi so'zlarni talaffuziga muvofiq yozishga moyil. Qolgan uch yosh toifasida unlilarning qo'llanishini tahlil qilish jarayonida **E** va **I** tovushlarning almashtirib qo'llanishi va **I** tovushining qo'llanmasligi, talaffuzda esa kuchsizlanishi bilan xarakterlanadi. Ushbu jihat yozma nutqda ham to'g'ridan to'g'ri aks etadi. Internet tarmog'ida 500 dan ortiq twit va kommentlar tahlil qilindi, yoshga muvofiq taqqoslandi. Qiyoslashlar natijasida quyidagi natijalar kelib chiqdi:

3.2-jadval

Yoshga muvofiq taqqoslanishlar

| **Harf** | **12-18** | **21-30** | **31-45** | **50 va undan yuqori** |
|---|---|---|---|---|
| *e-i* | 150 | 106 | 107 | 62 |
| *i* ning to'liq va qisman uchrashi. Yozuvda aynan aks etishi. | 167 | 134 | 101 | 84 |
| **Umumiy ko'rsatkich** | 317 | 204 | 208 | 146 |
| ***a-o* va *a* ning qisqartirib yozilishi** | | | | |
| ***a-o*** | 126 | 112 | 98 | 76 |
| *a* ning to'liq va qisman uchrashi. Yozuvda aynan aks etishi. | 113 | 93 | 86 | 85 |
| **Umumiy ko'rsatkich** | **239** | **205** | **184** | **161** |

language by error analysis. (Master's thesis). University of Cambridge, UK.; Shuy R. (2001). DARE's Role in Linguistic Profiling. Dictionary of American Regional English,4(3). Solan L.M. (2013). Intuition Versus Algorithm: The Case of Forensic Authorship Attribution. Journal of Law and Policy,21(2) Retrieved June 5, 2019, from https://brooklynworks.brooklaw.edu/jlp/vol21/iss2/13.; O'Donnell M. (2008). Demonstration of the UAM CorpusTool for text and image annotation. Proceedings of the 46th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics on Human Language Technologies Demo Session - HLT 08, 13-16.; Hasselgård H. & Ebeling S.O. (2018) At the interface between Contrastive Analysis and Learner Corpus Research: A parallel contrastive approach. Nordic Journal of English Studies. 1. 17. 182-214. 10.35360/njes.438.; Coulthard M. (1994). On the use of corpora in the analysis of forensic texts. International Journal of Speech Language and the Law. 1. 27-43.

| *u-i* va so'z bo'g'inlarida u harfining orttirlishi | | | | |
|---|---|---|---|---|
| u-i | 103 | 98 | 79 | 54 |
| *i* ning yozuvda orttirilishi | 231 | 136 | 51 | 35 |
| **Umumiy ko'rsatkich** | **334** | **234** | **130** | **89** |

Ko'rinadiki, harflarning almashtirib yozilishida o'rta yosh toifasida adabiy normadan chekinish ko'rsatkichi yuqori. Bunga turli omillarni sabab qilib ko'rsatish mumkin. Yuqorida ushbu omillar sirasida gender xoslik va hududiy mansublik belgilari yuqori ekanligini ta'kidlangan edi. Yana qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, ushbu fonografik jihatdan qo'llanilish erkaklarga nisbatan ayollar xatlarida salmoqli o'rin tutadi. Yuqori yosh toifasida esa bu ko'rsatkich pasayadi. Garchi jahonda tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar keksa yoshdagilar nutqida tovushlarning aralash qo'llanilishi va xatoliklar salmog'ining yuqori bo'lishini ko'rsatsa-da, ammo xatlar tahlili yuqori yosh toifasida, nafaqat, fonetik jihatdan, balki leksik va grammatik jihatdan adabiy normadan chekinish holati kam kuzatiladi. Ular yozuvda bunday xatoliklarga kam yo'l qo'yishadi.

Unlilarning qo'llanishidagi yana bir e'tiborli jihati, turli ruhiy holat jarayonida til birliklarining birdan ortiq qo'llanilishidir. 20-30, 31-45 yosh toifasidagi insonlar xatida unlilarning birdan ortiq qo'llanilishi ko'p kuzatildi:

- *Iiiiii, sz nima jinnimisz, qaynanezga iiindamaygina haqizzi berib utribsizmi*?! (fb 31 yosh ayol);
- *Eee, akasi, bunaqa ashulalariyizzi eshitib bo'ldik* (fb. 39 yosh,erkak);
- *Nimaaa?! Subutila bormi uzi, kopirmisanla*? (fb 42 yosh erkak);
- *Aaa, gap buyoda ekanda lag'monni ildirib ketvurishadibaranlaga* (fb 26 yosh, );
- *Ooo, ja xayratlantrvordilar, xayratlanib kettime yengililardan.*

Unlilarning shaxs yoshiga muvofiq xoslanishida fonografik hodisalar: unlilarning boshqa unli bilan almashtirib yozilishi, so'zda tushib qoldirilishi bilan xarakterlanadi. Kichik yosh toifasida talaffuz va yozma nutq deyarli bir xil ifodalanishi kuzatiladi. Bundan tashqari, unlilar artikulatsiyasi, fonetik variatsiyalarning yuzaga chiqishi shaxsning psixo-fiziologik holati bilan bog'liq.


Og'zaki nutqda keksalar so'zni qayta ishlash jarayonida to'xtamlar, unlilar takroriga ko'p yo'l qo'yishadi *(imm, aa)*. Biroq yozma nutqda (ham bosma, ham qo'lyozma) adabiy me'yordan chekinish holati kam kuzatiladi.

Qo'lyozma matnlarda unli va undosh harflarning ifodalanish shaklini tahlil qilish lingvistik ekspertizada muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, ekspertizani tashkil etishda nafaqat mazmuniy (fonografik o'zgarishlar bilan bog'liq), balki shakliy tarafiga ham e'tibor qaratish lozim. Avvalo, qo'lyozmalarda belgilarning yoshga muvofiq xoslanishiga ko'ra aniqlab chiqilishi lozim. Biz yuqorida unlilarning harfiy ifodasida turli yosh toifalariga xos umumiy xususiyatlarga qisman to'xtalgan edik. Quyida 2 ta namunani harflarning shakliy xususiyatiga ko'ra tahlil qilamiz:


**Ekspertizaga taqdim etilgan materiallar**

1-varaqda ekspertiza uchun taqdim etilgan matn;


1-varaqda solishtirish uchun hujjat qismidan namuna



3.8-rasm. Ekspertiza uchun taqdim etilgan matn




3.9-rasm. Solishtirish uchun hujjat qismidan namuna




**3.10-rasm. Ekspertizaga taqdim etilgan namunalardagi harf shakllarining umumiy belgilari**

"a" harfining ifodalanishi:

1. "a" harfi ikkala namunada ham o'zidan oldingi harf shakliga yuqori chap burchakdan bog'langan;
2. "a" harfi har ikkala namunada ham birinchi elementdan ikkinchi elementga-bog'lanishga o'tish usuli bir xil;
3. keyingi harfga bog'lanish yuqori chap burchakdan quyiga harakatlanganlik bilan xarakterlanadi.




**3.11-rasm. Namunalardagi "u"(kirill) harf shakllarining umumiy belgilari**

"y" harfining ifodalanishi:

1. "y" harfining o'zidan oldingi so'zga bog'lanishidagi bog'lovchi elementning o'rni qo'llanilish shakli bir xil. Ikkinchi holatda ham shunday.

2. "y" ning pastki qismida oraliq masofa qariyb teng, shakllar deyarli bir xil;

Namunalarda faqat ikki unli harfni solishtirib ko'rildi. Unlilarning o'zaro qiyoslanishi natijasida anonim xat va namuna muallifi bir shaxs;

Ushbu shaxs taxminan 21-30 yoki 31-40 yoshlar chamasida bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqarish mumkin. Matnning lingvistik xususiyatlariga ko'ra ekspertiza keyingi qismlardan o'rin oladi.

Umumiy matndagi harflarda to'liq bog'lanish kuzatilmaydi (30-45 va 50 yoshdan yuqori yosh toifalariga xos xususiyat);

Nishablik qisman o'ngga yo'nalgan (20-30, 31-45 yosh toifalariga xos xususiyat);

Harflar qirrador shaklga ega (21-30, 31-45 yosh toifasida ko'proq).

### 3.3-§. Anonim xatlarda undosh harflar imlosining shaxs yosh xususiyatiga ko'ra xoslanishi

Undosh tovushlar birining o'rnida ikkinchisining qo'llanishi, jarangli-jarangsizlik, singarmonizm bilan bog'liq holatlar og'zaki nutqda faol uchraydi. Yozma nutqda esa imloviy xatolar natijasida bir undosh o'rnida ikkinchisi qo'llanishi ko'p uchraydi. Tovushlar uyg'unligi singarmonizm – (grekcha sin – o'xshash, harmoni-ohang) turkiy tillarning muhim fonetik xususiyatlaridandir. Tovushlar uyg'unligi deb, so'zning o'zak va qo'shimchalaridagi tovushlarning o'zaro moslashishi, uyg'unlashishi, bir-biriga o'xshash bo'lishiga aytiladi. Uyg'unlik fonetik hodisalardan biri bo'lgan tovushlar singishi (assimilyatsiya)ning bir turidir[108]. *g, q, g', x* undoshlari *y, v, g', q* undoshlari bilan almashgan holda talaffuz etiladi va bu yozuvda ham aks etishi mumkin: *g//y: ti byma (tegma), iyna (igna); q//v: buzov (buzoq), qo'nnirov (qo'ng'iroq); q//g': g'uduq (quduq),*

[108]НеъматовХ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. – Тошкент, 1992. – Б. 45.

*g'uzg'un (quzg'un); g'//v: tov (tog'), bovich (bog'ich); x//q: qat (xat), qop (xo'p), qalta (xalta)* kabi[109].

Anonim xatlarda undosh harflarning xoslanishi turli omillarga ko'ra ajraladi. Birinchidan, muayyan harfning ifodasida hududiy kelib chiqish nuqtayi nazaridan o'zga xoslik kuzatilsa, ikkinchidan, uning gender xosligi ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, turli ruhiy-fiziologik holatlar: charchoq, uyqusizlik, stress, xastalik; quvonch, hayratlanish singarilar ham tovushlarning ifoda jihatiga ta'sir ko'rsatadi. Shakliy ifodasi deyilganda quyidagilarni nazarda tutish mumkin:

1) harflarning yozuvda birdan ortiq qo'llanilishi: *...vachachchcch;*

2) unlilarni tushirib qoldirish hisobiga so'zlarni qisqartirish: *ddeb, bn-bila,xch(hech), h.k(hokazo)*;

3) muayyan qo'shimchalarni belgilar orqali ifodalash: *-ning* qo'shimchasi o'rnida, -(chiziqcha)ni qo'shimchasi o'rnida.

Psixologik tadqiqotchilar inson xulq-atvorida, odatda, individual farqlarning beshta asosiy sohasini ajratadilar: kognitiv qobiliyatlar, shaxsiyat, ijtimoiy munosabatlar, psixologik qiziqishlar va psixopatologiya (Lubinski, 2000)[110].

Tovushlarning harfiy ifodasining turli omillarga ko'ra xoslanishi og'zaki va yozma nutqda uchrashi mumkin. Kuzatishlar natijasida insonlarning qo'lyozmalarda imloviy, punktuatsion xatolarni kam qo'llashlarining guvohi bo'lish mumkin. Asosan, SMS-xabarnomalar, mikro-bloklar va Telegram messenjeri orqali uzatilgan xabarlarda noadabiy lingvistik birliklar qo'llaniladi. Shuningdek, ushbu shakldagi yozma nutq mahsulotida shaxsning yosh kategoriyasiga muvofiq ayrim belgilarni aniqlash imkoniyati qo'lyozmalarga nisbatan yuqori. Qo'l yozuvi esa yuqorida ta'kidlanganidek, aksariyat hollarda nutqiy tejamkorlikdan holi, noadabiy birliklar qo'llanilish chastotasi past. Demak, qo'lyozmalarda noadabiy birliklarning chastotaviy xususiyatiga ko'ra shaxs yoshiga muvofiq belgilarni olish biroz murakkab. Shu boisdan undosh

[109]Sheraliyev Sh.E. O'zbek tili sharqiy Xo'jand shevalarining grammatik kategoriyalari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2001. – 26 b.

[110]Tkach C., Lyubomirsky S. How do people pursue happiness?: Relating personality, happiness-increasing strategies, and well-being. Journalof Happiness Studies, 7, 2006. – P. 183-225.

tovushlarning harfiy ifodasidagi umumiyliklarni qiyoslash orqali uch yosh toifasiga ko'ra muayyan belgilarni aniqlash mumkin deb hisobladik. Turli tipdagi qo'lyozma materiallar (ijodiy ish: insho, diktant, bayon, esse; xat: shikoyat, do'stona xat; da'vo arizalari, qayd varaqalari)da tovushlarning ifodalanishiga diqqat qaratildi.


Albatta, qo'l yozuvi insonning individualligini namoyon etuvchi vositalardan biri. Qo'l yozuvidagi matnda harfiy ifodalar orqali shaxsning yoshini to'la aniqlash mumkin, degan qat'iy fikrni qo'llab-quvvatlamagan holda aytishimiz mumkinki, borliqdagi bir turga kiruvchi barcha narsa predmetlarda xususiylik bilan bir qatorda muayyan umumiyliklar ham mavjud bo'ladi. Bu umumiyliklar nisbiy xarakaterga ega bo'lib, garchi har doim ham yaqqol ko'zga tashlanavermasa ham baribir mavjud va uni inkor etib bo'lmaydi. Shu sababdan ham borliqda meva, sabzavot, mineral moddalar, o'txo'r va go'shtxo'r hayvonlar singari guruhlarga ajralishlar bor. Demak, yozuv orqali ham shaxsning yoshiga xos umumiyliklarni hisoblab lingvistik ekspertizada anonim xat muallifining taxminiy yoshini aytish mumkin. Yana shuni alohida qayd etish joizki, anonim xatda shaxs yoshi bo'yicha konkret xulosa berib bo'lmaydi. Biroq taxminiy xulosa berish orqali ehtimolliklar doirasini qisqartirish mumkin.

Quyida uch yosh kategoriyasiga muvofiq ikki undoshning harfiy ifodasidagi umumiy belgilar qiyoslanadi. Harf elementlarining bajarilishida husnixat bilan muvofiq/mivofiq emaslik jihati solishtiriladi va belgilar tanlab olinadi.




**3.12-rasm. Kichik yosh toifasidagilar qo'l yozuvida kichik b harfining shakliy ifodasi**

Ushbu yosh toifasidagilarda husnixatga muvofiq yozish xarakterli. Ayrim elementlarning uzunligi, kengaytirilganligi ham ayni shu yosh toifasidagilarda kuzatiladi. Kichik *b* harfining ifodalanishi kichikroq guruhlarda husnixat talabi asosida harakat yo'nalishiga ega. Yosh o'sib borgan sari husnixat bo'yicha shakllangan yozuv ko'nikmasi o'zgarib boradi. Yuqoridagi namunada ham 12 va 19 yosh toifasidagi o'quvchilar yozuvida elementlarning bajarilish ketma-ketligi, harakat yo'nalishi husnixatga muvofiq holda yo'nalgan, biroq elementlarning o'lchami bilan bog'liq holda tafovutlari mavjud.



**3.13-rasm. O'rta yosh toifasidagi insonning qo'l yozuvi**

*B* harfining bajarilishida ikkita element ishtirok etdi. O'rta yosh toifasidagilarda harf elementlari bajarish ketma-ketligi o'zgarish holati ko'p uchraydi. 50 ta namunadan 35-40 foiz atrofida harf elementlarining o'zgarish holati kuzatiladi. Aynan shu belgi ushbu yosh toifasidagilarda dominant belgi sanaladi.




**3.14-rasm. Kichik *k* harfining uch yosh toifasidagi shakliy ifodasi**

*K* harfining bajarilishida 3 ta element ishtirok etadi. Namunada ko'rsatilganidek, uch yosh toifasidagida ham elementlar ketma-ketligi bajarilgan.

Demak, umumiyliklar quyidagilarda ko'rinadi:

- ✓ harakatning qat'iy yo'nalishda emasligi (harf elementlar og'ish qat'iy emasligi salmoqli);
- ✓ husnixat asosida harakatning yo'nalganligi;
- ✓ harf elementlarining to'liq bajarilganligi;
- ✓ ortiqcha elementlarning yo'qligi;
- ✓ ayrim hollarda elementlarning uzunligi va kengligi.



**3.17-rasm. *K* harfining ifodalanishida yuqori yosh toifasidagi kishilar yozuvi**

Yuqori yosh toifasidagi kishilar yozuvi tahlil qilinganda namunalarda quyidagi xususiyatlar borligi aniqlandi:

- ✓ harflarning to'liq bog'lanmaganligi;
- ✓ elementlarning kamaytirilganligi;
- ✓ bosma yozuv uslubiga taqlid;
- ✓ harakat liniyasining, asosan, yuqori va o'ng tarafga yo'nalganligi.

Munosabat turini aniqlash uchun har bir birlikning semantik-mohiyati, kontekstual vaziyati tubdan o'rganiladi[111].

Bosma ko'rinishidagi matnlarda esa shaxsning yoshiga muvofiq bo'lgan xarakterli xususiyatlar jarangli undoshlarning jarangsiz undoshlar tarzda ifodalanishi bilan xarakterlanadi. Biz mikro-blok xabarlarini quyidagi xususiyatlariga ko'ra tahlilga tortdik.

[111]Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика [Текст]: учеб. пособие / А.Н.Баранов. – М., Флинта: Наука, 2007. – 592 с.

1) Noodatiy undosh harflarning qo'llanilishi.

2) Punktuatsion belgilarning qo'llanilishi.

3) Qo'shimcha belgilar (emoji, matematik belgilar)ning qo'llanilishi.

4) Qisqartmalarning qo'llanilishi.

Shu kategoriyaga muvofiq, kichik yosh toifasidagilar (10-12-20) xatlarida xarakterli xususiyat quyidagilar:

3.3-jadval

Kichik yosh toifasidagilar (10-12-20) xatlariga xos xarakterli xususiyatlari

| **Undoshlarning qo'llanilishi** | **Misol** | **Qisqartmalar** |
|---|---|---|
| *b-p* | *Aytp chiqipti hammaga* | *Ch-c*<br>*Ch-4* |
| *d-t* | *Min martalar ettim* | *Sh-w* |
| *x-h*<br>*h-x* | *-butun halqti allap yuripti*<br>*Xar kun aytaman, xech qachon bunaqa bumiydi* | *Bilan-bn* |
| *n-m*<br>*n-z*<br>*n-d* | *-ib ravishdoshi jarangsizlangan; o' harfi o tarzida ifodalangan* | *Uchun-un* |
| *Hayvonnn* | *N* harfining birdan ortiq ifodalanishi | *Dr* tawen-druzya |
| *Yurmisanmi* | *-ay* ravishdoshi *-i* tarzida qo'llanilgan | Fb-facebook |

Emotsiyalarning ifodalanishida ham undosh tovushlar muayyan darajada xizmat qiladi. Asosan, undov so'zlar tarkibida *-y, -x, -h, -ch, b , r, z* tovushlarining birdan ortiq qo'llanilishi turli emotsiyalar: g'azab, xursandchilik, afsuslanish kabilarni:

- *eyyyyy bunaqa gaplaga ishonmiman, qunduz amaki erteylari buyogi (hafsalasizlik ifodasidagi emoji);*
- *exxxeee bayramu uje, yilda bir marta bo'lar... (emoji);*
- *Uhhh tii neujeli ashnaqa buganmi (hayratni ifodalovchi emoji);*
- *Vachachch, akang kuchaydiiiii uje, akang kuchaydiiii*
- *Obbbo manvi shpatlyopkani bawarasini kuraman db kim ulyotudi (hafsalasizlikni ifodalovchi emoji).*

Xususan, quyida aynan kichik yosh toifasiga kiruvchi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining "komment"lariga diqqat qaratamiz:




**3.15-rasm. Kichik yosh toifasiga kiruvchi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining kommentlari**



". ҳам тўхталиб ўтди бу масалада"-деса тамом,бизникилар "ана ким гапирсам менга п****й деди"-деб муаммога даҳшатли тўн кийдиришмоқчи бўлишади.

29 мин. Нравится Ответить

**3.16-rasm. Ijtimoiy tarmoqlarda o'rta yosh toifasidagilar xatlarida uchraydigan imloviy xatolar**

Ijtimoiy tarmoqlarda o'rta yosh toifasidagi insonlar xatlarida imloviy xatolar kam ko'zga tashlanadi. Shuningdek, punktuatsion belgilarning pragmatik mazmunni ifodalashdagi roli yuqori. Kichik yosh toifasidagilarda "emoji"lar faol qo'llanishi orqali qo'shimcha ma'no ottenkasi ifodalansa, o'rta yosh toifasidagilarda tinish belgilarining ketma-ket qo'llanilishi pragmatik mazmunni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, noadabiy leksik birliklar, asosan, vulgar elementlarida unli tovushlar ifodalanmasdan, undosh tovushlar qisqartma orqali ifodalanadi. Yuqorida keltirilgan tarmoq xati fikrimizni dalillaydi.

O'quvchilarda yangi ko'nikmalarni qo'llash orqali ularda yuqori darajadagi yozish ko'nikmasi rivojlana boshlaydi. Miya tomonidan qo'l, bilak va barmoqlarning mushtarak harakati o'ziga xos yozuv uslubi shakllandi. Endilikda harf shakllarini ifodalashda individual belgilar qo'llana boshlaydi.

Shaxsiy xatlarning turi va tili o'rganilar ekan, bevosita uning tashkil etuvchilarini tahlilga tortish va shu asosida matn muallifi, uning hududiy xosligini aniqlash tilshunos-ekspertning asosiy vazifasidir[112]. Shaxsiy xatda tahdid, tahqir, kamsitish, da'vat kabi munosabatlarni aniqlash uchun uning tarkibiy qismlarining semantik qurilishi, ifoda xususiyati, noadabiy leksik, grammatik unsurlarning

[112] Mengliyev B.R., To'rayeva D.A. Methods of linguistic examination by anonymous letters in the uzbek language // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. http://berlinstudies.de/index.php/berlinstudies/article/view/29/29Volume 1, Issue 1.2, – Berlin, 2021. – P. 101-105.

ifodasi kabi xususiyatlariga e'tibor qaratiladi. Bunday xatlarni o'rganish, asosan, sud-huquq tizimiga aloqadordir[113].

3.4-jadval

Kichik va katta yosh toifasi xatlarida undoshlarning qo'llanishi

| Undoshlarning qo'llanilishi | Misol | Qo'llanilishi | |
|---|---|---|---|
| | | Kichik yosh toifasida | Katta yosh toifasida |
| b-p | *Aytp chiqipti hammaga* | 17 | 5 |
| d-t | *Min martalar ettim* | 18 | 4 |
| x-h | *-butun halqti allap yuripti* | 24 | 11 |
| h-x | *Xar kun aytaman, xech* | 21 | 9 |
| q harfining tushib qoldirilishi | *Ko'pro atrofidegilaga bog'lu* | 19 | 9 |
| n-m | *Ukammi* | 10 | 8 |
| n-z | *Sizzi xohishiyzga bogliqmas* | 10 | 6-7 |
| n-d, d-n | *Kundi shunnay boshladik* | 5 | 3 |
| n-p | *Qaynanam ko'ppi ko'rgan ayol* | 6 | 2-3 |
| n-l | *Ayolliyam erkelar blan huquqlari bir* | 7-12 | 6-9 |
| n-sh | *Boshshiyam ishlatib turish kerak* | 7 | 6 |

Ushbu jadvalda biz yuqorida ajratgan 4 guruhdan dastlabki va eng oxirgi guruhlarni saralab oldik va undosh harflarning gapda qo'llanilishiga diqqat qaratdik.

1. Asosan, so'z qaysi harf bilan tugasa, shu harf bilan boshlanuvchi qo'shimchaning qo'llanilishi yuqori.


[113]To'rayeva D.A. O'zbek tilidagi anonim xatlarning milliy korpus asosidagi tahlili, o'rni, ahamiyati // International journal of world languages. http://www.ejournals.id/index.php/IJWL/article/view/177/163. Volume 1, No. 2, – Polsha, 2021. – P. 7-15.

2. Jaranglilarning jarangsizlarga almashinishi holatining yozma nutqda ham aks etishi bilan bog'liq adabiy me'yordan chekinish holati yuqori (Masalan talaffuzda *ketti*, yozuvda ham *ketti* tarzida ifodalanishi).

3. *x-h* tovushlarining talaffuzda farqlanmasligi natijasida yozuvda ham aynan shu tarzda ifodalanishi ikki yosh kategoriyasida ham salmog'i yuqori.

4. Yo'l qo'yilgan adabiy me'yordan chekinish holatlari yuqori yosh toifasi xatlarida kam, kichik yoshdagilarda esa ko'p.


**1-matn: Ekspertiza uchun taqdim etilgan matn**



**Matnning to'liq ko'rinishi**

*Xurmatli S.B Ketdi bitta o'rindiqa yopishtirmasdan uyoq buyoqa xam chiqish kerak sovding bormi o'zi yoki oynakchangni j...lani tomosha qilish uchun taqib olganmisan, IT! Anu yiordamching gaykangga et, laychaligini o'zidan boshqa hamma biladi. Xaromtovoq ikalang TERPILA laychang dumini likillatmay boshqa joydan is osin bilib qo'ylaring san uchalang xarom xarisuh ishlaringni bilaman bugalteling kazyol laychang san it.....ga enagni kursataman Vidingxam zapising xam bor san S... endi qulimda o'ynaysan! Terpit qilishni o'rganasan yeganingni qusasanlar.*

**2-matn. Erkin namuna.**



| Ilg'or tajribadagi yangiliklar | O'rganish muddati |
|---|---|
| Молумий илгор | |
| тажрибаа асосида | Илгор |
| ўкувчиларни онги | тажриба |
| ўзига тортишга | асосида |
| ҳаракат | ўкувчини |
| онги оригида | 7 ой ичида |
| ўсиларнинг билим | ош муқим |
| кўникма малака | ўзлаштириш |
| ошиш шакли | тўғрисида |
| ўзун оғиз | ўлтиришга |
| Илгор тажрибани | ва тайёр |
| ишлаб чиқиш | иш. |

**3-erkin namuna. Xodimlar ro'yxati.**

**Ekspertiza uchun quyidagilar taqdim etildi:**

– anonim xat 1-matnda;

– namuna uchun hujjat qismi.

**Ekspertiza savollari:**

1. Anonim xat muallifi hamda A yoki B namunalar muallifi bir shaxsmi?

2. Anonim xatda muallif identifikatsiyasini aniqlashga yordam beruvchi leksik, grammatik, fonetik unsurlar mavjudmi?

3. Matn muallifining shaxsiy xususiyatlarini aks ettiruvchi jihatlar mavjudmi?

4. Anonim xat va namunalarda umumiy jihat mavjudmi?

5. Ikkala matnda umumiy jihatlar mavjudmi?

6. Matnlarda takrorlanuvchi leksik, grammatik xususiyatlar mavjudmi?

**Anonim xat bo'yicha lingvistik ekspertiza xulosasi**

**Kirish:**

(Anonim xatni ekspertiza qilish uchun buyurtma bergan yuridik shaxs manzili, vakolat berilish sanasi va hujjat raqami, namunalar (agar mavjud bo'lsa, ilova qilinadi) ekspertiza o'tkazuvchi shaxsning ism-familiyasi, ish staji, ish joyi singari ma'lumotlar aks ettirilishi lozim).

Taqdim etilgan matnlar norasmiy uslubda yozilgan. Xatning uzunligi muallif identifikatsiyasi haqida ko'proq ma'lumot olishga yordam beradi. Anonim xat A4 formatidagi qog'ozga, oddiy ruchkada, aralash bosim (kuchli va o'rta). Harakat

liniyasi qisman o'ngga yo'nalgan. Matn muallifning leksik-frazeologik, sintaktik, uslubiy, imlo va punktuatsiya mahoratining o'rta darajada rivojlanganligini aks ettiradi.

Namunalarni solishtirish jarayonida aynan leksik, grammatik, fonografik xususiyatlarni taqqoslashning imkoniyati kamligi aniqlandi. Sababi 3 ta namuna mavzu va mazmun jihatidan bir-biridan farq qiladi. Shu boisdan tekshirish 3 bosqichda tashkil etildi:

1-bosqich: yozuvning texnik xususiyatlari, shakliy belgilarini taqqoslash;

2-bosqich: orfografik, punktuatsion va uslubiy xatoliklarni taqqoslash;

3-bosqich: anonim xatning leksik, grammatik, fonografik xususiyatlarini tahlil qilish.

**Yozuvning texnik xususiyatlari**: kirill yozuvida, qog'ozga yuqori bosim bilan o'zgaruvchan harakat dinamikasida yozilgan. Anonim xatda to'liq bitta ruchkadan foydalanilgan. Muallif haqida yaqqol xabar beruvchi daliliy ma'lumot yo'q (imzo, ism-familiyaning qisqartma shakli va h.k.). Harflarning bajarilish ketma-ketligi barqaror emas.

**Punktuatsion jihatlari**: tinish belgilari qoldirilgan (qasddan yoki savodxonlik darajasining pastligi, ayrim hollarda nutqni tezda yakunlashga intilish, shoshilinch holatlarda tinish belgilari qo'yilmaydi (kuzatishlarga muvofiq).

Undov belgisidan faol foydalanilgan – emotsiyalarni ifodalash, gapning mazmunini yanada bo'rttirish maqsadida.

Vergul, nuqta belgilari tushirib qoldirilgan, deyarli qo'llanilmagan.

Tinish belgilarining qo'sh holatda qo'llanilishi uchramaydi.

**Jinsi**: qo'pol so'zlarning ishlatilishi, nutqning qisqaligi va aniqlikka yo'nalganligi erkaklar nutq uslubiga xos. Ayollar, asosan, uzunroq jumlalardan foydalanishadi, haqorat semasiga ega so'zlar ayollar nutqida o'rta darajada va ketma-ketlikda qo'llaniladi: "...*san it, mol, eshak, xaromdan hazar qilmaydigan...* " tarzda. Erkak kishining nutq uslubiga yaqin.

**Ta'lim:** savodxonlikning past darajada rivojlanganligi.

**Matn yozuvchining yoshi:** yosh xususiyatini aniqlashtirishda sifat va miqdoriy tahlil, komponent tahlil qilish, konseptual va kontekstual tahlil metodlariga tayanildi.

Dastlab, matn quyidagicha komponentlarga ajratib chiqildi:

1-leksik-frazeologik jihatdan "signal" so'zlar: *ketdi, j...., anu, et, IT, xaromtovoq, gayka, laycha, terpila, is osin, kazyol, video, zapis. S...*;

2-grammatik jihatdan "signal" so'zlar: *ketdi -ni* qo'shimchasining *-di* tarzida yozilishi, *bilib qo'ylaring* buyruq-istak maylining *-lar* affiksi orqali tahdid, hurmatsizlik ma'nolarida qo'llanishi, *terpet qilishni* adabiy me'yorga nomuvofiq valentlikning yuzaga kelishi, xatboshilarning mutlaqo yo'qligi;

3-ifodalanish jihatdan asosiy belgilar: *n* harfining *d* tarzda ifodalanishi; *q* tovushi tushishi *o'rindiq; a, r* tovushi tushishi *-la*; *g* tovushi tushishi *gaykanga, l* tovushi tushishi – *osin*; *e* ning *a* tarzda ishlatilishi: *sen-san; o'* ning *u* tarzda ifodalanishi: *o'rganasan-urganasan.*

4-shakliy jihatdan asosiy xarakterli belgilar: yozuv tempining yuqoriligi, harakat yo'nalishining barqaror emasligi, harflarning to'liq bog'lanmaganligi, harflardagi elementlarning kamaytirilganligi, shakliy jihatdan qirrali yozuv. (aylanali, o'ramli, gajakdor bo'lishi mumkin). Nishablik qisman o'ngga, qisman, yuqoriga. Titroqlar mavjud: *r, s* harflarining yozilishida.

Kontekstual va konseptual tahlil:

*Ketdi bitta o'rindiqa yopishtirmasdan* – shaklan bir joyda o'tirmasdan, mazmunan hech ish qilmasdan, qotib turmasdan. (kesatiq ma'nosida)

It – hayvonga nisbat berish, haqorat semasiga ega.

Gayka – texnik qism, matnda yordamchi ma'nosida.

Laycha – hayvon, haqorat semasida.

Terpila – haqorat semasi yuqori.

Xaromtovoq – varianti: haromtomoq, tovog'i harom taomga to'lgan, harom yeyuvchi kishi.

Kazyol – haqorat semasiga ega.

S.... – kuchli haqorat semasiga ega.

**Yoshga xos xususiyatlarini aniqlash uchun sifat va miqdoriy tahlil:**

Bunda matnda qo'llangan adabiy me'yordan chekinish holati kuzatilgan lingvistik birliklar turli yosh kategoriyasida qo'llanishiga ko'ra 27 ta umumiy belgi faol, nofaol, o'rtacha faol, o'rtacha nofaol kategoriyalarga ajratib chiqildi va quyidagicha kodlashtirildi:

Faol: +

Nofaol: -

O'rtacha faol: +, - (qo'llaniladi, ammo faol emas)

O'rtacha nofaol: -, + (qo'llaniladi, ammo kamdan kam)[114]

Tahlillarni amalga oshirish jarayonida telegram messenjeridan 16 ta guruhdan 3000-4000 atrofidagi xabar ko'rib chiqildi. Kundalik muloqotda do'stlar, turli hudud vakillari, turli ijtimoiy qatlamga oid shaxslar xatlari tahlilga tortildi. Ulardan yuqorida ta'kidlangan birliklarning qo'llanilish chastotasi yuqori. Bundan tashqari, nofaol, ammo xatlarda uchrovchi noadabiy leksik birliklardan quyidagilarni sanash mumkin: *yuredan, addushi, baloni uqi, chibruwaka, seryoz, norm (norma, normalni, normalniy o'rniga).*

**Telegram messenjeridan (10-20):**

**X shaxs**: *e tre, k..t;*

**Y shaxs** *:laycha sanga gapirmadm.*

**X shaxs:** *Uzura, xaa nastrinyam yaxshimas.*

**Y shaxs :** *terpt qilw yaxshimas.*

**10-20 yosh toifasida belgilar ko'rsatkichi**

Faol: + (9 ta) 33%.

Nofaol: - (13 ta) 48%.

O'rtacha faol: +,- (qo'llaniladi, ammo faol emas) (2 ta) 7%.

O'rtacha nofaol: -,+ (qo'llaniladi, ammo kamdan kam) (3 ta) 11%.

**21-30 yosh toifasida belgilar ko'rsatkichi**

Faol: + (20 ta) 74%.

Nofaol: - (3 ta); 11%.

---

[114] * 2-ilova.

O'rtacha faol: +, - (qo'llaniladi, ammo faol emas) (3 ta) 11%.

O'rtacha nofaol: -, + (qo'llaniladi, ammo kamdan kam) (3 ta) 11%.

**31-45 yosh toifasida belgilar ko'rsatkichi**

Faol: + (21 ta) 77,7%.

Nofaol: - (3 ta) 11%.

O'rtacha faol: +, - (qo'llaniladi, ammo faol emas) (3 ta) 11%.

O'rtacha nofaol: -, + (qo'llaniladi, ammo kamdan-kam) (2 ta) 7,4%.

**50 va undan yuqori yosh toifasida belgilar ko'rsatkichi**


Faol: + (13 ta) 48%.

Nofaol: - (2 ta) 7,4%.

O'rtacha faol: +,- (qo'llaniladi, ammo faol emas) (6 ta) 22%.

O'rtacha nofaol: -,+ (qo'llaniladi, ammo kamdan-kam) (6 ta) 22%.

Bunda faollik ko'rsatkichi, qo'llanilgan birliklarning qaysi yosh toifasida ko'proq qo'llanishini ifodalaydi. Natijalarga muvofiq, faollik ko'rsatkichi 4 guruhdagi yosh toifasida quyidagicha o'rin egallaydi:




**3.17-rasm. Anonim xatda belgilarning qo'llanishidagi faol ko'rsatkich**

Ko'rinadiki, anonim xatda belgilarning qo'llanishidagi faol ko'rsatkich 20-30 va 30-45 yosh oralig'idagilarga to'g'ri keladi. Biroq 30-45 nisbatan yuqoriroq

ko'rsatkichni ifodalagan. Demak, anonim xat muallifining taxminiy yoshi borasidagi xulosa quyidagicha:

- ✓ Anonim xat muallifi 10-20 yosh toifasida bo'lishi mumkin emas;
- ✓ 20-30 yosh toifasida bo'lishi mumkin;
- ✓ 31-45 yosh oralig'ida bo'lishi ehtimoli yuqori;
- ✓ 50 va undan yuqori yosh toifasida bo'lishi ehtimoli kam.

Albatta, lingvistik ekspertiza natijasida olingan xulosa, sud yoki ekspertiza tayinlagan yuridik shaxs yoki vakolatli organning yakuniy xulosasi bo'lib xizmat qilmaydi. Biroq ekspertiza jarayonini samarali tashkil etish, dalillarni oydinlashtirish, gumonlanuvchilar haqidagi fikrlarga aniqlik kiritishda yordam beradi. Lingvist-ekspert vakolati doirasida matnni ekspertizadan o'tkazadi. Matnning tergov, surishtiruv va qidiruv jarayonlari bilan vakolatli organ shug'ullanadi.

**Bob bo'yicha xulosa**

1. Qo'lyozma ko'rinishidagi anonim xatlarda umumiy va individual xususiyatlar shaxsning yozuv malakasigagina bog'liq bo'lmasdan tashqi muhit, ruhiy-fiziologik holat, jismoniy holat, kasallik, keksalik singari omillar bilan ham bevosita bog'liq. Axborotni qayta ishlash jarayonida kichik yoshdagi kishilarda tezkorlik, noadabiy birliklardan foydalanish, nutq strategiyasining tartibsiz qurilishi holati kuzatiladi.

2. Qo'lyozma matnlarni tahlil qilishda grafologik va ekspertologik yondashuvlar mavjud bo'lib, grafologiya yozuvga qarab shaxs xarakterini aniqlashga asoslanadi. Ekspertologik yondashuv esa qo'l yozuvi bilan bog'liq sud jharayonida yuzaga keladigan muammoli savollarga javob topishni nazarda tutadi.

3. Unlilarning ifodalanishidagi xarakterli xususiyatlardan biri sifatida ularning birdan ortiq qo'llanishini aytish mumkin. Bunday holat 20-30 va 31-45 yosh oralig'ida nutqning ekspressivligini yanada oshiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

4. Keksa yosh toifasida to‘xtamlar, so‘zlarning bog‘lanish oralig‘i ancha uzun. Og‘zaki nutqda to‘xtamlar oralig‘i unlilarning birdan ortiq talaffuz qilinishi bilan bog‘lanadi. Yozma nutqda esa bu xususiyat aks etmaydi.

## XULOSA

1. Anonim xatlar bo'yicha amalga oshiriladigan lingvistik ekspertizalar bir vaqtning o'zida ham lingvokriminalistika, ham lingvistik ekspertiza obyekti bo'lishi mumkin. Lingvokriminalistikaning aynan kriminalistika bilan bog'liq soha ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, uning chegarasi tor ekanligini ko'rish mumkin. Lingvistik ekspertiza atamasi esa jarayon va shu jarayon bilan bog'liq yo'nalishni anglatadi. Mohiyatan keng bo'lgan lingvistik ekspertizaning tadqiq obyektlaridan biri sifatida anonim xatlarni aytish mumkin.

2. Anonim xatlar muallif atributlari matnning texnik va lingvistik xususiyatiga ko'ra jinsi, kasbi, muayyan hududga mansubligi, ruhiy-fiziologik holati, jismoniy holati, yoshi singari jihatlarni aniqlashga qaratilgan.

3. Noadabiy leksik birliklarning qo'llanishi tabiiy jarayon bo'lmay, ijtimoiy jarayonni ifodalaydi. Shaxs yoshining ulg'ayib borishi bilan uning nutqi tashqi ta'sirga muvofiqlashib boradi. Kichik yoshdagilar va o'smirlar nutqida noadabiy leksik birliklarning haqorat semasini ifodalovchi shakllari ongsiz tarzda ishlatiladi. Bu axborotning to'g'ridan to'g'ri nutqqa uzatilishini ifodalaydi.

4. Noadabiy leksik birliklarning qo'llanishiga obyektiv va subyektiv omillar ta'sir ko'rsatadi. Obyektiv omillar sirasida atrof-muhit, salomatlik bilan bog'liq xususiyatlarning nutqiy jarayonga ta'siri nazarda tutiladi. Subyektiv omillarda esa bevosita insoniyat ta'siri natijasida yuzaga keluvchi leksik birliklar ifodalanadi.

5. Lingvistik ekspertizada anonim xatlar muallifining taxminiy yoshini aniqlashda noadabiy birliklar "kalit" vazifasini bajaradi. Shu boisdan ekspertizani ikki bosqichda tashkil etish mumkin. Birinchi bosqich: "Scanning" (matnning texnik holatini ko'zdan kechirish, dastlabki qarashda ko'zga yaqqol tashlanadigan belgilarni ajratish, matnning hajmini baholash) hamda ikkinchi bosqich: "Skimming" (matnni to'liq tarzda, ya'ni ham texnik, ham lingvistik xususiyatlariga ko'ra tahlil qilish, o'xshashliklarni baholash, tafovutlarni aniqlash).

6. Leksik, grammatik, fonografik jihatdan adabiy me'yordan chekinish holatlari ko'proq kichik yoshdagi insonlarning xatlarida qo'llaniladi. Ushbu yosh

toifasidagi insonlar talaffuz etilgan holatda birliklarni yozma nutqda aks ettirishadi. Yozma nutqda xatoliklarning yuzaga kelishi kichik yoshdan yuqori yoshga qadar kamayib borish jarayoni bilan xarakterlanadi.

7. Keksa yoshdagi insonlar axborotni qayta ishlash jarayonida leksik, grammatik, fonografik jihatdan adabiy me'yorga nomuvofiq shakllarni ko'proq qo'llaydi. Bu esa fiziologik holat va neyrosistema bilan bog'liq bo'lib, ularning yozma nutqida bunday xatoliklarning qo'llanishi qolgan yosh guruhidagilarga nisbatan kam.

8. Lingvistik ekspertizada muayyan hudud vakili, ayol yoki erkakligi, xasta yoki sog'lomligiga ko'ra matn tahlilining tashkil etilishi turlicha bo'ladi. Shu boisdan anonim xat muallifining aynan yoshini yuqorida ko'rsatilgan omillar bilan qorishiq tarzda aniqlash mumkin. Biroq har doim istalgan matn muallifining yoshini mutlaq haqiqat bilan isbotlab bo'lmaydi. Demak, lingvistik belgilarga muvofiq muallifning taxminiy yoshini, ya'ni kichik, o'rta, o'rtadan yuqori yoki keksa tarzida belgilash mumkin va bu gumonlanuvchilar doirasini qisqartirishga xizmat qiladi.

9. Ushbu tadqiqot bevosita anonim xatlar muallifini aniqlashga emas, balki shaxsiy yozishmalar tahlili orqali anonim matn muallifini aniqlashning mezonlari, tamoyillari, bosqichlari, bir so'z bilan aytganda, metodik yondashuvni ishlab chiqishga qaratilgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodik ahamiyatga molik asarlar:


1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови // Куч адолатда, 2016 йил 8 декабрь, № 47.

2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва швхсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак // "Халқ сўзи" газетаси. 2017-йил 16-январ сони.

3. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuni. 924-XII. 1993-yil 2-sentabr.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi "Sud-huquq tizimini isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-son Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4125-son qarori.

6. O'zbekiston Respublikasining "Jinoyat protsessual, Xo'jalik protsessual va Fuqarolik kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 1-2 son, 11-modda.

7. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2011-y., 9-10 son, 168-modda.

8. O'zbekiston Respublikasi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2010-y.22-son, 173-modda.

9. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. O'zbekiston

Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlari to'plami. 1991-2006. T. 2. – Toshkent, 2007. – 169-176 b.

## II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

### 1) Milliy nashrlar

10. Alimova R., Otaxo'jayev S. Sud ekspertizasini tashkil qilish va o'tkazish masalalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – 131 b.

11. Astanov I.R. Jinoyat ishlari bo'yicha ekspertiza o'tkazish. Nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDYU, 2011. – 130 b.

12. Astanov I.R. Zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlar va ularni tergov qilishning o'ziga xos jihatlari // Mas'ul muharrir: y.f.d. G.Z.To'laganova. – Toshkent: TDYU, 2012 – 140 b.

13. Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепсиясининг психолингвистик тадқиқи. – Тошкент, 2017. – 160 б.

14. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1985. – 200 б.

15. Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. – Тошкент: Фан, 2007. – 78 б.

16. Эргашева М. Тилшуносликнинг замонавий йўналишлари: Илмий-услубий қўлланма. – Тошкент, 2019. – 94 б.

17. Исмоилова Н., Аввалбоева Д. Ижтимоий психология: Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2013. – 124 б.

18. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 256 б.

19. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. – 180 б.

20. Қўчқортоев И.Қ. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977. – 205 б.

21. Саидов А., Саркисянц Г. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Адолат, 1994. – 138 б.

22. Zakurlayev A.K., Bazarova D.B. va boshqalar. Kriminalistika. Darslik. – Toshkent: TDYUU, 2015. – 553 b.

23. Зикриллаев Ғ.Н. Феълнинг шахс, сон, хурмат категорияси системаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 110 б.

24. Шахабитдинова Ш., Рустамов Д., Попов Д., Рустамова Д., Абдуллаев Б., Миралимова Ш. Оммавий лисоний маданият. – Андижон: Step by step print, 2020. – 150 б.

**2) Xorijiy nashrlar**

25. Аверъяиова Т.В. Судебная экспертиза. Курс общей теории [Текст] / Т.В.Аверъянова. – М.: Норма, 2009. – 480 с.

26. Allan Keith, Burridge Kate. Forbidden words: taboo and the censoring of language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 314 p.

27. Алтунян А.Г. Анализ политических текстов / Алтунян А.Г. Анализ: учебное пособие [Текст] А.Г.Алтунян. – 2-еизд. – М.: Логос, 2010. – 384 с.

28. Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста теория и практика [Текст]: учеб. Пособие / А.Н.Баранов. – М.: Флинта, Наука, 2007. – 592 с.

29. Бринев К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза. Моиография. – Барнаул: Алт. ун-та, 2009. – 252 с.

30. Bromby M.C. (2002) The Role and Responsibilities of the Expert Witness within the UK Judicial System, dissertation presented for the Diploma in Forensic Medical Science. Available online at: www.caledonian.ac.uk/lss/global/contactmaps/staff/bromby/DipFMSDissertation.pdf. (accessed 9 January 2008)

31. Будаев Э.В., Ворошилова М.Б., Руженцева Н.Б. Эволюция лингвистической экспертизы: методы и примеры. Монография. – М.: Флинта, 2019. – 264 с.

32. Dmitry V. Bakhtee V Forensic examination of anonymous handwritten documents in order to obtain data on the identity of their author and performer.

ORCID: 0000-0002-0869-601X. Criminalistics Department Ural State Law University Yekaterinburg, Russia. P-11.

33. Eades B.D. Lnguage in evidence: Linguistic and legal perspectives in Multicultural Australia, Sydney: University of New South Wales Press, 2006. – 175 p.

34. Галяшина Е.И. Назначение, производство и оценка заключения судебной лингвистической экспертизы. – М., 2002. – 151 с.

35. Галящина Е.И. Лингвистика и экстремизма В помощ судъям, следователям, экспертам текст / Е.И.Галяшина. – М.: Юридический Мир, 2006. – 96 с.

36. Гильдия лингвистов-экспертов по документационным и информационным спорам. URL: http://rusexpert.ru/uslugi/lingvokonfliktologia.html (дата доступа 1.12.2019).

37. Golev N.D. Acute Problems of forensic Linguistic Expertise. Jurislingvistika-3–Trial Linguistic Expertise. – Barnaul, 2002. – 29 p.

38. Coulthard M. and Johnson A. Introduction to forensic linguistic. book. – New York: Routledge, 2007. – 250 p.

39. Горбаневский М.В. Вступление: Словом можно убить, словом можно спасти...// Спорные тексты СМИ и судебные иски Публикации. Документи. Экспертизы. Коммеитарии лингвистов / Под ред. проф. М.В.Горбаневского. – М.: Престиж, 2005. – 152 с.

40. Grant. T. D. Forensic linguistics and the delivery of justice. Book. – Birmingham: Linus. – 128 p.

41. Grachev M. A. Problems of formation and the formation of language minoriyas science// Bulletin of the Nizhny Novgorod state University n.a.N.A Lobachevsky. 2010. - № 4 (2). – P. 499 .

42. Грачев М.А. Судебно-лингвистическая экспертиза. – Москва: Флинта, Наука, 2016. – 357 с.

43. Изотова Т.М., Кузнецов В.О., Плотникова А.М. Судебная лингвистическая экспертиза по делам об оскорблении. – М., ФБУ РФЦСЭ при мин. России, 2016. – 90 с.

44. James Deborah. F You Cancer. – Vermilion, 2018. – 272 p

45. James T. An introduction to forensic science:the sciences of criminalistics. 2007-2012. – p. 20.

46. Карлин И.П. и др. Основы криминалистической экспертизы материалов, веществ и изделий. – М., 1993. – 58 с.

47. Кусов Г.В. Судебная лингвистическая экспертиза понятие, принципы, процессуалъное значение. Монография [Текст] / Г.В.Кусов. – Краснодар: Издателъский Дом – ЮГ, 2012. – 135 с.

48. Кузнецов С.А., Оленников С.М. Экспертные исследования по делам о признании информационных материалов экстремистскими: теоретические основания и методическое руководство (научно-практическое издание). 2-е изд., испр. и доп. – М.: В. Ема, 2014. – 312 с.

49. Лазарева Л.В. Специальные знания и их применение в доказывании поуголовному делу Текст / Л.В.Лазарева. – М.: Юрлитинформ, 2009. – 224 с.

50. Mengliev B., Sobirova Z. Some issues related to the transfer of english tourism terms in uzbek language \\ JOURNAL OF CRITICAL REVIEWS. ISSN-2394-5125 VOL 7, ISSUE 15, 2020 \\ http://dx. doi. org/10. 31838/jcr. 07. 14. 194.

51. Olsson John. Word Crime. Solving crime through forensic linguistics. – NY.: Continum, 2009. – 209 p.

52. Solan L.M., Tiersma P.M. Speaking of Crime: The Language of Criminal Justice. – Chicago and London: The University of Chicago Press, 2005. – P. 40-46.

53. Соболева Т.А. Товарные знаки / Т.А.Соболева, А.В.Суперанская. – М.: Наука, 1986. – 200 с.

54. Стернин И.А, Антонова Л.Г., Карпов Д.Л., Шаманова М.В., Основные понятия лингвокриминалистической экспертизы. – Ярославль. 2013. – 82 с.

55. Цена слова: из практики лингвистических экспертиз текстов СМИ в судебных процессах по защите чести, достоинства и деловой репутации / под ред. М.В.Горбаневского. 3-е изд., испр. и доп. – М.: Галерея, 2002. – 424 с.

**III. Dissertatsiya va avtoreferatlar**

56. Абдураимова Ш.К. Сўз ўзлаштириш назарияси ва ўзлаштирмаларнинг вақтли матбуот тилида ўзгара бориши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1995. – 21 б.

57. Аблин М.В. Теоретико-методологическое обоснование лингвистической экспертизы по делам об экстремизме: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – УФА, 2016. – 162 с.

58. Azizova N.A. Talabalar nutqining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyati: Magistr … diss. – Qarshi, 2013. – 14 b.

59. Алпанова Ш.Ҳ. Нуткий фаолият жараёнидаги руҳий ҳолатларнинг ўзбек тилининг турли сатҳ бирликлари воситасида акс этиши: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2018. – 156 б.

60. Бринев К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Кемерово, 2010. – 62 с.

61. Гулямова Ш.Қ. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хосланиши: Филол. фан. б. фалс. докт. ... дисс. автореф. – Бухоро, 2020. – 62 б.

62. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулокот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – 118 б.

63. Касымова М. Структурно-системные особенности юридической терминологии узбекского языка: Дисс. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – 172 б.

64. Каримова Л.А. Правовые и нравственные аспекты законов о языке: Дисс. … канд. юрид. наук. – Ташкент, 1991. – 164 с.

65. Кўчимов Ш.Н. Ўзбекистон Республикаси қонунларининг тили (Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Жиноят кодекси, Жиноят-

процессуал кодекси асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 165 б.

66. Мадрахимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серқирралиги ва уни таснифлаш асослари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994. – 141 б.

67. Муйдинов Қ.А. Ўзбек тили суд нутқи лексикаси: Филол. фан. б. фалс. фан. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 145 б.

68. Nicola-Jane Smith. A stylistic analysis of written language behaviour with practical application to anonymous threat letters. Doctor of Philosophy. Autoref. ... diss. Psychology Department University Of Surrey September, 1996. – p. 33.

69. Nini A. Authorship profiling in a forensic context. Doctor of Philosophy. Autoref. ... diss. – March, 2004. – 250 p.

70. Қаюмова К.Н. Предикативликнинг синтактик-семантик хусусиятлари (халқаро ҳуқуқ ҳужжатлари инглиз, ўзбек ва рус тиллари материаллари қиёсий таҳлили асосида): Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 54 б.

71. Турсунова О.Ф. Ўзбек давлатчилиги тарихида қўлланилган ҳуқуқий терминларнинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 245 б.

72. Зиянгирова Е.Л. Основные тенденции развития терминилогического инструментария метаязыка юрислингвистики: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Москва, 2008. – 62 с.

73. Ғуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 216 б.

**IV. Ilmiy to‘plam, gazeta va jurnaldagi maqolalar**

74. Ажнюк Л.В. Типологія об’єктів лінгвістичної експертизи і методика їх дослідження / Леся Вікторівна Ажнюк // Мовознавство. 2016. – № 3. – С. 6.

75. Александров А.С. Юридическая техника – судебная лингвистика – грамматика и права // Проблемы юридической техники Сборник статей. Под.ред. В.М. Баранова. – Нижний Новгород, 2000. – С. 37-48.

76. Арутюнов А.С. Методология производства судебной лингвистической экспертизы с целью установления проявлений экстремизма // Общество и право. – 2019. – №2 (68). – 80 с.

77. Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста / А.Н.Баранов. – М.: Флинта, 2007. – 592 с.

78. Боидаренко Е.И. Анализ речевой стратегии дискредитации в лингвистической экспертизе (на примере интернет-кооментария) // Филологические науки. Вопросы, теории и практики. – 2014. – №10-1(40) – С. 27-29.

79. Cohen R. Language and Conflict Resolution: The Limits of English// International Studies Review. 2013. – Vol. 3. – № 1.

80. Голев Н.Д. Взял для себя все // Юрислингвистика-5. Юридические аспекты права и лингвистические аспекты языка Сб. научных трудов / Под ред. Н.Д.Голева. – Барнаул:Алт.ун-та, 2004. – С. 246-251.

81. Голев Н.Д. об объективности и легитимности источников лингвистической экспертизы / Голев Н.Д. // Юрислингвистика-3. Проблемы юрислингвистической экспертизы Межвузовский сборник научных трудов / Под.ред. Н.Д. Голева. – Барнаул: Изд-во Алт.ун-та, 2002. – С. 5–14.

82. Dmitry V., Bakhtee V. Forensic examination of anonymous handwritten documents in order to obtain data on the identity of their author and performer. ORCID: 0000-0002-0869-601X. Criminalistics Department Ural State Law University Yekaterinburg, Russia. – P. 11.

83. Houtman and Suryati. The History of Forensic Linguistics as an Assisting Tool in the Analysis of Legal Terms//Sriwijaya Law Review □ Vol. 2 Issue 2, July (2018) – P. 215.

84. Ivanishcheva O.N., Bolgova E.B., Shadrina I.M., Gushchina A.V., Nikonov S.B. Insult as a Linguistic and Legal Phenomenon//International Journal of Engineering & Technology. 2018. – P. 217–218.

85. Кукушкина О.В. Методы анализа, применяемые в судебной лингвистической экспертизе. // Теория практика судебной экспертиз. № 1(141)2016. – С. 118-126.

86. Кубрякова Е.С. Об одном фрагменте концептуального анализа слова память // Логический анализ языка. Культурные концепти. – М., 1991. – С. 85-88.

87. Marina Terskikh. Advertising texts as a linguistic expertise object. // Articlein Neophilology January 2018 ISSN 2587-6953. Neophilology, 2018, vol. 4, no. 16.

88. Mengliev B., Karimov R. Theoretical fundamentals of uzbek-english parallel corpus \\ JOURNAL OF CRITICAL REVIEWSISSN- 2394-5125 VOL 7, ISSUE 17, 2020. – 26 p.

89. Musulmonova K. Lingvistik ekspertiza tahlil bosqichlari mazmuni. // Obshestvo inovatsi, 2(1/S), 2021. – P. 227-232.

90. Saidova F. Mustaqillik davri o‘zbek tilshunosligi terminologiyasidagi o‘zgarishlar // “Ozbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari” mavzusidagi anjuman materiallari. Toshkent, 2020. – 438 b.

91. Subhankar Ghosh, Palaiahnakote Shivakumara, Prasun Roy, Umapada Pal and Tong Lu. Graphology based Handwritten Character Analysis for Human Behavior Identification. // IET Research Journals CIT, 2019. – P. 2-4.

92. Turayeva D.A. Linguistic expertise as a branch of legal linguistics//Academicia vol-10p.

93. Юсупов У. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурема атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. – Тошкент, 2011. – Б. 49-55.

94. Зияев А. Сўз маъноси интенсивлиги ва лингвокультурология // Инглиз тилида сўз маъноларини кучайтиришнинг когнитив талкини. Услубий кўлланма. – Фарғона, 2011.

95. Shabanov M.M. (2010), Osobennosti provedeniya sudebnoi lingvisticheskoiekspertizy po delam ob oskorblenii [Peculiarities of Carrying out Forensic Linguistic Expertise in Insult Cases]. // Vestnik Dagestanskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya 2: Obshchestvennye nauki, 2. – 175-179 c.

96. Shakhnoza Gulyamova, Bakhtiyor Mengliev. Lexical-semantik classification of euphemisms of the feminine gender in the Uzbek language // Academia Open. Vol 1. No 1. 2019: JuneArticles.

**V. Internet saytlari**

97. https://ceur.ru/library/articles/lingvisticheskaja jekspertiza /item_12881/4.

98. http://www.ling-expert.ru/conference/langlaw5/abbasasova-la.html

99. https://www.iafl.org/join/

100. https://z-lib.org/

101. https://sudexpa.ru/cases/?expertise=1356

102. https://akinina-lingexpert.ru/poleznoe/primery-zakluchenij/

103. http://elar.uspu.ru/bitstream/uspu/5938/l/uch00134pdf

104. https://www.researchgate.net/publication/272372434_Forensic_Linguistics_A_Brief_Overview_of_the_Key_Elements

105. https://prostudio.ru/journal/Russian-insulting/

106. http://www.russki-mat.net_slovar.htm

## ILOVALAR:

**1-ilova.** Lingvistik ekspertizada ishlatiladigan ayrim atamalarning izohi.

**Fonoskopik ekspertiza:** - Magnit tasmlariga, ovopz yozish uskunalariga yozilgan yoki telefon qo‘ng‘iroqlari yozilgan og‘zaki nutqni o‘rganish, tahlil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ekspertiza. Fonoskopik ekspertiza obyekti munozarali fonogrammalardir. Sud-fonoskopik ekspertizasi quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- yozilgan og‘zaki nutq orqali shaxsni aniqlaydi;
- nutqda shaxsning xususiyatlarini tavsiflaydi (jinsi, yoshi, hissiy holati);
- munozarali fonogrammaning so‘zma-so‘z mazmunini belgilaydi (shu jumladan, munozarali fonogrammaning nusxalarini belgilaydi);
- fonogrammada tahrirlash belgilarining mavjudligi / yo‘qligi va boshqalarni belgilaydi.

Fonoskopik tekshiruv akustik tomonidan amalga oshiriladi va munozarali fonogrammaning lingvistik tahlili bilan birlashtiriladi.

**Grafologiya** – bu yozuvchini aniqlash, yozish vaqtidagi psixologik holatni ko‘rsatish yoki shaxsning xususiyatlarini baholash uchun jismoniy xususiyatlar va qo‘l yozuvi naqshlarini tahlil qilish. Grafologiyani qo‘llab-quvvatlovchi hech qanday ilmiy dalillar mavjud emas va bu odatda psevdologiya deb hisoblanadi yoki ilmiy jihatdan shubhali amaliyot sifatida baholanadi. Biroq u Fransiyada keng qo‘llanilmoqda va tarixda ba'zi sud ishlarida foydalanish uchun qonuniy hisoblanadi. Ba’zan bu atama sud hujjatlari ekspertizasini o‘tkazish uchun noto‘g‘ri ishlatilgan, chunki qo‘lda yozilgan hujjatlarni o‘rganish bilan bog‘liq jihatlar vaqti-vaqti bilan grafanaliz deb yuritiladi.

Akademik tarixchi Shlichtning ta'kidlashicha, grafologiya ilmiy intizomga aylana olmagan bo‘lsa-da, eksperimental psixologiya va psixiatriyadagi ko‘plab mutaxassislar grafologiyani yanada kengroq, taniqli ifoda ilmi doirasida o‘rganishga kirishdilar . Grafologiya bir asrdan ko‘proq vaqt davomida bahsli bo‘lib kelgan. Garchi tarafdorlar ijobiy guvohliklarning latifaviy dalillarini shaxsiyatni baholash uchun ishlatish uchun sabab sifatida ko‘rsatgan bo‘lsalar-da, empirik tadqiqotlar uning tarafdorlari da'vo qilgan haqiqiyligini ko‘rsatolmayapti.

Shuningdek, u ruhiy salomatlik bo'yicha mutaxassislar tomonidan eng obro'siz psixologik testlarning beshtaligiga kiritilgan.

**Identifikatsiya** – matnda muallifga xos alomatlarni aniqlash: yoshi, jinsi, muayyan hududga mansubligi, sotsial xoslanishi va h.k.

**Ironiya** – qahramonlik, kinoyali so'zlar, istehzoli so'zlardan foydalanish, so'zning konnotativ komponentini tashkil etuvchi nozik, yashirin masxara so'zlar, iboralar. Bu so'zning to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshi ma'nosida ismni (yoki butun so'zni) ishlatishdan iborat. Irony, aytilgan (yozma) so'zlarni tom ma'noda anglash imkoniyatini istisno qiladigan kontekst yoki ma'lumot asosida ochiladi. Irony sud jarayonining predmeti bo'lishi mumkin emas, chunki bu idrok bilan bog'liq; Turli xil odamlar bir xil kinoyali bayonotni har xil yo'llar bilan qabul qilishadi: ba'zilari ijobiy, xushmuomala kinoya, boshqalari salbiy, yovuzlik, boshqalari esa kinoya mazmunini umuman anglamaydilar.

**Qayiqsimon shakl-** a dan tashkil topgan idish shaklidagi shakl

konkav zarbasi va to'g'ri chiziq, ba'zan harflar asosini tashkil qiladi.



[*Roy A.Huber B.Handwriting identification: Facts and fundamentals. Boca Raton New York-1999*]

**Xatshunoslik ekspertizasi**

- shaxsning yozish va nutq qobiliyatini o'rganish. Qo'l yozuvi tekshiruvi identifikatsiya va diagnostika muammolarini hal qiladi.

Yozma matn mualliffligini aniqlash uchun (imzolar, eslatmalar, xatlar va

va boshqalar) munozarali yozma matn shu matn bilan taqqoslanadi

qiyosiy namuna. Qiyosiy namunaning mualliffligi so'zsiz belgilanishi kerak.

Qo'l yozuvi bilan shaxsiy identifikatsiyadan tashqari, qo'l yozuvlarini tekshirish

shuningdek quyidagi diagnostika vazifalarini hal qiladi:

- matnni ijro etgan shaxsning holatini (normal / g'ayrioddiy) aniqlaydi;
- matn muallifining jinsini, yoshini va boshqalarni belgilaydi

**O'zgartirilgan yozuv** - Hujjatga fizik, kimyoviy yoki mexanik usullar bilan kiritilgan o'zgartirish.

**Yashirin yozuv**(disguised writing)- Yozuvchining yozish odatlarini o'zgartirishga urinib, shaxsini yashirishga qaratilgan qasddan o'zgartirilgan yozuvlar.

**Buzilgan yozuv**(disorted writing) - Yashirin yozuvdagi kabi ixtiyoriy harakatlar natijasida yoki jismoniy kasallik yoki yozuv yuzasi kabi beixtiyor omillar natijasida tabiiy ravishda bajarilmaydigan yozuv

**2-ilova**. Ekspertiza tahlili uchun olingan anonim xat namunasining tahlili.

3.7-jadval

Ekspertiza uchun olingan matnning yosh xususiyati bo'yicha tahlili

| | Matnda | 10-20 | 21-30 | 31-45 | 50 va undan yuqori |
|---|---|---|---|---|---|
| Leksik jihatdan | Ket (haqorat semasiga ega) | - | + | + | + |
| | j....b | - | +,- | + | +,- |
| | It | - | + | + | + |
| | Gayka | - | + | + | - |
| | Laycha | +,- | + | + | + |
| | Terpila | - | -,+ | + | + |
| | Is olmoq | - | +,- | + | + |
| | Xaromtovoq | - | - | - | - |
| | Xarom-xarish | - | + | + | + |
| | Kazyol | -,+ | + | + | + |
| | s... | - | - | + | -,+ |
| | Terpet qilish | +,- | + | + | +,- |
| | Enangni kursataman | + | + | + | + |
| | Zapal/zaybal | +/- | + | + | + |
| Grammatik jihatdan | Ketni-ketdi (ni-di) | + | + | -,+ | -,+ |
| | o'rindiqqa-o'rindiqa | + | + | +,- | +,- |
| | larni-lani | + | + | + | + |
| | Bilib qo'ylarin, Sanlar-ko'rasanlar | -,+ | +,- | + | +,- |
| | Terpet qilishni | - | + | + | + |
| Grafik | n-t almashishi | + | + | +,- | +,- |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **jihatdan** | q tovushi tushishi | + | + | -,+ | -,+ |
| | Ayt-et | + | + | + | + |
| | L tovushi tushishi (is osin) | + | + | + | -,+ |
| **Topografik jihatdan** | Harakatning barqaror emasligi | + | - | - | + |
| | Nishablik qisman o'ngga | - | + | + | +,- |
| | Harf elementlarining qisman bog'lanishi | - | + | + | -,+ |
| | Elementlar sonining o'rtacaha kamayganligi | - | + | + | -,+ |
| | Elementlarda qirradorlik | -,+ | + | + | + |